



BOIR XOLMIRZAYEV

REJISSYORNING SPEKTAKL USTIDA ISHLASH JARAYONI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BOIR XOLMIRZAYEV

**REJISSYORNING
SPEKTAKL USTIDA
ISHLASH JARAYONI**

Darslik

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan san'at va madaniyat oliy o'quv yurtlari
uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

«Musiq» nashriyoti
Toshkent
2009

Boir Xolmirzayevning ushbu darsligi san'at va madaniyat oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan bo'lib, III bobdan iborat.

I bob muallifning tarjimai holi, institutni tamomlagach, Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali teatrida olib borgan ijodiy faoliyati hamda uning pedagogik faoliyatiga bag'ishlangan. Shu bilan birga, B.Xolmirzayev O'zbekiston davlat san'at institutining ko'p yillik o'z an'alariga ega bo'lgan «Musiqali teatr san'ati» kafedrasida va musiqali teatr aktyorlariga qo'yiladigan talablar haqida, o'zining ilk rejissorlik ishi bo'lmish S.Sirojiddinov qalamiga mansub «Osmonning bag'ri keng» nomli asariga bo'lgan yondashuvlari hamda dramatik asarning musiqali drama asari holiga keltirilguncha bo'lgan ijodiy jarayon haqida so'z yuritiladi.

II bobda esa, asar ustida olib borilgan tajribalarni o'quvchilar bilan o'rtoqlashadi. Muallif rejissorlik faoliyatida musiqali spektakl ustida qanday ishlash kerakligi, rejissor, kompozitor, xormeyster, dirjor, baletmeyster, konsertmeyster va asar muallifi bilan ish jarayonida to'qnash keladigan muammolarni qanday yechish, ijodiy jarayonni to'g'ri tashkil qilish borasida fikr yuritgan.

Muallif darslikning III bobida ikkala bobda bayon etilgan ijodiy ishlarni, pedagoglik faoliyatidagi amaliy tajribalarini qalanga olgan. Pedagog rejissor sifatida yosh, bo'lajak musiqali teatr aktyorlarini tarbiyalash, teatrning yetuk aktyorlari sifatida amaliyotda ijodiy faoliyat ko'rsatishdan ko'ra mashaqqatliroq ekanligi haqida yozadi.

Muallif darslikda kurs badiiy rahbari, pedagog rejissor sifatida bitiruvchi kursda sahnalashtirgan N.Qobulning (F.Olimov musiqasi bilan) «Na malakman, na farishta» diplom spektakllarida obraz ustida ishlash jarayonlarini to'laqonli yoritishga harakat qilgan.

M a s ' u l m u h a r r i r :

Hamidjon Ikromov – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor.

T a q r i z c h i l a r :

Teshaboy Bayandiyev – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, san'atshunoslik fanlari doktori, professor.

Rustam Ma'diyev – O'zbekiston xalq artisti.

Bahrullo Lutfullayev – O'zbekiston san'at arbobi.

I BOB

MUSIQALI DRAMA YARATISHNING NOZIK JIHATLARI

Muqaddima

1978-yili Toshkent davlat teatr va rassomlik san'ati institutining musiqali drama va komediya teatri aktyori bo'limiga o'qishga kirgan davrimdan shu kunga qadar butun ijodiy faoliyatim ustozlarning ham nazariy, ham amaliy tajribalaridan saboq olgan holda, teatr san'atining shu yo'nalishi bilan chambarchas bog'liq davom etib kelmoqda.

Institutda professor Rahim Sayfutdinov rahbarligidagi kursni muvaffaqiyatli tamomlagach, 1983-yili Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali, teatrida solist-vokalist sifatida ish boshladim. Shu kungacha qator spektakllarda 150 ga yaqin turli xarakterdagi rollarni ijro etdim. Masalan, Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni asosida yaratilgan «Xurshid» pyesasida Sheruya, (To'xtasin Jalilov musiqasi), N.Qobulov va B.Lutfullayevlarning «Na malakman, na farishta» spektaklida Mahmudxon, H.G'ulomov, M.Leviyevlarning «Mangulik» musiqali dramasi Ummat, U.Azimov, B.Lutfullayevlarning «Alpomishning qaytishi» musiqali dramasi Alpomish, X.Davron, B.Lutfullayevlarning «Boburshoh» musiqali dramasi Bobur va boshqa ko'plab obrazlar shular jumlasidandir.

Aktyor sifatida ko'p yillar spektakllarni tayyorlash jarayonida ishtirok etish, turli rejissyorlar bilan obrazlar talqini ustida bahs-munozaralar yuritish, shu bilan birgalikda, Mannon Uyg'ur

nomidagi Toshkent davlat san'at instituti «Musiqali teatr san'ati» bo'limida o'qituvchi bo'lib ancha yillardan buyon faoliyat olib borayotganligim, kurs badiiy rahbari sifatida bo'lajak musiqiy aktyorlarga to'rt yil davomida (2005-yilgacha «Musiqali drama» bo'limida talabalar besh yil tahsil olishar edi) San'at nima? Musiqiylik va musiqiy teatr nima? Musiqiy aktyor qanday bo'lishi va o'qish davomida nimalarga e'tibor berilishligini ular ongiga singdirishdan boshlab, ya'ni:

1. Bir va ikki ovozli xor qo'shiqlarida taburetka mashqlari.
2. Ritmik mashqlar.
3. Musiqa jo'rligida plastik mashqlar.
4. Buyumsiz xatti-harakatlar.
5. Buyumlarni jonlantirish.
6. Kuzatuvlar.
7. Juftlik kuzatuvlar.
8. Etudga o'tish mashqlari.
9. Xotiraga asoslangan mashqlarda so'zning tug'ilishi.
10. Etudlar.
11. Juftlik va ko'pchilik bilan ijro etiladigan etudlar.
12. Etudlarga kuyning va qo'shiqning tug'ilishi mashqlari.
13. Proza asarlardan kelib chiqqan holda bajariladigan etudlar.
14. Dialogli sahnalarda duetlarning tug'ilishi mashqlari.
15. Musiqali asarlardan parchalar ishlash.
16. Bir ko'rinishli pyesalar ustida ishlash va uni sahnada jonlantirish.

17. Nihoyat diplom spektakli ustida ishlash va professional sahna asari yaratishgacha bo'lgan nozik musiqiy ta'limni metodist-pedagog sifatida boshimdan o'tkazganim, ayni paytda ham o'tkazayotganim jarayonida ko'nglimda rejissura sohasida ham o'zimni sinab ko'rish ishtiyoqi tobora kuchaya bordi. Natijada 2000–2002-yillar davomida M.Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at institutining Oliy rejissura kursida tahsil oldim. Diplom ishi sifatida dramaturg S.Sirojiddinovning «Osmonning bag'ri keng» deb nomlangan asarini sahnalashtirishga kirishdim.

Asar sahnalashtirish men o'ylagandek oson ish emas ekan. Men buni «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasida

asarning birinchi muhokamasidayoq his qildim. Bo'lib o'tgan muhokama chog'ida bir qancha o'rinli taklif-mulohazalar bildirildi.

Ustozim, professor H.Ikromovdan olgan saboqlarimga tayanib, ancha vaqt davom etgan mashaqqatli izlanishlar bois dramaturg S.Sirojiddinov va bastakor O.Abdullayevlar bilan yaxlit bir musiqali drama yaratishga erisha oldik, deb o'ylayman.

Tavsiya qilinayotgan mazkur risola San'at institutida tahsil olayotgan bo'lajak yosh musiqali teatr rejissyorlari hamda aktyorlariga nazariy bilimlarini mustahkamlashda ko'mak beradi, degan umiddaman. Zero, ayni paytda musiqali drama janrida bunday qo'llanmalar kamyon ekanligidan ham ko'z yumib bo'lmaydi.



*O'zbekiston
xalq artisti
F.Rahmatova
bilan suhbat*

1- rasm.



*O'zbekiston
xalq artisti
S.Po'latov
bilan suhbat*

2- rasm.

*O'zbekiston
xalq artisti
M.Ixtiyorova
bilan suhbat*



3- rasm.

G'oyaning tug'ilishi

Kezi kelganda, «Osmonning bag'ri keng» musiqali dramasi yuzaga kelishi tarixi haqida qisqacha to'xtalib o'tsam. Ochig'i, ancha yillardan beri chuqur drammatizm bilan yo'g'rilgan insoniy munosabatlar talqiniga bag'ishlangan sahna asari yaratish g'oyasi ko'nglimga tinchlik bermay kelardi. Tomoshabin hissiyotlarini junbushga keltiradigan ushbu asarda hayotimizda uchrab turadigan bir qancha dolzarb muammolarning negizini ochib berishga harakat qilishni mo'ljallagan edim. Nihoyat, 2001-yili dramaturg S.Sirojiddinov bilan bu borada ijodiy hamkorlik qilishga kelishdik. Aslida har qanday asarni musiqali drama shakliga keltirish oson kechmaydi. Chunki dramada rejissyor, rassom, aktyor va muallif hamkorligi kifoya qilsa, musiqali dramada esa ular bilan bir qatorda, bastakor, baletmeyst, xormeyster, konsertmeyster, dirijyor va ovoz darajasi dramatik holatga javob beradigan aktyorlar ishtiroki ham talab etiladi. Ko'rinib turibdiki, musiqali drama yaratish ancha sertashvish va keng qamrovli yumush. Harqalay tinimsiz ijodiy izlanishlar natijasida ko'zlagan maqsadimizga erisha oldik, deb o'ylayman. Ijodiy jarayon ancha mukammal kechganligi yutuqlarimizning asosiy omili bo'ldi, desam mubolag'a qilmagan bo'laman.

Muxtasar qilib aytganda, asarning bosh g'oyasi ona zamin Tangrining odamzodga ato etgan eng tabarruk, pokiza ne'mati ekanligi, hayotning go'zalligini dildan his qilish, uni asrab-avaylash har bir insonning muqaddas burchi ekanligini ishonarli hayotiy voqealar orqali tomoshabinlarga ko'rsatib berishdan iborat edi.

Huriniso ona obrazi



*Asar haqida
O'zbekistonda
xizmat ko'r-
satgan artist
D.Safayeva
bilan suhbat*

4- rasm.

*Huriniso roliga aktrisa
sinovdan o'tmoqda*

5- rasm.



Har tong yangi kunga shukrona aytib, odamlarga mehr ulashib charchamaydigan mushfiq onaizor mudom yerning muqaddasligini eslatib turadi. Oллоhdan odamlarga insof so'raydi. Bu tilaklarining ijobat bo'lishiga qattiq ishonadi, odamlarning o'zaro mehr-oqibat ko'rsatib yashashlaridan umidvor bo'ladi. Bu kabi ezgu tutumlarida uning o'ziga xos xarakteri yaqqol namoyon bo'ladi. Shunday bag'rikeng, tashvishli kunlarni ham, quvonchli onlarni ham boshidan, bag'ridan o'tkazgan nuroniy ayolni hech ikkilanmay saxovatli zaminga qiyos qilish mumkin.

Onaning ko'nglida bitta ezgu tilak bor — yetimlik izzatlaridan ko'ngli zada bo'lib ulg'aygan Jamshidning kamolini ko'rish.

— Bu bolaning peshonasini men silamasam, siz silamasangiz, boshqalar ham ko'ragidan itarsa, u nima qiladi? — deydi u.

Bu o'rinda mehri ummon o'zbek onasining timsoli ko'z o'ngimizda yorqin gavdalanadi. Zotan, farzand dog'ida kuygan volida uni onalik mehri bilan siylamoqchi, ko'nglidan joy bermoqchi.

Asar g'oyasini asosan ana shu obraz vositasida tomoshabinga yetkazishga e'tibor qaratdik. «Bu muqaddas zaminda pokiza do'st bo'lib, bir-biriga mehr ulashib, shaytonga hay berib, qarindoshlardek yashasabo'ladi», degan insoniy g'oyaham mushtipar ayol tilidan yangraydi.

Qahramonimiz xarakteridagi yetakchi fazilati ana shunday belgilandi.



*Spektakl
derijori
O'zbekistonda
xizmat
ko'rsatgan
artist,
professor
E. Toshmatov
bilan suhbat*

6- rasm.

Jamshid obrazi



7- rasm.

Jamshid boshiga tushgan savdolarida o'zini aybdor sanaydi. Yoshlik beboshliklaridan o'zlarini tiyolmagan yigit va qizning tiyiqsiz ehtiroslari mahsuli sifatida tug'ilgan bu bola hayotni qora rangda ko'radi. Esini tanigandan buyon hayotga, odamlarga nisbatan ishonchini yo'qotgan. Yetimxonada mehr nimaligini bilmay o'sgan. Ba'zan o'z-o'ziga: «Mening ham ota-onam bo'lgan-ku, qani ular? Boshqalardan qayerim kam? Hatto qobiliyatim ham ulardan ustunroq-ku?» deya savol beradi. Ammo javob topolmaydi. Atrofidagi odamlarni gunohkor ota-onasiga qiyos qiladi. O'zining baxtsizligi uchun ularni ayblaydi. Hatto, bunday qabohatlarga jimgina guvoh bo'lib kelayotgan yerdan domongir bo'ladi. Uni qoralaydi. Yetim yigit yoshligidayoq hayotning achchig'ini totishga majbur bo'ladi. Oqibatda bu dunyoda faqat puldorlarning oshig'i olchi ekanligiga ishonch hosil qiladi. Xiyonat, ablahlikni ko'raverib diydasi qotib

boradi. Lekin u ich-ichidan insoniy mehrga zor. Pokiza tuyg'uga, onaga, ota mehrga muhtoj...

Shu tashlandiq bola qismati orqali ba'zi odamlarning lahzalik hayvoniy hirsini qondirish ilinjida qanchalik tuban, tuzatib bo'lmis xatolarga yo'l qo'yishlariga guvoh bo'lamiz. Oradan yillar o'tsada, bu xato tuzalmaydi, aksincha, tobora rivojlanib, aybsiz aybdorga aylangan insonlar hayotini zaharlab boraveradi.

Jamshid personaji – o'zgaray aybi bilan hayoti barbod bo'lgan yoshlar timsoli. Soddadil Onaga duch kelib, uning taftli mehridan bahramand bo'lgan yigit daf'atan dovdirab qoladi. U nima qilishini bilmay, ikki o't orasida qiynaladi. Goh onaga, goh ko'chaga intiladi.

– Baribir yeringiz tor, osmonimga ketaman, – deydi u.

Lekin ona mehri Jamshidning qalbini zimistonga aylantirgan muzni asta erita boshlaydi. Oxir-oqibat uning hayot, ona zamin, odamlar haqidagi fikrlari butkul o'zgaradi.

Asarda ikki katta fikrlar to'qnashuvi aks etgan. Uni tomosha qilish jarayonida goh bu yigitchaga qo'shilamiz, goh uni yomon ko'ramiz, ba'zida esa muayyan bir fikrga kelolmay ikkilanamiz. Pirovardida yerning pokizaligi o'zimizning qo'limizda ekanligini tushunib yetamiz.

Ezgulik kushandalari

Rasul, Nizom, Bek va uning gumashtalari, qahvaxonadagi suyuqoyoq qizlar o'z tirikchiligini boshqalarning baxtsizligi,



8- rasm.

nochorligi evaziga qurishni odat qilishgan. Baxtni ham shunda ko'rishadi. «Kliyent» qancha ko'paysa, ularning obro'si, puli ham shuncha mo'l bo'ladi. Kuchlari ortadi! Qullari ko'p bo'ladi! Oqibatda ularning rahnamosi bo'lmish Bekning yakkahokimligi mustahkamlanib boraveradi.

Aslida bunday toifadagi kimsalar jamiyatimizning eng ashaddiy dushmanlari ekanligi hech kimga sir emas. Ezgu insoniy tuyg'ular yo'lida to'g'onoq bo'layotgan, ularni yo'q qilmoqchi bo'lgan ichki dushman shular ekanligi ham ayon. Qalbi mehr-muhabbat hislari bilan limmolim bo'lgan Ona obrazi ularga qarshi qo'yiladi.

Bilib-bilmay bunday kimsalar bilan hamtovoq bo'lgan Jamshidning Ona yordamida inqiroz ko'chasidan chiqib ketishi giyohvandlarning muqarrar inqirozini tezlashtiradi. Bu o'rinda tomoshabinga yetkazmoqchi bo'lgan fikrimiz, g'oyamiz shunday:

– Kelinglar, barchamiz shu Onaga o'xshab bir-birimizga mehr ko'rsatib yashaylik. Ana shundagina hayotimiz fayzli bo'ladi. Bolalarimiz hayoti bu kabi xavfdan, ofatdan xoli bo'ladi.

Baxtigul obrazi

Irodasi bo'sh, baxtsiz ota-ona tufayli qimorga yutqizilgan qiz. Qalbida yuz ochgan bokira muhabbat sharofati ila o'z kelajagiga umid bog'lagan asosiy qahramonlardan.



9- rasm.

Voqelik tizimi

Musaffo tong otishi, kun botishi asarning mazmun-mohiyatini ifodalovchi asosiy leytmotivlardan hisoblanadi. Kun – hovli, tun – qahvaxona. Onaning o‘g‘ri bolani bozordan olib kelishi. Bolaning ikki o‘t orasida qolib, ikkilanishlari.

Onaning pinhona iztiroblari.

Musiqali asarning tug‘ilishi



10- rasm.

Tugun

Bolaning giyohvandlikka intilishi. Qo‘lga tushishi.

Kulminatsiya

Tuhmat. Nohaqlikka qarshi kurash. Jang.

Yechim

«Mana, onajon, sizni topib, mehringizdan bahra olib yerda qolmoqchi edim. Afsus, odamlarning o‘zi yerni bulg‘ayapti».

Xulosa

Ogoh bo‘laylik, boylikka intilib, bir-birimizni qirmaylik! Mehr-oqibatli bo‘laylik...

«Skripkachi bir kun mashq qilmasa – xatosi o‘ziga, ertaga dirijyorga, indinga tomoshabinga bilinadi».

Demak, muntazam mashq qilib borilishi shart bo‘lgan san‘at turlaridan biri bu – musiqali drama janri, desak xato bo‘lmaydi.

«Osmonning bag‘ri keng» musiqali dramasi 2003-yili Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali drama teatrida sahnalashtirildi. Rejissyor – Boir Xolmirzayev. Badiiy rahbar – Hamidjon Ikromov.

Yuqorida aytganimdek, rejissyor sifatida kaminani ko‘pdan mehr-oqibat mavzusi bezovta qilib kelardi. Shu bois bir qancha mualliflar va asarlarga murojaat qildim. Tabiiyki, dramatik asarlar kam bo‘lsa-da, hamisha topiladi. Lekin musiqali asarlar juda kam. Muqimiy teatri xazinasiga murojat qildim. 50-60 ta pyesani o‘qib chiqdim. O‘rgandim. Tan olish kerak, barchasining musiqasi yaxshi bastalangan, o‘lmas musiqiy asarlar, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Lekin aksariyatining mavzusi sobiq sho‘ro davriga xos, «sotsialistik realizm metodi»ning temir qoliplariga bo‘ysindirilgan. Shu bois birortasini ham tanlab ololmadim.

Ko‘p zaxmat va bedorliklarni talab qilgan yangi musiqali dramani dunyoga keltirish maqsadida Salohiddin Sirojiddinov bilan bir yarim yil birga ishladik. Ish jarayonida pyesaga 20-30 martalab o‘zgartirishlar kiritildi. Obrazlarning kelib chiqishi, xarakteri, maqsadi va ayrixa xususiyatlari spektaklning yaxlit g‘oyasiga bo‘ysundirildi. Harakatlar tizmasi yanada hayotiy, jozibali, badiiy tus ola boshladi.

Voqealar sekin-asta rivojlanib, obrazlar monologlar aytishga o‘tdi. Ustozim H.Ikromov ko‘rsatmalariga amal qilgan holda, monologlarni kechinma san‘ati orqali tomoshabinga yetkazishga harakat qildik.

Bosh qahramon – Ona. Yolg‘iz o‘g‘li Tursunboy bir vaqtlar nobud bo‘lgan. Shu bois onalik mehri bu obrazning mag‘zini tashkil etadi. Hayhotdek hovlida yolg‘iz o‘zi yashaydi. Kunora o‘g‘lini eslaydi. U bilan g‘oyibona gaplashadi. Armonlarini shu hovliga to‘kadi.

Bitta-yu bitta sigiri unga ovunchoq. Gohida shu bezabon jonivor bilan gaplashadi. Mungli qo'shiq xirgoyi qiladi. Dardini shu taxlit yengillashtirgan bo'ladi.

— Yaxshiyam, dunyoda qo'shiq degan narsa bor, bo'lmasa odamlar vahshiylashib ketisharmidi? — deydi ona o'ziga o'zi pichirlab.

Qo'shnilarning bolalariga atab choponcha tikadi. Shu bilan ovunadi. Ezgulik urug'ini ko'proq ekmoqchi bo'ladi. Onalar aslida ham shunday xislatga ega. Ayniqsa, o'zbek onasi. Qalbida mehri to'lib-toshib turadi. Kimga, kimlargadir mehr bermasa yashay olmaydi. Tobi qochadi. Eziladi. Qalbidan mungli qo'shiq bo'g'ziga sidirilib keladi. Beixtiyor qo'shiq aytadi.

Ona — ana shunday katta, zalvorli obraz!

Kunlarning birida ona qo'shnisi Tojiddin bilan bozorga tushadi. Tojiddin nogahon cho'ntagiga qo'l suqqan daydi bolani ushlab olib, militsiyaga topshiradi. Bu holatga guvoh bo'lgan Huriniso bezovta bo'ladi. Ona o'zicha o'g'rigina bolaning ko'zlaridan ko'p narsalarni uqqandek bo'ladi. Uning qalbida hech kimga aytolmaydigan pinhona dardi borligini sezadi. Ajab, allanechuk noayon tuyg'ular zalvoridan ko'ngli eziladi. Ko'zidan yosh sizadi. Faryodi ichiga sig'maydi. Lablari titrab, yuragi gumiradi — «bolam!» degan faryod bo'g'ziga qadaladi. Ko'kraklari sutga to'lganday bo'ladi. Bolaga alla aytgisi, mehr bilan uning boshini silagisi keladi. Beshik tebratgisi, belanchak tuzagisi keladi!

— Bu bolaga tegmanglar, u aybdor emas! — deydi ona o'zini tutolmay. Hamma hayron. Qassobning jahli chiqadi.

— Mana bu pulni oling bolam, pensiyam... Lekin bu bolaga tegmanglar. Qo'yib yuboring uni, onang o'rgilsin! — deydi.

O'g'rigina bolakay ham jim. Uning-da ko'nglida allaqanday g'alati tuyg'ular g'alayonga kelgan..

— Bu sizga kim bo'ladi, onajon? — so'raydi militsiya xodimlaridan biri.

— Bolam bo'ladi, o'rgilay. Mening nevaram... Sal sho'xlik qi-p-di-da. Qo'yvoringlar bolamni! — deydi Huriniso ona iltijo bilan.

Ona obrazining dramatik holati ehtirossga juda boy. Ona tashlandiq, daydi, o'g'ri o'spirinni o'z bag'riga olib, uyiga boshlab keladi. g'ishloqdoshlarining ta'na-dashnomlariga ham quloq solmaydi, Ona.

Bolakayga hech qanday minnatli so'zlar aytmaydi, oddiygina mehr beradi, xolos. Jimgina, sezdirmay ko'zlariga boqadi.

Bastakorning o'rni

Jamshid uxlab qoldi. Huriniso boshida parvona. Shu topda uning qalbida ulug'vor onalik mehri jo'sh o'radi. Gapirolmaydi, yigitchaga tikilib ham turolmaydi. Daf'atan sohir kuy taraladi. Osmon engashib, Ona qoshiga kelganday, daraxtlar uning qulog'iga sirli shivirlaganday, mayin, mungli nolalar taraladi... Mana shu yerda bastakor kerak.

Bastakorni ancha izladim. Ko'p musiqachilarni bilaman. Ijodini kuzatganman. Men istagan, aytmoqchi bo'lgan fikrlarimni qaysi bastakor amalga oshira oladi?

Bir nechta bastakorlar bilan fikrlashdik. Ammo ularning ichki dunyosi men istaganday bo'lmadi. Kunlar o'tgan sari musiqali janr naqadar murakkab ekanligini, unga nisbatan o'ta mas'uliyat va nafislik bilan yondoshish lozim ekanligini his qilaman. Va albatta, musiqiy teatrda ishlayotganligimdan faxrlanaman ham.

Teatrimiz bosh direjyori J.Ortiqov bir yosh bastakorni menga tavsiya qildi.

— Lekin hali musiqali drama yozmagan! Kichik-kichik asarlarini eshitganman. Yomonmas. Shu qiz bilan bir gaplashib ko'rsang, — dedilar.

— Mayli! — dedim. Bastakorning ayol kishi ekanligi ko'nglimda allanechuk umid uyg'otgandek bo'ldi. Negaki, Onaning kechinmalarini chuqurroq anglab, kuyga solishda bu narsa qo'l kelishiga ishonchim komil edi. Shu bois yangi bastakor bilan ishlarimiz olg'a siljishidan umidvor edim.

Bastakor Oydin Abdullayeva bilan ijodiy hamkorligimiz shu tariqa boshlandi. Shundan so'ng muallifga voqealar jarayonini tushuntirib, qahramonlarning holatini so'zdan she'rga olish kerakligini, musiqali janrning yutug'i-yu, nozikligi ham aynan shunda ekanligini tushuntirdim. Chunki qaysar dramaturgimiz o'zidan ham «injiq» bo'lgan musiqali janrda ilk bor qalam tebratmoqda edi-da.

Sahnalar tizmasida rejissyorlik variantim bitdi, hisob. Ish tobora shiddatli tus olyapti. Muallif bilan ijodiy tortishuvlar, bir fikrga

kelolmaslik vujudga kela boshladi. Muallif dramatik holatlar bo'yicha o'z fikrini o'tkazishga intilar, men esa musiqali janrning o'ziga xos talablari borligini, unda avval munosabatlar, keyin dialoglar, so'ng voqealar va nihoyat, monologlar kelishini tushuntirib charchamadim. Muallif yozadi. Unga men qo'shimcha qilaman. Obrazimiz monologni ehtiros bilan talqin qiladi.

– Baribir holatni so'z bilan aytolmayapti? – deyman beixtiyor asabiylashib.

– Mendan nima istaysiz o'zi? – deydi muallif pyesasini qo'ltig'iga qistirib.

– Men shu monologingizni kuchaytirib, she'rga o'ting, demoqchiman!

– Bu yerda she'r kerak emas, xohlasangiz shu! Yo'qsa, boshqa muallifga murojaat qiling. Bilsangiz, katta teatrlarda ham asarim qo'yilgan. Ularda asarimni nari borsa besh-o'n marta o'zgartirib berganman, xolos. Siz esa bir yarim yildan beri holi-jonimga qo'ymaysiz. O'ziyam, kamida o'ttiz-qirq marta o'zgartirdik. Obrazlar qo'shdingiz, ba'zilarini olib tashladingiz. Sizlar bilan ishlash qiyin ekan. Shuning uchun ham musiqali drama yozuvchi dramaturglar yo'q ekan-da. Bunaqa qiynalib yurgandan ko'ra, ikkita dramatik asar yozardim!

– Shoshmang, o'zingizni bosing, – deyman asablari tarang tortilgan muallifni stulga o'tqazib. – Aka, mana endi o'zingizga kelyapsiz. Drama yozish hamma dramaturglarning qo'lidan kelishi mumkin. Lekin musiqali drama bitish hammaga ham nasib etavermaydi.

Bir muddatlik sukunatdan so'ng birdan muallif jonlanib qoldi.

– Aslida, to'g'ri aytasiz. Lekin oldinlari ham muvaffaqiyat qozongan musiqali dramalar ko'p bo'lgan-ku?

– Albatta. Buning boisi, spektakllarni yaratish chog'ida asosan rejissyor, muallif, bastakor birgalikda ishlaganlar. O'zaro hamfikrlikda, hamkorlikda ijod qilishgan. Aksariyat spektakllarning zuvalasi teatrdan qorilgan, sara musiqali drama shaklini olgan. Oxir-oqibat o'zbek xalqining dardini, orzusini aks ettiradigan jonli asar paydo bo'lgan. Xalqimiz sahnada o'zini ko'rgan. O'zligini tomosha qilgan. Sahnadagi jarayonda aktyorlar bilan birgalikda yashashgan.

«Tohir va Zuhra» musiqali dramasi necha yillar Muqimiy teatrini ko'klarga ko'targanini bilamiz. Tomoshabinlar chipta topolmay, teatr eshiklarini sindirib kirishgani mubolag'a emas. Chunki u har jihatdan mukammal, pishiq musiqali drama bo'lgan.

Muallif, bastakor, rejissyor birga bo'lishgan. Ba'zi qo'shiq, juft qo'shiqlar (ariya va duet), musiqachilar, orkestr sozandalari, kuylovchi aktyorlar bilan birgalikda ishlab, ijroga sayqal berishgan. Shunday ekan, siz ham bizning teatrnı yaqindan bilishga, bu yerdagi ish jarayonini tushunishga harakat qiling. Birgalikda ishlasak, nasib etsa, asarimiz muvaffaqiyat qozonishiga ishonchim komil.

Harqalay, gaplarim beiz ketmaganligi muallifning yuz-ko'zlaridan sezilib turardi. Shu topda ko'nglimda uning nozik janr mohiyatini tushunish uchun harakat qilishiga, shunga qarab qalam tebratishiga umid uyg'ondi.

Sahna soxtalikni yoqtirmaydi



11- rasm.



12- rasm.



13- rasm.

Bastakor bilan ilk bor teatrimiz sahnasida uchrashdik. Samimiy qiz ekan. Tabiiy jilmayishlari kuy-qo'shiqlariga ham o'tsa kerak, degan hazilomuz fikr ko'nglimdan kechdi. Yosh bastakorga teatrimizning tabarruk sahnasida ulug' aktyorlarimiz o'tganini, bu bir parcha erda qanchadan-qancha ehtirosli ko'z yoshlar, ter tomchilari, qalb qo'rlari to'kilganligini faxr bilan so'zlab berdim. L.Sarimsoqova, M.G'ofurov, R. Hamroyev, S. Xo'jayev, R. Boltayev, E. Jalilova, Sh. Rahimova, H. Umarov, S. Tolipov, F. Rahmatova, M. Leviyev, M. Uzoqov, M. Kuznetsova, M. Yoqubova, U. Abdullayev, A. Bakirov, S. Karimova, M. Xolmuhamedov, S. Rahmonov, O. Fayozova, M. Mirtolipov, A. Azimov, A. Muhamedov, Sh. Sultonov, J. G'iyosov kabi yana ko'plab san'atimiz darg'alari ishlagani haqida gapirdim.

Mana shunday zabardast ijodkorlar o'zbek milliy musiqiy teatrida shakllantirish va rivojlantirish yo'lida sidqidildan mehnat qilishdi. Muhimi, bu jarayon hozir ham qizg'in davom etmoqda. Teatrdagi tajribali, el sevgan san'atkorlar qatorida iste'dodli yoshlar ham qizg'in faoliyat ko'rsatishmoqdalar. Teatrning barcha xodimlaridan asosiy talab — fidoyilik. Sahnaga g'irrom, yolg'on ishlatib bo'lmaydi. Ustozlar aytganidek, bir kelib sahnaning changini yalagan san'atkor keyin ketolmaydi. Sahnada g'irrom o'ynolmaydi. Bu hikmatli o'g'it avlodidan-avlodga o'tib boraveradi. hamisha shunga amal qilinadi...

Bastakor bilan shular haqida gaplashgach, unga asarga nega qo'l urishimning boisini aytdim. Yaxshigina tanishganday bo'ldik va pyesaning bir nusxasini uning qo'lga tutqazdim.

— Siz o'qib chiqing, tushunmagan joylaringizni so'rang, — dedim unga. — Faqat rostini aytasiz. Asar sizga yoqsa, birga ijod qilamiz. Yoqmasa, xafa bo'lmayman. Siz ham, men ham, muallif ham hamfikir bo'lib ishlashimiz kerak. Aks holda, tom ma'nodagi musiqali drama chiqmaydi.

Musiqiy asarda she'rning o'rni

Kunlarni birida muallif yana keldi, bildirilgan fikrlar asosida asarga ancha-muncha tuzatishlar kiritgan. Yozilgan she'rlarda sal jonlanish bor, tabiiy ravishda musiqaga ehtiyoj tug'ilganday. She'rlarni boshqa shoirga yozdiribdi. Qofiyalar yaxshi-ku, lekin mazmun asar g'oyasiga bo'ysundirilmagan. Ularda spektaklning «dardi» aniq sezilmaydi. Yana muallif bilan bahs-munozara...

— She'r ham bizning dardimizga hamohang bo'lmas ekan, mukammal musiqali drama tug'ilmaydi, — dedim. Tabiiyki, muallifning fig'oni falakka chiqdi.

— Avval menga tabiatning, osmonning, dov-daraxtlar-u qushlarning onaga shivirlashini aks ettiruvchi she'r kerak. Bu she'rni bastakor xor jamoasi bilan jonlantirib beradi. Undan ruhlanib onaga alla qo'shig'ini beramiz. Bu tabiiy musiqali drama bo'ladi. Aslida ham voqealarimiz shunday ruhdagi kuy-qo'shiqni talab qilyapti. To'g'rimi? — dedim muallifning tasavvurini qo'zg'ab. Bu safar u indamay chiqib ketdi.

...Bepoyon osmon. Oppoq, o'zbekona so'ri. Uning tepasida oppoq matodan pashshaxona osilgan. Tong otyapti. Ona oq ro'molni boshiga tashlagan holda namoz o'qimoqda. Tabiatning musaffoligi, yurtning osudaligi uchun Yaratganga shukrona aytyapti. Erta tong — rizq. Tong — munavvarlik. Tong — hayotning davomiyligi. Ona yana bir tongni qarshilagani uchun shukr qilyapti. Halloslab qo'shni juvon kiradi. Qo'lidagi sut-qatiq to'la savatni so'ri yoniga qo'yib, ona bilan duoga qo'l ochadi. hayotimiz tinch, to'kin-sochinlik bo'lsin, deb yuzlariga fотиha tortishadi. «Ichkaridan sut, qaymoqni olib ketavering», deya ishora qiladi ona tasbeh o'g'ira turib... Xor.

Mana, ikkinchi muallifimiz ham keldilar. Bastakorimizning kayfiyat yaxshi ko'rinadi.

– Xo’sh? Asarimiz yoqdimi? – so’radim sabrim chidamay.

– Juda zo’r, Boir aka! Nima qilay, gaplashib olamizmi? – dedi u shirin jilmayib.

Xullas, bastakor bilan xor sinfimizga kirib, asar haqida batafsil gaplashdik. Fikrimiz bir joydan chiqdi.

– Hozir xor kerak! – dedim. Asar boshlanishini bastakorga tasvirlab berdim.

Musiqali asarda xor

– Xorda asosan qizlardan foydalaning. Sopranalar yuqori tonalligida bo’lsin, bular qushlarning onaga jo’r bo’lishini anglatadi. Altlar fundament bo’lib, daraxtlar, osmon, shamollarning shivirlashini anglatasin. Erkaklar olisdan yer bo’lib nola qilsin. Yerning ovozi yoqimli, baquvvat bo’lib jaranglasin. Tenorlar altlarga tirgak bo’lsin va bariton, bas baritonlar hayotni, yer yuzidagi barcha yaxshi-yomonni salobat bilan tasvirlasin. Tamoshabin ongiga dunyoning salobatini kuy-qo’shiq bilan olib kirsin. Iloji boricha ko’p ovozlilik qilib yozing. Unison bo’lmasin. She’rini men sizga yetkazaman. Xalqimiz orasida mavjud barcha alla qo’shiqlariga jiddiy e’tibor qarating. Spektaklda alla qo’shig’i judayam ta’sirli bo’lishi kerak. Musiqaning o’ziyoq tomoshabin ko’nglida ezgulik, mehr uyg’otsin. Allalarimizning barchasi ulug’. Lekin menga original alla kerak. Sizning ayol sifatida aytmoqchi bo’lgan allangiz kerak. Alla qachonki yuragingizda tug’ilsagina yozing. Majburan yozmang.

– Xo’p, Boir aka. Men sizni tushundim. Ilhom kelib qolsa, yozib-qoralayman. Sizga ijro qilib, chalib beraman. Yana ko’rsatmalaringizni olib, davom etaveraman. Mening musiqali teatrdan birinchi ishim...

– Xavotirlanmang, hammasi yaxshi bo’ladi. Yuragingiz jiz etgan bo’lsa, albatta kuylaringizda aks etadi. Qayta-qayta ishlab-yozishdan cho’chimasangiz, bas!

Muallif yana she’rni yozib keldi. Bo’lmadi.

– She’r boshqa. Yana boshqa shoir yozib berdimi? – dedim jahlim chiqib.

– Albatta boshqa shoir yozib berdi. Axir men shoir emasman-ku. Nega tushunmaysiz? Ezvordingiz-ku! – dedi muallifning tarvuzi qo’ltig’idan tushib.

– O’zingiz yozing! Nima bo’pti? Menga shu aytmoqchi bo’lgan fikrimni chiqarib bersangiz bo’ldi. Keyin kattaroq shoirlarga ko’rsatib olasiz? – deb muallifni she’r yozishga majbur qildim. – Yoki shoir ham biz bilan birga ishlashi kerak, yoki muallifning o’zi yozishi kerak. Shunda she’r yamoqdek bo’lib qolmaydi.

Kunlarning birida muallif aytganidek, xorning she’rini yozib keldi.

Badiiy rahbar va ijodiy guruh

Bastakorni chaqirtirdim, xormeystr O. Komiljonov, dirijyor O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist E.Toshmatov, konsertmeystr B.Sepeman, baletmeystr O’zbekiston san’at arbobi Sh.Ahmedov, rassom O’zbekiston san’at arbobi Sh. Abdumalikov kabi barcha ijodiy guruhni bir joyga yig’dim. Birinchi qadamimizni mustahkam qo’yish uchun ustozim H.Ikromovdan yo’nalish olib, ijodiy guruh bilan fikrlashib oldik. Hamma o’z mulohazalari bilan o’rtoqlashdi. Bahs-munozaralar qiziqarli bo’ldi. Hamma fikrlar bir maqsadga – rejisyor g’oyasi tomon yo’naltirildi. Musiqali janrni belgilab, qaysi yo’ldan ketishimizni kelishib oldik. Muallif yozilgan kelgan so’zlarning notalarga bo’linishi kabi nozik tomonlarini dirijyor, bastakor, xormeystrlar kelishib olishdi.

Rassom o’zining eskizlari, ya’ni taxminiy chizgilarini olib keldi. 5-6 ta variant. Yana fikrlashdik. Tushuntirdim. Rassom bilan ham bir fikrga keldik. Shu yerdayoq qalam bilan chizdi. Nihoyat, oppoq karovatga kelishdik. Pashshaxona ham oq. Hatto xontaxta ham oppoq bo’lish kerakligini, bu ramziy ma’noda mehrni bildirishini anglatadigan sahna ko’rinishiga to’xtaldik.

Keng yulduzli osmon... Parda ochilganda sahnadan shu manzara namoyon bo’lishi kerak... Uzoqlardan oppoq kiyimda beg’ubor yosh bolakay (xor fonida) sahna o’rtasiga keladi.

Nechun oppoq yaralgan osmon,
Qora zulmat ichida zamin.

Dunyo, na oq va na qorasan,
Anglay olmas bag'ringda inson.

Yomg'ir bo'lib yog'asan kulfat,
Inson qaydin topadi najot.
Oqligingga mahliyo, hayhot,
Oqlikdami, javob ber, najot?

Zamin uzra oqlik sohasan,
Oppoq bo'lsin zamin ham deya.
Zaminga sen bag'ring ochasan,
Kengroq bo'lsin zamin ham deya.

Inson senga talpinib yashar,
Oqligingdan munavvar bashar,
Oqliklarga to'ldir zaminni,
Zaminga ham oqlik yarashar...

Bolakay keng osmonga tikiladi. Uzoq-uzoq termulib, osmonga qo'l cho'zadi. Xor fonida oppoq karovat, oppoq pashshaxonaga o'ralgan holda, qop-qora osmon bag'ridan tusha boshlaydi. Xor finalida bolakay g'oyib bo'lib, pashshaxona sekin ko'tarila boshlaydi. Tong otyapti. Chiroq ustalarimiz tongning ranglarini bera boshlaydi. Ovoz rejissyorlarimiz, erta tongda sayrovchi bulbullar, qushlar ovozini beradilar. Ahyon-ahyonda sigirning mo'rashi eshitiladi.

Tong otyapti. Yangi kun. Yangi hayot. Oppoq tong. Yangi niyat. Birinchi xorimiz tugab, ikkinchi xor boshlanadi. 4 ovozga yozilgan xor ana shu kayfiyatni anglatishi kerak.

Xor, (she'rlar muallifi – Gulbahor Berdimurodova)
soprano, alt, bariton, bas bariton, tenor.

Bahor chog'i gullar ham suvlar,
Gohi yozda og'ochlar kular,
Ertami kech... paymona to'lar,
Anglab bo'lmas jumboq dunyosan.

Xiyonatning eshigin ochib,
Qah-qah otib kulgan o'zingsan,
Boshimga ne savdolar sochib,
Tomoshabin bo'lgan o'zingsan.

Bir tutam nur ulashganingda,
Ko'z yoshni ham tutgan o'zingsan,
Umr nima? Ochilgan bir gul,
Sen gullarga to'la dunyosan.

Sahnada – kuylovchi aktyorlar



14- rasm.



15- rasm.

Mana shu sahnada aktyorlar rejisyor tomonidan berilgan vazifani bajara boshlaydilar. Kampirning kayfiyati chog', tongni namoz bilan, yaxshi niyat bilan qarshi olyapti. Keyin odatdagidek ertalabdan sut, qatiq, qaymoq olib, shaharga ketayotgan qatiqchi shosha-pisha kiradi. Kampirning uy yumushlarini bajarishga kirishishi, sigirga xashak berishi-yu, boshqa yelib-yugurishlari

qishloqning oddiy hayot tarzini aks ettiradi. Xorning zalvorli xonishi esa tomoshabin qalbiga iliqlik, xush kayfiyat bag'ishlaydi. O'z navbatida, dunyo past-u balanddan, xursandchilig-u tashvishdan iborat ekanligini, lekin baribir yashash ulug' ne'mat ekanligini qalblarga muhrlaydi. Sahnadagi aktyorlarning xatti-harakatlari esa hayotning davomiyligidan, tirik jonzot bor ekanki, nimagadir intilib yashash kerakligidan dalolat beradi. Ular tomoshabinni o'zlari bilan birga olib yurishga, do'stlashishga, dardlashishga, ezgulik qilishga chaqiradi. Sahnadagi ishonarli xatti-harakatlar bilan uyg'unlashib ketgan kuy-qo'shiqlar, musiqali tomosha millatimiz ruhiyatini o'zida mujassamlashtirgandek tuyuladi. Tomoshabinni birga kuylashga chorlaydi. Tomoshabin bu mayin xor nolasida o'zini o'z uyiga, o'z mahallasiga, o'z qishlog'iga kelib qolganday his eta boshlaydi. Kuy-qo'shiq insonning ko'nglidagi eng nozik torlarini chertadi. Tomoshabin, sahnada o'z dardkashini topganday, bu tabarruk koshonada ezgulik sozlaridan taralayotgan sadolarini eshitayotganday huzur qiladi.

Hal qiluvchi jarayon



16- rasm.

Musiqali spektaklda kuylovchi aktyorning o'rni beqiyos hisoblanadi. Bosh qahramonlarimizga tashqi ko'rinishi mos keladigan aktyorlarni tanlayman. Ammo har doim ham tashqi ko'rinish dramatik mahoratga mos tushavermaydi. Ba'zan tashqi ko'rinish rolgam mos tushishi mumkin, ammo tanlangan aktyorning ovoz diapazonidan rejisyor sifatida ko'nglim to'lmaydi. Bosh qahramonlarimizdan biri Jamshid – yosh yigit. Uning obrazini talqin etuvchi aktyorning ovozi imkon qadar tenor bo'lishi ko'zda tutiladi. Achinarlisi, hozir bunday ovozga ega yoshlarimiz – anqoning urug'i. Tenor ovozga ega aktyorlarning esa tashqi ko'rinishi rolgam mos emas yoki dramatik qobiliyati qashshoq. Demak, rolgam mos aktyorni tanlab, bastakorga uning ovoz diapazoniga moslab qo'shiq yozdirishim kerak. Teatrning iste'dodli aktyorlari D.Uzoqov, A.Latipov shu rolni ijro etadigan bo'lishdi. Bastakor ham aktyorlar imkoniyatini hisobga olgan holda ijod qila boshladi. Ona obrazi o'ta emotsional bo'lganligi hamda monologlarning yuqori pardali ariyalarda kuylanishini nazarda tutib O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist D.Safayevani shu rolgam tayinladik. Shuni ham aytib o'tish lozimki, ehtirosli ariya va duetlar yuqori pardalarda yozilganiga qaramay, soprano ovozli bu talantli aktrisa musiqiy hamda dramatik sahnalarni qiyomiga yetkazib ijro etdi.

Qahvaxona sahnasining hayotiy chiqishini ta'minlash maqsadida Baxtigul obrazini qo'shiqchi qilib oldim. U buyurtma bo'yicha qo'shiq kuylaydi. Asosan Bekning kayfiyatiga xizmat qiladigan musiqiy sahnalarning zamon bilan hamnafasligini ta'minlash maqsadida qahramonimizga atab zamonaviy qo'shiq yozdirdik. Yoshlarga yoqadigan va yigitlar ko'nglini oladigan, hissiyotni qitiqlovchi xonishlar aktrisa M.Otajanova tomonidan maromiga yetkazib ijro etildi.

Balet truppasiga ofisiantkalar hamda Bekning ko'nglini oladigan qizlar rollarini taqsimlab, ularning ham raqs ijro etib, aktrisalilik qilishlariga erishish uchun ko'p va xo'p mashq, repititsiya qilishimizga to'g'ri keldi.

Parda, orqa pardalar, kulislarning tushib chiqishi ham sahna ko'rinishiga qo'shilganligi bois sahna ishchilari va rekvizitorlar bilan uzoq mashq qilishga to'g'ri keldi. Jumladan, chiroq va ovoz

rejissyorlari bilan ham. Sh.Orifjonov boshliq ishchilar sexi xodimlari bu vazifani yaxshi uddaladilar. A.Rahimov boshliq yorituvchilar ham spektaklga ijodiy yondoshdilar. Umuman olganda, «Osmonning bag'ri keng» musiqiy dramasi butun teatr jamoasining yakdilligi, g'ayrat-shijoati, teatr san'atiga bo'lgan muhabbatidan dunyoga keldi, desam yanglishmagan bo'laman. Shu bois tomoshabinlar spektaklni iliq kutib olishdi. Asarni hamon sevib tomosha qilishayotgani ham bejiz emas.



17- rasm.

Dramaturg S.Sirojiddinov va bastakor O.Abdullayeva bilan hamkorlikda yaratilgan «Osmonning bag'ri keng» musiqali dramasi mutaxassis va muxlislar tomonidan yuqori baholandi va 2004-yili respublika miqyosida o'tqazilgan «37+1» teatr festivalining oliy mukofotiga sazovor bo'ldi.

NOTA NAMUNALARI



Musical score for voices and piano. The vocal parts are labeled S. (Soprano), A. (Alto), T. (Tenor), and B. (Bass). The piano part is labeled Pno. The lyrics for the Soprano part are: "Ne -chun op-poq ya-ral-gan os-mon,". The score includes dynamic markings such as *p* (piano) and *o...* (ostinato).

S. qo-ra zul-mat i-chi da za-min Dunyo na oq

A.

T.

B.

Pno

S. vanaqo-ra-san, ang-lay ol-mas bag' ring-da in-son.

A.

T.

B.

Pno

S. *mp* Yomg'ir bo'lib yo-g'a san kul-fat, in-son qay-din to-pa-di na

A. *mp* o...

T. *mp*

B. *mp* o...

Pno *mp*

S. jot. Oq-li-ging-ga mah li-yo hay-hot,

A.

T.

B.

Pno

S. *mf*
oq-lik-da-mi, ja-vob ber na-jot, Za-min uz-ra

A. *mf*

T. *mf*

B. *mf*

Pno *mf*

S. oq-lik so cha-san, op-poq bo'l - sin za-min ham de -ya

A.

T.

B.

Pno

S. Za-min - ga sen bag' ring o -cha san, keng roq bo'l sin za min ham de

A.

T.

B.

Pno

S. ya In-son sen-ga tal - pi - nib ya-shar,

A.

T.

B.

Pno

S. *mp*
 oq-li-ging-dan mu-nav-var ba shar. Oq-lik-lar-ga

A. *mp*

T. *mp*

B. *mp*

Pno *mp*

S. to'l-dir za-min-ni, za-min-ga ham oq-lik ya-ra-

A.

T.

B.

Pno

S. shar,

A.

T.

B.

Pno

Pno

Pno

Moderato

mf

mf

Qay - da qol - di sa - do - qat qay - da qol - di o - qi - bat.
Os - mon kim ga qo - lib - di, za - min kim - dan ta - nib - di.

Ke - mi - ra - siz a - lam - la
Siz - dan ham qo - lardun - yo o - dam - lar, eh o - dam - lar.

Qay - da qol - di sa - do - qat qay - da qol - di o - qi - bat
Os - mon kim - ga qo lib - di, za - min kim - dan to - nib di.

Ke - mi - ra - siz a - lam - la
Siz - dan ham qo - lardun - yo o - dam - lar, eh o - dam - lar.

Me - hr yog' sin yuz - lar - dan

Nur bal - qi - sin ko'z - lar - dan, Qa - hr o'ch - sin dil - lar - dan.

O - dam - lar eh, o - dam - lar.

O - dam - lar eh, o - dam - lar. Me - hr yog' sin yuz lar - dan.

Nur bal - qi - sin. ko'z - lar - dan, Qa - hr o'ch - sin dil - lar - dan.

OSMONLARDAN BOZLAB SO'RADIM

Andantino

mf

mf

Os-mon-lar-dan bo'z lab so'-ra - dim
Bu-dun - yo - ni sar-gar-don kez - dim.

bil - sang - c - na se - ni iz - la - dim
dard - la a lam sha - ro - bim ich - dim

Yul - duz - lar - ga yig' - lab yol vor - dim
Pa - qat se - ni se - ni iz - la - dim

Birmeh ri - bon ber men - ga - de - dim.
Birmeh - ri - bon a - to et de - dim.

Yol-g'iz-lik-ning
Tun-lar o-hu

a-zo-bin tort - dim, Bil-sang bo-lam
zor bi-lan bo'l - dim.

se-ni iz-la-dim, Ey, xu - do-yim,

de-ya yol vor - dim,

Birmeh-ri-bon ber men - ga de-dim.
Birmeh-ri-bon a - to et de-dim.

f
Yo'l - la - ring - ga
mf

in - ti - zor - bo'l - dim. Tu - nu kun - lar

se - ni o'y - la - dim.

E - na - jo - nim, men se - ni top - dim

Diy - do - ring - ga bu kun ye - tish - dim.

ad libitum

mp
E - na - jon

Tempo I

nim Bo-la-gi nam Meh-ri-bo-nim

sen-ga yc-tish-dim

Piano accompaniment for the first system on page 46, featuring a treble and bass clef with a 7/8 time signature. The music consists of rhythmic eighth and sixteenth notes in both hands.

Piano accompaniment for the second system on page 46, featuring a treble and bass clef with a 7/8 time signature. The music consists of rhythmic eighth and sixteenth notes in both hands.

Vocal line and piano accompaniment for the third system on page 46. The vocal line is in a treble clef with a 7/8 time signature, marked *mp*. The lyrics are "Ta'-na-la-ri bag' rim - ni til - di,". The piano accompaniment is in a bass clef with a 7/8 time signature.

Vocal line and piano accompaniment for the first system on page 47. The vocal line is in a treble clef with a 7/8 time signature, with lyrics "Me - ni ham-ma a - yb - dor bil - di,". The piano accompaniment is in a bass clef with a 7/8 time signature.

Vocal line and piano accompaniment for the second system on page 47. The vocal line is in a treble clef with a 7/8 time signature, with lyrics "Za-min men-ga tor - lik qil - di,". The piano accompaniment is in a bass clef with a 7/8 time signature.

Vocal line and piano accompaniment for the third system on page 47. The vocal line is in a treble clef with a 7/8 time signature, with lyrics "Senchor la - gin os-mon bag' ring - ga". The piano accompaniment is in a bass clef with a 7/8 time signature.

Sen chor - la - gin os-mon bag' - ring -

mf

- ga Oq bu - lut - ga

bo-shim qo' - yib, dar - dim ay - tib, yig' - lay to' - yib

O'z o'g' - ling - day me - ni su - yib, Sen chor - la - gin

os-mon bag' - ring - ga.

Musical score for the first system on page 50. It consists of a vocal line on a single treble clef staff and a piano accompaniment on two staves (treble and bass clefs). The vocal line is mostly silent, with a few notes appearing in the second measure. The piano accompaniment features a steady eighth-note bass line and chords in the right hand.

Musical score for the second system on page 50. The vocal line begins with the lyrics "Si-la-ma-di hech-kim bo-". The piano accompaniment continues with the same rhythmic pattern as the first system.

Musical score for the third system on page 50. The vocal line continues with the lyrics "shim, Ko'z la-rim-da". The piano accompaniment remains consistent.

Musical score for the first system on page 51. The vocal line begins with the lyrics "mar-jon yo - shim". The piano accompaniment continues with the same rhythmic pattern.

Musical score for the second system on page 51. The vocal line continues with the lyrics "ku-lar-mi-kan baxt qu-yo - shim". The piano accompaniment remains consistent.

Musical score for the third system on page 51. The vocal line continues with the lyrics "Sen chor-la-gin os-mon bag' ring -". The piano accompaniment remains consistent.

mf

- ga Oq bu-lut-ga

bo-shim qo'-yib, dar-dimay-tib yig'-lay to'-yib.

O'z o'g'-ling-day me-ni su-yib, Sen chor-la-gin

os-mon bag'-ring - ga.

Allegretto

mp

f

Qa-fas - da - gi

qush-day yu - ra - gim Ti - pir - lay - di ko'k-sim-ga sig' -

may. Oh, os-mo - nim qa-not ber men-

ga Tub-siz os-mon bag' ri - ni qu - chay

f
Bo - la - jo - nim,

top-gan pa- no him, sabr qil - gin to'k-mako'z yo-

shim. In - sof ti - la

ol - loh - dan fa - qat Bi - lol - ma - dim ne - dur gu - no -

him.

f
Haq - siz - lik - dan

ing - ray - di di - lim, oq - di yosh - lar ko' zim - ga sig' - may.

Oh, os - mo - nim ma - dad ber men - ga

ya - sha - yap - man dun - yo - ga sig' - may

Oh, a - zob - da

o' - ta - dur um - rim ort - da qo - lar yil - lar - ga sig' -

may. Oh. Os-mo - nim sa - br ber - un-

f G'a nim - la - rim o' - qi - dan di - lim

ga, Ya-sha - yap - ti dun - yo - ga sig' -

o' - la - yo - tir jis - mim - ga sig' - may.

may.

Oh os - mo - nim fat - vo ber men - ga

ALLA

Andante

mp

Yo' qot - ga-nim ot-ga- nim,

al - la bo - lam, al - la - yo

Qosh - ko'z la - ri o'x-sha- shim

al - la bo - lam al - la - yo o...

yo - al-la.

Tamom

O'x-shab ke - tar ux - la - shi

al - la bo - lam, al - la - yo

Si - no - at - dan men lol - man,

Hu - shim u - chib be - hol - man - cy

al - la - - yo al - la.

FINAL

First system of music on page 68. It consists of a vocal line and a piano accompaniment. The vocal line is in treble clef with a key signature of two flats and a common time signature. It begins with a piano (*p*) dynamic and the lyrics "O...". The piano accompaniment is in grand staff (treble and bass clefs) and features a steady eighth-note accompaniment in the bass line and chords in the treble line.

Second system of music on page 68. It continues the vocal and piano parts from the first system. The piano accompaniment maintains its rhythmic pattern.

Third system of music on page 68. It concludes the page with the vocal line and piano accompaniment. The piano accompaniment ends with a final chord.

First system of music on page 69. It consists of a vocal line and a piano accompaniment. The vocal line is in treble clef with a key signature of two flats and a common time signature. It begins with a mezzo-piano (*mp*) dynamic. The piano accompaniment is in grand staff and features a steady eighth-note accompaniment in the bass line and chords in the treble line.

Second system of music on page 69. It continues the vocal and piano parts. The piano accompaniment features a *poco a poco cresc.* (poco a poco crescendo) marking. The piano accompaniment maintains its rhythmic pattern.

Third system of music on page 69. It concludes the page with the vocal line and piano accompaniment. The piano accompaniment ends with a final chord.

Musical score for page 70, measures 1-4. The score is in 3/4 time and features a key signature of two flats (B-flat and E-flat). It consists of four staves: two for the vocal line (treble and bass clefs) and two for the piano accompaniment (treble and bass clefs). The vocal line begins with a forte (*f*) dynamic and includes a vocal line with a fermata. The piano accompaniment features a steady eighth-note bass line and chords in the right hand.

Musical score for page 70, measures 5-8. This system continues the vocal and piano parts from the previous system. The vocal line continues with eighth-note patterns and rests. The piano accompaniment maintains its rhythmic pattern of eighth notes in the bass and chords in the treble.

Musical score for page 71, measures 1-4. The score continues from page 70. The vocal line has a fermata in the first measure. The piano accompaniment features a steady eighth-note bass line and chords in the right hand.

Musical score for page 71, measures 5-8. This system continues the vocal and piano parts. The piano accompaniment features a steady eighth-note bass line and chords in the right hand. The system concludes with a double bar line and repeat dots. Dynamics include *ff* (fortissimo) and *fff* (fortississimo).

II BOB

NAZARIY BILIM VA AMALIY TAJRIBA UYG'UNLIGI

Muallif

O'z kasbida ma'lum darajada tajriba orttirgan har qanday inson ham shogird tayyorlagisi keladi. Hayotning qonuni shu – kechagi shogird bugun ustoz. Mustahkam qonuniyat tusini olgan bu an'ana uzluksiz davom etaveradi. Kamina ham 1978-yildan beri musiqali drama sohasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan bo'lsam, vaqtida O'zbekiston xalq artistlari Hamza Umarov, Baxtiyor Ixtiyorov, Murod Rajabovlarning qimmatli o'g'itlaridan bahramand bo'ldim. Qolaversa, A.Sayfuddinov, H.Ikromov, M.Rahmonov, T.Bayandiyev, R.Usmonov singari professor-ustozlarimdan teatr san'atining nazariy asoslarini o'rgandim. Natijada san'atkor va pedagog sifatida tanildim.

Gapning sirasini aytganda, ushbu risolani yozishda 15 yillik o'qituvchilik hamda musiqiy teatrdagi chorak asrlik faoliyatim davomida orttirgan tajribalarim benihoya qo'l kelganini ta'kidlamoqchi edim. Ayniqsa, yaqinda San'at instituti talabarlari bilan sahnalashtirganim «Boburshoh» diplom spektakli talabalar bilan olib borgan ijodiy-pedagogik izlanishlarimning ma'lum bir samarasi sifatida yakun topdi. Shu bois musiqali teatr aktyori tarbiyalashning men kuzatgan va professional bo'lish uchun muhim deb hisoblanadigan xususiyatlarini shu spektaklni yaratish jarayoni

haqidagi hikoyaga singdirishga harakat qildim. Ushbu risola musiqali teatr o'qituvchilariga mazkur janr sirlarini o'rganishlarida bir dasturulamal bo'ladi, degan umiddaman.



18- rasm.

Asar tanlash

O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning «Boburshoh» dramasi o'qidim-u, shu ondan boshlab Bobur to'g'risidagi maqolalar, u haqidagi tarixiy hujjatlar va bobomizning durdona «Boburnoma»sini sevib mutolaa qila boshladim.

Kimki keldi bu jahong'a oxiri bo'lg'ay fano,
To abad qolg'ay jahonda yakka-yu yolg'iz Xudo!

Bobur Mirzoning jangga kirish oldidan lashkarlariga qiladigan xitobi ana shunday edi.

Bobomizning boshidan kechirgan og'ir, lekin sharafli hayot yo'li meni batamom lol qoldirdi. Yurt sog'inchi, yuragining to'rida toshdek turishi va o'shanday holatda ham ijodga o'zida kuch topa olganligi, Amir Temur tuzgan ulug'vor saltanatni qayta tiklashga urinishi, turkiy elatlarning to'zg'ib ketgan, tarqoq qavm-u qarindoshlarini yana birlashtirish yo'lida ko'rsatgan matonati meni batamom hayratga soldi.

O'zga yurt — Hindistonda ham me'morchilikka, san'atga katta e'tibor qaratganligi bu insonning nozik qalb egasi ekanligidan dalolat beradi. Bu holat meni o'sha davr tarixini o'rganishga, his qilishga undadi.

O'sha paytdan boshlab institutning musiqali drama bo'limidagi yuqori kurs talabalari bilan mazkur asardan parchalarni sahnalashtirishga jazm qildim. O'zimda qandaydir kuch topa oldim. Allohga tavakkal qilib, ijodiy ishni boshladim.

Niyatim «aktyorlik texnikasini, uning alifbosini o'rganmasdan turib, kelajakda ulkan san'at asari yaratish, ijrochisi bo'lish mushkul. O'zingga ato etilgan qobiliyat va sayqal toptirilgan mahoratgina kelajakda shirin va totli meva beradi», degan fikrni talabalarimga uqtirish va ularni shunga undashdan iborat edi.

Asosiy obrazlar taqsimoti



19- rasm.



20- rasm.

Talabalarim orasida Odil Ergashev degan o'qimishli, shoirtabiat, o'zbek xalq baxshichilik maktabi sirlarini xiylagina egallagan shogirdim Boburshoh ruhiyatini anglay boshladi. Qiziqishi, olgan qo'shimcha ma'lumotlari, qo'shiq xirgoyi qilgandagi dardli nolalari mening fikrlarimga hamohang kela boshladi. Uning rolga yondoshishini toblash maqsadida kichik-kichik vazifalar berib, sahnada sinab ko'ra boshladim.

Bobur ijodi bilan yaqindan tanishish jarayonida uning ko'pgina g'azal va ruboiylarida sufiylik falsafasi aks etganini anglaymiz:

Sen gulsen-u men faqir bulbuldurmen,
Sen shu'lasen-u ul shu'laga men kuldurmen,
Nisbat yo'qdur deb ko'p gumon aylamakim,
Shohmen elga, vale Senga quldurmen.

Bobur kichik qo'shin bilan Hindistonni zabt etgach, o'sha yurtda o'zini ilk bora Boburshoh deb e'lon qilgan. Tantanali kunlarda ham ona yurti sog'inchi dilini tark etmaganini ushbu baytlardan bilish mumkin:

Tole yo'q boshimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi,
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Boburning ushbu ruboiysida qalb iztirobi, vijdon azobi aks etadi. Uning zavjalaridan bo'lmish Dildorbegimning farzand dog'idagi

iztiroblari, telbavor holatlari Boburga ham salbiy ta'sir qiladi. Ko'nglini o'rtaydi.

— Kenjam vafotidan keyin Dildorbegim shu ahvolga tushib qoldi. O'g'illarimning birortasi vatanga qaytib, bobolari taxtiga ega bo'lg'aymu yoki zamona ta'mirig'a qarab, meningdek g'urbatkash qolg'aymu, deb qayg'udamen, mavlono, — deya fig'on chekadi. Boburning iste'dodli davlat arbobi, mohir sarkarda bo'lish bilan birga, musiqa ilmida ham benazir bo'lganini «Boburnoma» asaridan angladik, bildik. Vatan sog'inchi naqadar dardli bo'lishini his qilishga harakat qildik. Bu asarni musiqali dramaning o'ziga xos qonun-qoidalariga to'la bo'ysindirish mumkin, degan aniq va ishonchli xulosaga keldim. O'zbekiston san'at arbobi, bastakor Bahrulla Lutfullayev asarga musiqa bastalaganlar.

Ma'lumki, Bobur g'azallari juda ko'p mumtoz ashulalar uchun asos bo'lgan. Shu bilan birga O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayevning qo'shiqlaridan ham foydalanishni nazarda tutdim. Boburning xastalik chog'idagi holatini dramaturg o'tli misralarda dard bilan ifodalaydi:

Jismimda isitma kunda mahkam bo'latur,
Ko'zdan qochadur uyqu, chu oqshom bo'latur.
Har ikkalasi, g'amim birla sabrimdek
Borg'on sari ortadur, u kam bo'latur.

Boburning maslakdoshi bo'lmish Xondamirga, bobomiz «goh-gohida ayting!» — deb murojat qiladilar. U ham Boburning holatini anglab, fig'on bilan kuylaydi. Go'yoki Bobur g'azallarini xirgoyi qiladi. Klassik qo'shiqlar ohangida jarangini topgan, Xondamir ijrosidagi xazin qo'shiqlarni bastakor B.Lutfullayev mahorat bilan orkestrga «joylaydi». Xondamir rolini shirin ovoz diapozoniga ega bo'lgan yana bir shogirdim Ma'murjon Zafarov talqin etdi.

Talabalar kun sayin Boburshoh hayoti, turmush tarzi, xarakteri, ichki dunyosi bilan, kengroq tanisha borishdi. Har bir talaba o'ziga berilgan rollarining kelib chiqishi, maqsadi, xarakteri, ko'rinishi, sahnada bevosita qo'llanadigan manbalarni chuqur o'rgana borishdi.

Obrazlar tahlili va sahnadagi xatti-harakatlar

Aktyorlik mahorati darslaridan birida, erkin mavzuda talabalarga Boburshoh hayoti haqida etud – parcha tayyorlashni tayinladim. Mana shu tariqa Boburshoh asarini talabalar o'zlariga singdira boshladilar.

Talabalar uchun, ayniqsa kuylovchi aktyorlar uchun asarning asosiy kalitlaridan biri – bu Boburshohning inson sifatidagi ichki kechinmalari, iztirobi, vatanga bo'lgan sog'inchini ochib berishda, deb belgiladim va ularga buni vazifa qilib tayinladim.

– Tangriga shukr, Hindni zabt etdik, lekin yurt sog'inchini ko'nglimni o'rtaydi. Bahor kelsa, qulog'im Axsikat dalalarida una boshlayotgan urug'larning tirsillashini eshitadur, ko'zlarim Samarqand tomonlarga uchib o'tayotgan turnalar ortidan mo'ltirab qoladur. Ko'nglimda o't-u, ikki ko'zimda suvdur mavlono!...

Yaqinda ota yurtdan bir qovun keltirib edilar. Kesib yegach, g'arib ta'sir qildi. Tamom yig'ladim. Ko'z yoshlarim ichimga oqdi, – deya nola qiladi shoh tarixchi olim Xondamirga yuzlanib...

O'zlariga berilgan vazifani aniq his etish va personajlarning holati, maqsadi, ichki kechinmalari, intilayotgan aniq ob'ektlarini bilish kuylovchi aktyorlar uchun muhim omil hisoblanadi. Chunki ijrochi aktyor nafaqat dramatik, balki musiqiy holatlarni ham me'yoriga yetkazib ijro eta olishi kerak.

Bobur har vaqt, har soniya ona tuprog'ini yig'lab, oh chekib qumsashi uning g'azallarida va qo'shiqlarida aks etadi. «Andijonim qoldi meni», – deb fig'on qiladi. Fig'on qo'shiqqa aylanadi. Bobur roli ijrosiga kirishgan talaba Odil Ergashev O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayev musiqasi bilan ushbu qo'shiqni xirgoyi qiladi. g'o'shiqqa albatta milliy sozlar jo'r bo'lishligini mo'ljallab qo'ydim. Chunki bu qo'shiq orkestrda yetarlicha jarangini topmaydi.

Padarimni yutib ketgan jarda jonim qoldi mening,
Qabin torin tortib chertgan yorda jonim qoldi mening.
Shabbodadek shabgir etgan elda jonim qoldi mening,
Farzandini mehmon etgan yerda jonim qoldi mening.

Xonanda aktyor bilan Bobur obrazining shaxs sifatida qanday xususiyatga ega ekanligini belgilab oldik. Tarixiy manbalardan uning oddiy inson sifatida qanday xarakterga ega bo'lganini sinchiklab o'rgandik.

Bobur – mohir sarkarda. Usta jangchi. Davlat arbobi. Shoir. Olim. Musiqa ilmida benazir san'atkor. Shu bilan birga, Bobur mehribon otadir, g'amxo'r padari-buzrukvordir. Bobosi Amir Temur qachonlardir tiklagan saltanatning yana qaytadan qaddini rostlash – uning oliy maqsadi. Lekin turkiy xalqlarni birlashtirish orzusi hamon samarasiz bo'lib qolayotganligidan azobda qolgan, ich-ichini yeyayotgan, tinimsiz yangi rejalar xayoli bilan yashayotgan Bobur har doim ichida yig'laydi. Yolg'iz qolganida Tangriga nola qiladi. Fig'oni falakka yetadi. Lekin davlat ishlarida, jang maydonida keskir. Gapini ikkita qiladiganlarga shafqat qilmaydi. O'limga tik qaraydi. Mana shunday xislatga ega shaxsni O.Ergashev qalbiga singdira boradi. Boburning dardini, inson sifatida iztiroblarini talaba ongli ravishda his qiladi.

Ijodiy jarayon

– Qo'rqamen mavlono, qo'rqamen. Agar g'urbatda tug'ilgan farzandlarim vatan yodidan benasib bo'lsalar, mening xoki-jasadimni kim yurtimg'a olib borg'ay, mavlono, kim?... Bag'rim kuyib ketdi...

Dardni, oh-u nolani aytishga so'z ojiz bo'lganidan kuylovchi aktyor beixtiyor xirgoyi qiladi... Pedagog rejisyor sifatida bu holat aktyorga og'irlik qilayotgan-ligini sezib, musiqaning erkin (rez) usulini tanlash orqali unga



21- rasm.

Drama aktyoridan farqli o'laroq, musiqali teatr aktyori zimmasida yuk og'irroq. Chunonchi, ham dramatik holatni kechinma san'atiga qo'yib ijro etish lozim. Ham g'azalni maromiga yetkazib, rukunlarga solib o'qish kerak. Va nihoyat, g'azal o'qilib kuyga ulanadi. Kuy esa qo'shiqqa ulanadi. Diapazoni keng yozilgan, avjli ariyani ijro etayotgan aktyor o'zini nihoyatda ayab harakat qilishi kerakligini talaba goh tushunadi, goh tushunmaydi. Gohida organikasi shiddat bilan ishlayotganidan o'zini sahnada to'xtata olmay, bastakor tomonidan yozilgan va orkestrrovka qilingan ariya, duet, trio, kvartetlarda usuldan qochish, avj pardalarida falsh qilish, ya'ni notaga yetib aytmaslik jarayonlarini boshidan kechiradi. Noprofessional ijrosini sezgan kuylovchi aktyorni esa o'z-o'zidan o'ynayotgan obrazining to'laqonli mahsulini ta'minlay olmasligini his qilishi uning fikrini chalg'itadi. Bu tabiiy jarayon. Natijada aktyor ariyani maromiga yetkaza olmaydi.

Musiqali dramaning nozik tomonlarini talabalar qiyinchilik bilan tushuna boradi. Tinimsiz mashqlar, tushuntirishlar tufayli keyingi parchalami ishlash jarayoni yengil ko'cha boshlaydi. Notada mustahkam turish, shu bilan birga, holatni izdan chiqarib yubormaslik musiqali aktyor zimmasidagi eng asosiy vazifaligini, uning mahorati ham shunda ekanligini, tajribada sinab ko'rayotgan talabalar mas'uliyatni chuqurroq his eta borayotganliklarini payqayman. Xondamir obrazini talqin qilayotgan kuylovchi talaba M. Zafarovni shu rolga bejiz tanlamaganman. Unda tabiat ato etgan benazir qo'ng'iroq, jarangli tembirga ega bo'lgan ovoz bor. Dramatik bariton!

Bobur o'zining g'azallarini, hayotiy kechinmalarini qog'ozga tushirar ekan, goh-gohida yozganlarini qo'shiq qilib kuylaydi. Bu qo'shiqlar orkestr jo'rligida ijro etiladi. Kuylovchi talaba bastakor yetarli darajada avjli, katta avjli qilib notaga tushirgan ariyaning dirijyor boshchiligidagi to'laqonli ijrosini ta'minlashi kerak bo'ladi. Shu bois talabaga yengilroq vazifani beraman. Kechinma san'ati orqali emas, «go'yoki» degan, ya'ni ko'rsatib berish usulini qo'llayman. Agar aktyor aytayotgan ariyasini haddan tashqari hissiyot bilan ijro etsa, yuqori pardalarga chiqolmasligini tushuntiraman. Va bu holatni talabaning o'zi ham tajribada bevosita boshidan o'tkazadi.

Ona obraziga chizgilar



*Talabalar ona roliga
sinov kiyimida
ko'rikdan o'tmoqda*

23- rasm.

Asardagi yana bir o'ta murakkab kechinmalarga boy sahna bu — malika Bayda sahnasi. Malika Bayda Boburga zahar bergan — shu tariqa Bobur bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan o'g'li Ibrohim Lo'diy uchun qasos olishga bel bog'lagan.

— U dushman emas. Onadir. Onalik mehri tufayli shu mudhish ishga qo'l urdi. Men toki tirikmen, onaga jabr qilinmasin. Men ne tanovvul qilsam, unga ham shuni beringlar. Onamizdek izzat-ikrom qilinglar, — deb onaga mehribonchilik qiladi Bobur. O'zi o'lim bilan olishayotgan shoh onani avaylab-asrashlarini amr qiladi. Malika Bayda yuragini o'rtayotgan dardlarini Boburshoh yuziga sochadi:

— Agar imkon bo'lsa, inon, shu lahza, shu on,
Yana senga zahar bergan bo'lardim, Bobur!

Meni o'ldirmay

Uqubatga solganingni anglagil, Bobur!

Kecha-kunduz senga o'lim tilayman faqat!

Bobur bunday achchiq so'zlarni onadan eshitib, vijdon azobiga tushadi.

Malika Bayda roliga dramatik baquvvat ovozga ega bo'lgan yana bir talabam Dilduza Malikova tayinlandi. Bolasini yo'qotgan onaizor nolasini juda chuqur his qilmayotgan bo'lsa-da, u malikalarga xos sahnaviy xatti-harakatlarni topa olyapti. Harchand ona holatining og'irligini tushuntirmay, u o'zi yosh bo'lganligi sababli onaning iztiroblarini organikasidan o'tkazolmayapti. Lekin harakati tetik. Bobur malika Baydaga yuzlanib:

– Malika Bayda, o'sha jangda ko'p odam o'ldi,
Xavf ostida qolgan edi mening jonim ham!

Bayda shohga javob qaytaradi:

– Ammo mening o'g'lim o'ldi!... Sen emas, Bobur! Yo rad etasanmu?! Onaning ehtirosli so'zlaridan shohning g'azabi qaynaydi. Shunda unga:

Rad etmasmen! aytganlaring asl haqiqat!

Ammo mudom o'ch orzusi bilan yashamoq

Mudhish azob emasmu? Ayt, malika Bayda?!

Shunda ona deydi:

Bir she'ringni eshitib xo'p yig'lagan edim

Unda ona viloyating sog'inganini

Zo'r dard ila yozmish eding...

Yig'lab yubordim,

Bir dam senga rahmim keldi... Ha, rahmim keldi!

Ha, dahshat erur, mudom o'ch orzusi ila yashamog'im shuncha zamon! Buni bilamen!

Ammo sen ham bir savolga javob ber, Bobur

Qanday yashayapsan, ona Vatandan judo?!

Qanday chidayapsan g'amga, g'urbat g'amiga?!

Boburshoh beixtiyor kuylab javob qaytaradi:

Vatanimning muhabbati ko'ksimda omon,

Shuning uchun chidayapman...

Boshqa javob yo'q. Bu sahnani talabalar bilan ko'p va xo'p mashq qildik. Partnyorlarning bir-biriga munosabati, bir-biriga ta'siri, partnyordan kelib chiqqan holda harakat qilish yoki so'zlash kabi mahorat elementlarini talabalardan talab qildim. O'z o'runda kuylovchi talabalarim ham goh muvaffaqiyat bilan, goh tushunib-tushunmay berilgan vazifalarni ado etishdi.



24- rasm.

Ichki holat



25- rasm.

Vijdon azobida qolgan shoh Hindga yurishini «g'urbat orzusi» deb ataydi. Qilmishini qoralaydi. Qiynaladi.

– G'urbat orzusiga itoat etgan kezlarim yosh edim, navqiron edim, Hindni olaman deb, farzandimga hindol deb nom berdim. Qilichim zo'ri bilan Hindni fath etdim. Quvg'indilarga Vatan beray dedim-u, mana umrimning xazon faslida anglab turibmanki, ularga Vatan emas, boshpana bergan ekanman. Vatan o'sha yoqda qolgan ekan, mavlono, – deya Bobur ichida yig'laydi.

– Tangrining xasti shul ekan ..., Shohim.

Xondamir shoh ko'ngliga peshvoz chiqadi.

– Ayting mavlono, ayting, – deb shoh Xondamirga murojaat qiladi. Xondamir qo'shiq boshlaydi. Qo'shiq Bobur g'azallaridan.

Orkestrdan kuy jaranglaydi. Ma'mur o'z taktida ariyaning daromad pardalarini kuylay boshlaydi. Bastakor bu ariyani katta ashula shaklida notaga tushirgan. Bu kuylovchi aktyorimiz berilgan vazifani yodda tutgan holda, sahnada qo'shiq bilan harakat qiladi, partnyoridan holat oladi, ta'sirlanadi, munosabat bildiradi va ayni paytda ovoz jarangini tomoshabinlarga yo'naltirib kuylashga harakat qiladi:

Keldi ul vaqtki boshimni olib ketgaymen,
Olam ichra oyog'im yetganicha yetgaymen.

Ichki holatni qo'shiqqa solib sahnada harakat qilish, talabaga og'ir bo'lsa-da, harakati yomonmas. Lekin yetarli deb ham bo'lmaydi. Ichki holatini o'ylasa ashula, ashulaning usulini o'ylasa, ichki holat qolib ketayotganini kuyib-pishib gapiradi u. Lekin bunday holatni to'kis anglab, ijro etish uchun ko'proq mashq qilish ko'zda tutiladi. Ovozning mustahkam notada turishi, organika ishlaganda hissiyotni jilovlab, ya'ni yig'ini ushlab turish va undan ayab foydalanish uchun talabada hali tajriba yetarli emas, buning uchun vaqt kerak. Og'ir mehnat qilish va o'z ustida ko'proq va muntazam ishlash kerak, deb ularga o'git beraman. Ma'murjon har holda berilgan vazifalarni eplashga tirishyapti. B.Lutfullayevning maqom yo'lida, katta ashula yo'lida yozgan bunday nozik asarlarini talaba baholi-qudrat ayta olyapti, desam ham bo'ladi. Xondamir yozib olgan Bobur g'azallarini qiroat bilan o'qiydi:

Ko'pdan berikim, yor-u diyorim yo'qdur,
Har lahza-yu bir nafas qarorim yo'qdur,
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin bororimda ixtiyorim yo'qdur.

Xondamir, kuylovchi aktyor Ma'mur, Boburning shu g'azalini ta'sirlanib, berilib o'qiydi.

Bobur: «Ha, mavlono, bororimda ixtiyorim yo'qdur», – deya yana ona yurtini qumsaydi.

– Koshki yurtimga ketsam, qutilsam. Tushlarimda doim yo'lg'a chiqamen. Ortimga qaramay ketamen. Ammo uyg'ongach, o'sha o'sha manzilda ekanligimni ko'rib, yig'lamoq sarxatiga yetamen...

Mavlono, insonni ko'proq nimaga o'xshaturlar?

– Daraxtga, podshohim.

– Ha bale, daraxtga. Daraxt tuproq bilan tirik bo'lg'onidek, inson ham vatani birlan hayotdur. Bu ne dahshatkim, farzandlarimni, yashil navqiron nihollarni, bul tuproqqa ildiz otishlarini aslo istamasmen. Istaymankim, ular qushlar kabi Vatanga uchmoqqa shay tursunlar... ha, mavlono, biz bu yerda daraxt ermas, qushlarmiz. g'afasga tushgan, ammo qanoti singan qushlarmiz, deya nola qilganda Odil Ergashev tabiiy his-hayajonda ekanligini, sahnadagi xatti-harakati asosli bo'layotganligini ko'raman. Talaba sahnada to'g'ri yashayapti. Fikrlar shu joyda, ayni shu payt tug'ilayotgani sezilarli. Shoh holatini, og'ir dardini tushungan Xondamir, «Ha, shohim, hazrat Navoiy haq aytgan ekanlar, – deydi ehtiyotkorlik bilan. Shunda qayg'uga botgan shoh Xondamirga:

– Ayting, mavlono, yana bir ayting, bu dunyoda kuy-qo'shiqdan boshqa dardkashim, suyanchig'im qolmadi. Ayting!

– Xo'p shohim, – deya kuylovchi talaba notaga tushirilgan ariyani ijro etadi:

Holimni senga aytib hajr o'tida o'rtandim,
Ey yor, yomon qildim-ey, har neki dedim yondim.
Murod vasling erur ayla yod Boburni,
Unutmagil yana bu nomurod Boburni.

Xondamir kuylay-kuylay o'zi ham oh chekadi, yig'laydi. Vatan jamoliga oshiq qalblar tutash keladi. Sahnaning shu parchasi kuylovchi talabalar tomonidan aniq va ta'sirli ijro etildi.

Muhabbat sahnasi

Dramaning yana bir jozibali sahnasi bu – Mohimbegim bilan Boburning insoniy, er-u xotinlik sahnasi edi. Bu sahna Mohimbegimning sharqona ibo-hayolari-yu, yoriga muhabbati jo'sh urib turgan yengil, jozibali, o'ta hayotiy, yorqin sahna bo'lishi kerak, mening rejissyorlik chizgilarimda. Iqtidorli talabalardan biri Ma'rifat Ortiqovani shu rolda sinadim. Yoriga muhabbati cheksiz,



26- rasm.

farzandi kamoli yuragining tug'yonida aks etib turadigan bu obrazni Ma'rifat o'zidan o'tkazib, o'sha davrni, Mohimbegimning sarson-sargardorlik holatlarida o'zini qay darajada ushlashi, malikalarga xos xatti-harakatlar bilan boyitish lozimligi talabaga bot-bot uqtirildi. Tirishqoq talaba har darsda savollar berishdan, o'qigan kitoblaridan, Muqimiy teatrda orttirgan, orttirayotgan tajribasidan foydalanib, sahnada qo'lga kiritgan tajribalarini sinab ko'rishdan erinmadi. Kuylovchi talabaga bu obrazning asosiy xususiyatlarini, ya'ni u vafoli yor bo'lish bilan bir qatorda, qat'iyatli, viqorli, o'qimishli malika ham ekanligini uqtiraman.

M.Ortiqova tabiatan kamsuqum, og'ir, kamgap, sahnada anchagina tortinchoq. Talabaning o'zidan kelib chiqib yondashish lozimligini anglagan holda, unga kichik-kichik vazifalar yuklayman. Talabada ovoz diapazoni aniq, lekin ishlanmagan. Ovozi vokal o'qituvchilari tomonidan nafasga qo'yilmaganligi sabab ariyada harakat qilish aktrisini qiynab qo'yyapti. Bir tanalnostni ham tushurmoqchi bo'ldik. O'zgarish yo'q. Oddiy qo'shiq qilib forte-pianoda aytganda, avj pardalari ham yaxshi jaranglayapti. Ammo orkestr bilan ijro etilganda, talabaning ovozi ichiga tushib qolyapti.

– Domla, Mohimbegim bunday og‘ir ahvolda silliq ariya aytolmaydi-ku? – deb savol beradi Ma‘rifat.

– To‘g‘ri. Sen o‘ynayotgan obrazing holatidan kelib chiqib ariyani ijro etishing kerak. Sen qanday avjiga chiqishni o‘ylayapsan? Yo‘q, menga qo‘shiq emas, fikr kerak. Ariya bu monolog! – deyman qat‘iy. Talaba endi holat bo‘yicha ariyani ijro etadi. Avji kelganda ko‘zida yosh bilan o‘sha yuqori pardalarga chiqolmaydi. Yarim nota falsh qiladi.

– Stop, – deyman orkestrni to‘xtatib.

Aktyor yig‘laganda ariyaning avjiga chiqolmaydi-da, domla, – deb jarayonga aralashadi dirijyor Jo‘ra Ortiqov. – g‘o‘shiqni yig‘lab aytib bo‘lmaydi. Mana man deganiyam, ovozi metindek bo‘lgan kuylovchi aktyorlar ham, yig‘lab ariya aytolmaydi-ku?!

Men jim qolaman. Chunki musiqali aktyor sifatida bunday holatlarni ko‘p bor tajribamdan o‘tkazganman. Dirijyor haq. Yig‘lab turib aytish mumkin, lekin juda kam hollarda. Talabamga tajriba yetishmayapti.

Nozik jarayon

– Mayli, derijyorimiz aytganday, holatni yuzakiroq o‘tib, hissiyotga qattiq berilmasdan ariyangni ayt, – deyman. Musiqali dramaning murakkabligini yana bir bor his etaman. Talaba ariyani chiroyli ijro etadi. Lekin dramatik holat meni qoniqtirmaydi. Chunki talaba mahoratni hali puxta egallamagan. Niyatim – ularning yig‘lamay turib yig‘lash texnikasini egallashlariga ko‘maklashish.

Tajribamdan shunday holatlar ma‘lumki, kuylovchi aktyorlarning hammasi ham haqiqatdan ham yig‘lab turib ariyaning professional ijrosini ta‘minlab berolmaydi. Bunday holatlarda faqat aktyorning mahoratli ijrosi bilan yengib chiqib ketish mumkin. Demak, talabani shu holatga tayyorlash lozim. Ovozni mustahkam nafasga qo‘ymoq, kuchni ayab, keragida sarf qilmoq lozimligini har bir mahorat darsida uqtira boraman. Talabada o‘zgarish uzoq muddat davom etadi.

O‘qituvchilik kasbini «igna bilan quduq qazish»ga qiyos qilishlari ham bejiz emas. Sabr-toqat bilan talabani ana shu jarayonga tayyorlab boraman. Berilgan shart-sharoit, maqsad, yetakchi xatti-



27- rasm.



28- rasm.

harakat, eshitish, qabul qilish, munosabat bildirish kabi aktyorlik elementlarini erinmay talabalarga tushuntiraman va utardan savollarimga javob talab qilaman. Tahlil qilish va talabdan talab qilish, «nima uchun? nima?» savollariga birgalikda javob izlaymiz. Talabaning sahnada o‘zini erkin his etishi uchun mashqlar tavsiya qildim. Mashqlar sekinlik bilan bo‘lsa-da, samarasini bera boshladi.

Teatrda orttirgan ancha yillik sahna tajribamga suyanib, talabalarni o‘zim istagan yo‘nalishga majbur qilish, xatti-harakatlarini ko‘rsatib, o‘zim bajarganday holatni takrorlashlarini talab qilish yo‘li bilan ham yaxshigina spektakl qilishim mumkin edi. Bu oson, hatto, muvaffaqiyatli usul. Ba‘zi domlalar, rejissyorlar qo‘llaydigan bu oson usul samarali natija ham berishi mumkin. Ammo eng yomoni, u aktyorlarni «bersang yeyman, ursang o‘laman» qabilida dangasa qilib qo‘yadi. Ijodiy diapozonini toraytiradi. Gapning lo‘ndasi, bu usulga mazaxo‘rak bo‘lgan talaba kelajakda o‘zi mustaqil fikrlab, ijod qilolmaydi. Uning ijodiy parvozi cheklanadi. Faqat rejissyor yoki pedagogning ko‘rsatmalarini kutib turadigan bo‘lib

qoladi. Ongsiz aktyorga, dressirovkaga o'rgangan jonzotga aylanadi. Bu yo'nalish san'at dargohida, inchunin, san'at institutida mutlaqo man etiladi. Aktyorlik texnikalarini, uning alifbosini o'rganmasdan turib, kelajakda ulkan-ulkan san'at asarlari yaratish, ijro etish mushkul. O'ziga ato etilgan qobiliyat va qo'lga kiritilgan mahorat albatta shirin va totli meva beradi. Tarovati, ta'mi, ko'rinishi bir-birini takrorlamaydigan rang-barang haqiqiy san'at mevasini tomoshabinlarga tortiq etadi.

Avvalo, shaxs sifatida o'z ovozini, dardini, nolasini, ijod diapazonini, ertami, kechmi, albatta, oshkora qiladi.

Ma'rifat Ortiqova shiddat bilan sahnaga kirmasa-da, ongli ravishda, tushunib, nima qilayotganini, nima deyayotganini, partnyorning so'zidan xulosa yasashni, uni o'zining organik sahna harakati bilan o'zgartira olayotganini his eta boshladi. Ma'lum darajada oldinga siljish ro'y berdi.

Keyingi sahnani visol sahnasi deb nomladik... Xos xona. Bobur kirib keladi. Mohimbegim qo'shiq xirgoyi qilyapti:

Kim ko'rur Xurshidni ul Mohisiymo bo'lmasa,
Kim so'rur shakarni ul la'li shakarxo bo'lmasa,
Gul tikondur ko'zlarimga ul yuzi guldin ziyod,
Sarv o'qtur bag'rima ul sarvi balo bo'lmasa.

Bobur Mohimbegimning mahzun xirgoyisini tinglar ekan, kayfiyati chog' bo'ladi. Sevikli yoriga muhabbatini izhor qilmoqchi bo'ladi. Ruboiy o'qiydi. Odil Ergashevga berilgan vazifa obrazning ijro etayotgan sahnasi, insoniy muhabbat sahnasi. Necha oylar suhbat qurmagan ikki qalb uchrashdilar. Odil g'azal o'qiydi:

Dardimga davo so'zing erdi so'zlamading, oh...,
Ul dard ila darmon qani, ey yor, ne bo'ldi?
Mundog'mu erdi ahdk, Boburni unutdim,
Ul ahd ila paymon qani, ey yor, ne bo'ldi?

Boburning hazilomuz bu ruboiysiga Mohimbegim qo'shiq bilan javob qaytaradi. Ikkalasi yolg'iz, bir-biriga muhabbat bilan boqishadi. hazil-mutoyiba qilishadi. Bir-birini sog'inganligini izhor qilishadi. Humoyunni sog'inayotgan Mohimbegim ehtiyotkorlik bilan uning

taqdiriga Boburning qiziqishini kuchaytirishga intiladi. Ayollarning shirin tuyg'ular og'ushida ko'nglidagi gapni aytib olishini Ma'rifat ustalik bilan uddalaydi. Odil sevikli yori visoliga erishishni istaydi. Pokiza muhabbat bilan bir-biriga talpinishadi.

Talabalar, shu sahnaning yuqori pardasiga chiqqanda elchi vajohat bilan kirib keladi:

– Bir qoshiq qonimdan o'ting shohim, farzand-u arjuman-dingiz Humoyun mirzo og'ir betob emush! Bunday dahshatli xabarni eshitgan Bobur va Mohimbegim:

– Yo rabbiy! – deya bir-birlariga suyanib qolishadi. Talabalar bu sahnani tushunib yetishga va uni mukammal talqin etishga urinishdi. Partnyordan kelib chiqish, bir-birini eshitish, uni hazm qilish, partnyordan kelib chiqib javob qaytarish, uning so'zidan ta'sirlanish, fikrlar shu yerda tug'ilishini ta'minlash, partnyorning o'zidan, ko'zidan, xatti-harakatlaridan ilhom olishni, ilk sinovdan o'tkazayotganlari bois sahna hali me'yorida emas edi. Me'yoriga tushishi uchun ko'proq mashq qilish, bir-birining so'zlari mag'zini tushunib yetish kabi aktyorlik elementlarini yordamga chaqirish kerak bo'ladi. Asarning asosiy sahnalari talabalarga tushuntirib boriladi. Talabalar tezroq finalga, xulosaga shoshilishadi. Men ularni «jilovlab» turaman. Finalga sekin-astalik bilan bormoq kerakligini, ichki holat tayyor bo'lsagina yetib borishimizni uqtiraman. Yoshlik, qaynoqqonlik, shoshma-shosharlik – talabalarga xos xislat. Ammo pedagog rejissyor qayerda jilovlab, qayerda ularni erkin harakat qilishga qo'yib yuborishni yaxshi bilishi, talabalarni o'zlashtirishidan, ularning psixologik tayyorligidan, holatni organik his etishidan kelib chiqib ham, o'z tajribasini, bilimini vaqtida safarbar qilmog'i kerak bo'ladi. Menimcha, bolalar to'liq og'ir sahnaga hali tayyor emas.

Odil o'qidi, o'qiyapti, izlanyapti. Sufiylik mohiyatini yaxshi tushunadi. Xullas, Boburdagi xislatlar Odilda ham paydo bo'layotganidan, o'gitlarim besamar ketmayotganligidan shodman, Bobur haqidagi fikrlarini eshitaman. Har xil savollarga tutaman. Javoblaridan uning qat'iy fikri, dunyoqarashi borligini, Boburshohning qiyofasi ko'z oldida ekanligini va shunga erishish uchun harakat qilayotganligini anglayman.

Individual yondoshish



29- rasm.



30- rasm.

Xoja Xalifa rolini Yodgor Mirzajonovda sinab ko'rsak, degan fikr keldi menga. Tabiatan ko'ngli bo'sh, bolalarcha ishonuvchan bu talabada rolga nisbatan aniq fikr mavjuddek. Yodgor talqin qilayotgan Xoja Xalifa sahnada ayyor, saltanatni sevuvchi, hech bo'lmaganda o'zining kuyovini qo'lga olishdek maqsadni ko'ngliga tukkan shaxs sifatida gavdalanishi kerak.

Saltanatni ishonchli qo'lga, ya'ni kuyoviga tortiq qilishdek maqsadi mavjud bu shaxsni sahnada ochib berish unga qiyin kechishini aytib o'tdim. Agar ijro mahoratini egallagan tajribali aktyorlarga bunaqa xarakterli rol tushib qolsa, jon-jon deyishadi. Talabani xarakteriga butunlay qarama-qarshi bo'lgan bu obrazni yaratish Yodgor uchun go'yoki ulkan tog'ni zabt etishdek qiyin va mas'uliyatli edi. Har holda talabalar ham har xil. Bilim olishi, dunyoqarashi maqsadga intilish yo'li va shaxs sifatida voyaga yetishi turlicha kechadi. Va shunday bo'lishi ham kerak. Axir, biz o'qituvchilar inkubator shaklida, bir xil artistlar emas, har bir talabani alohida, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalab, teatr, kino, televideniye, radiolarga tortiq etishimiz lozim.

Bu obraz kim? Uni muddaosi nima? Nega Boburshohning ishongan lashkarboshilaridan hisoblanadi? Saltanatni qo'riqlash unga nima beradi?.. Shu kabi anchagina savollarga javob topish Yodgori izlashga, o'qishga, ijod qilishga undadi.

Yodgorga nutq ustida ko'p va xo'p ishlash kerakligini qayta-qayta uqtiraman. Har darsda ovozini jarangli tarzda gapirtiraman. She'r, g'azallar o'qitaman. Talaba Xoja Xalifa katta shaxs ekanligini tushunadi, lekin amalda, ya'ni sahnada buni ko'rsatib bera olmaydi. Bunday talabani ham sabr-toqat bilan shakllantirish o'qituvchining gardanida.

Bunday murakkab obrazni yaratuvchi aktyor butun diqqatini bir maqsadga yo'naltirishi, fikrlarini bir ipga terib chiqish uchun ko'p va xo'p mashq qilish lozim edi. Albatta, har bir talaba – individual shaxs. Bu talabaga ham erinmay e'tibor berib, aktyorlik mahorati elementlarini uning ongiga hijjalab singdira boshlayman.

Yodgor talqin qilayotgan obrazi bor parchadan takrorlashini so'rayman.

Xondamir: Xojam, kayfiyatingiz chog'roq ko'rinadur?

X.Xalifa: Yo'q, mavlono. Qayg'udaman. Podshohimizga juda qiyin bo'ldi... Saltanat taqdiri nima bo'ladi? Shohimiz xasta. Uning ustiga, Olurmironing o'limi? Shohimiz og'ir xastalikka uchranganlar. Saltanat kelajagi nima bo'ladi? Kimlarning qo'lida qoladi? Dildorbegimning telba bo'lib qolishi...

Bobur: Yo Rabbii! Bechora Dildorbegimga o'zing rahm qil. Qazoga chora yo'qligini anglasam-da, farzand dog'i yuragimni kuydiradi. Bag'rim kuyib ketdi, mavlono... — deya so'zdan kuylovchi aktyor, ruboiyga o'tadi:

G'urbat tug'i yopqon ruhi zardimnimu dey,
Yo hajr chiqorg'on ohi sardimnimu dey,
Holing ne durur, bilurmisen dardimni,
Holingni so'raymu, yo'qsa dardimnimu dey?

Odil Ergashev ruboiyni kuylab, ruknlarga qo'yib o'qiydi. Odilga xor qo'shiladi, ya'ni butun borliq qo'shilayotganday:

Charxning men ko'rmagan jabr-u jafosi qoldimu,
Xasta ko'nglim chekmagan dard-u balosi qoldimu?

Xoja Xalifa: Sabr, on hazrat, sabr.
Shoh bilan Xoja bir-birlariga suyanishadi...

Yodgor Xoja Xalifa obrazini yaxlit tasavvur qilolmayotgan bo'lsa-da, aytayotgan gaplarida tosh paydo bo'la boshladi. Ko'z qarashlari, ayyorona xatti-harakatlari bilan rolni boyitayotganligi quvonarli hol bo'lyapti, deyish mumkin.



31- rasm.

Iltijo

Humoyun o'lim to'shagida. Boburshoh ikki o't orasida. Humoyunni juda suyadi. Mohimbegim har dam Boburni ayblaydi. Ta'na qiladi. Turli tabiblar shifo axtaradi. Chora topilmaydi. Shu sahnada xor ohanglari orqali badiiy ifoda vositasi topilganday bo'ladi. Bastakor yigitlar, qizlar ovozida so'zsiz, mungli xorni notaga soladi. Ana shundagina og'ir sahna ko'rinishini o'zimizga tasavvur qila olamiz.

Bobur sahnada yolg'iz. Taxt orqada, o'zi esa yerda cho'kka tushgan. Musiqa jarangida Bobur Allohga iltijo qilmoqda. Odilga vazifa berildiki: Kechki payt.

Humoyun o'lim bilan olishyapti, najot faqat Allohdan. Odilga yuzlanaman.

– Yaratgandan so'ra. Sidqidildan so'ra! Yurakdan so'rasang beradi!
– Talaba bu holatni o'zicha tushundi. Berilgan shart-sharoitda talaba to'g'ri ishlayapti. Qo'shiq quyilib kela boshlaydi. Bobur yolg'iz. Tun qorong'i. Falakka boqib iltijo qiladi. Dardini Allohga aytadi. Nay navosi yangraydi. Unga g'ijjak jo'r bo'ladi. Keyin ko'p milliy sozlar qo'shilib, doira usul beradi. Odil yig'lab kuylay boshlaydi:

Qaro zulfing

(Faxriddin Sodiqov musiqasi)

Qaro zulfing furoqiyda parishon ro'zgorim bor,
Yuzingni ishtiyoqida, ne sabr-u, ne qarorim bor.

Mungli ohang, dardli qo'shiq, yakkama-yakka Allohga iltijo etish kuylovchi aktyorimiz tomonidan a'lo ijro etildi. So'ng misrali monologga o'tildi:

Nahotki yana o'lim, yana judolig',
Shunchalar qattig'mu Xudoyim qahri.
Podshomen-u qashshoq, baxtga qashshoqmen,
Humoyun farzandim, taxtim egasi.
Hayoti – mamotning oralig'ida,
Bir hayot yenggani, bir esa mamot.
Men-chi, men, tomoshabin,
Men-chi ojizmen.

Mana shu misralarda Odil organik jihatdan to'g'ri ishlayapti. g'o'shiqni avjlari bilan chiroyli aytdi. Keyingi qo'shiqqacha biroq vaqt bor. Talaba endi o'zidagi jismoniy kuchni ham ayab ishlatishning uddasidan chiqyapti. Monologni berilib, to'kilib, sel bo'lib aytyapti. Ovozini qo'rqmay qo'yib ijro etyapti:

Bolam baxti qaro qandoq yashasun?
Yo kim deb yashasun, yo nega yashasun?

Humoyun bolam, taxtimni senga beraman-u, o'zim ozod bo'laman deya o'ylab erdim.

Afsuski bu istak, kun kelib Vatanga borib o'laman, degan murodimdek bugun ishonchsiz. Ha bolam, bugun ishonchsiz...

Talabalarni sinab ko'rish hamda ularning shiddatkor holatga kirish xislatlarini o'stirish maqsadida pedagogik usul qo'llayman. Favqulodda asarning xohlagan sahnasini namoyish etishlarini talab qilaman.

Sahna ortidan Mohimbegim bir zaifroq ko'rinishda paydo bo'ladi. Ma'rifat bolasi tepasida yig'layverib, ko'z yoshlari qurib bitgan, tushkun kayfiyatda. Monoton ovozda, ya'ni bir xil so'zlaydi.

– Bolam yana hushidan ketdi. Bir kunda uchinchi marotaba. Qo'rqib ketyapman.

– Mohimbegim.

– O'zi ne ahvolda-yu, sizni so'raydur.

– Bag'rimni ezmang, Mohim.

– Bag'rimni ezma deysiz-u, o'zingiz uning oldiga kirishdan qochasiz.

– Rang-u ro'yiga qarashga toqatim qolmadi, Mohim.

– Yo'q, unday emas. Farzandimga bemehrsiz...

– Bas, Mohim, bas.

Sahnada najotsiz qolgan ikki inson Allohdan boshqa xaloskor yo'qligini angelaydilar. Bir-biriga tirgak bo'lmoqchi bo'ladilar. Dardlar tutash keladi. Fikr-u xayollari bolasining omon qolishida. Tabiblar chorasiz nigohda shoh qarshisidan chiqishadi. Tabiblarning ko'rinishi Ma'rifat bilan Odil uchun quyoshdan nur taralgandek qabul qilinishi kerak. Lekin talabalar o'zlari bilan ovora bo'lishib qolishdi. Tabiblarning chiqishlarini qabul qila olishmadi. Bu sahnadagi ijro tabiiy emasligini, najot kutayotgan odam najotkor ko'ringanda xatti-harakati o'zgarishini, shiddat bilan unga yuzlanishini talabalarga tushuntiraman. Umidli nigohlar, o'z-o'zidan najotkorlarning suxaniga, kayfiyatiga qaraladi. Ishqilib, tuzaladi deyishsin, deb mungli pichirlaydi. Allohdan shuni so'raydilar. Ularga holatni aniqroq, lo'ndaroq tushuntirdim.

– Agar eng yaqin kishinglar, onanglar, singlinglar, ukanglar o'lim to'shagida bo'lsa, sizlar vrachning xulosasini qanday kutardingiz? Vrachning ular oldidan chiqishini qay kayfiyatda qarshi olardinglar?

Savollarim o'rinli bo'ldi. Ular tasavvurlarini ishlatdilar. Shu ahvolga tushib ko'rishga o'zlarini tayyorladilar.

– Marhamat, shu sahnani takrorlaymiz! – deganim hamonoq bolalar boshqacha ehtiros bilan ijro eta boshlashdi.

– Xo'sh, so'zlangiz? O'zgarish bormi? – deydi nafasi bo'g'ziga tiqilib shoh.

– So'zlangiz, bolam shifo topadimi? – yig'lab iltijo qiladi Mohimbegim.

– So'zlang, so'zlang, jim turmang, o'zgarish bormu?

Sahnaga sukunat cho'kadi. Tabiblar ne deyishni, farzandi dardiga da'vo yo'qligini shohga qaysi til aytishni bilishmaydi. Ular ikki o't orasida. Tabiblarni Dilafro'z Nizomxo'jayeva va boshqa talabalar o'ynashyapti.

Qo'rquv, ikkilanish, hamdardlik, o'zlik kayfiyatini bera olish kerak! Tabib qo'rqa-pisa gap boshlaydi:

– Shohim... O'zgarish yo'q!...

– Yo rabbiy! Allohim! Bolam.

Sahnaga yana sukut cho'kadi. Faqat mungli yig'i ovozi eshitilib turadi.

– Sabr, on hazrat! Sabr, shohim!... – deyishadi sahnadagi turli tabiblar.

Shu payt Boburda o'zgarish bo'lishi kerak. Bobur obrazini talqin qilayotgan talabada va Mohimbegim rolidagi talabada alam, armon, dard-u fig'oni tutagan jarayon bo'lishi kerak.

– Aytingiz, nima qilay? Nima qilay? Men qilmagan chora qoldimu?

Aytdingizki, bir jonlig'ni, e bor xudoyo, shuning joni bolamning jonig'a baxsh bo'lsin, deb qiblag'a qarab turib pichoq suring.

12 yoshimdan jang-u jadalda qilich chopqon ersam-da, o'zim mol tugul, chumchuq ham so'ymog'on erdim. Shul jonivorni bolamga fido qilsam, Ismoil Alayhissalom o'limdan qutilg'onidek,

bolamning joni salomat qolg'aymi deb, bosh yalang qiblaga qarab turib ul jonivorni bo'g'izladim.

– Ayt dingizki, hazrat Mustaf o Ali mozorig'a qitq jonliq bag'ishlang.

– Bag'ishladim... Ayt ing, yana nima qilay?

– Shu – sahnaning finali. Odil, to'g'ri, bu monolog juda og'ir. Tajribali aktyorlar ham qiynalishadi. Keyingi monologda portlash kerak. Lekin sen portlama. Ichingda o'shlab tur. Chora topolmayapsan. O'zingga sig'mayapsan. Falokat ustiga falokat. Bolangning tuzalishini juda istaysan. Joningni berishgayam tayyorsan. O'zing shunday sharoitdasan. Shunday hol, shunday musibat sening boshingga tushgan. Nima qilgan bo'larding?.. Javob berishing shart emas. Monologingda aytasan. Qani, marhamat.

– Hatto, mir Abulqosimdek ulug' avliyo, Kalomulloh o'qib, dam o'rg'onig'a qanoat qilmay, bu ishga o'zim kirishdim, bir o'ltirishda to'rt-besh soat muttasil duolar o'qib, boshidin o'rgildim. Xudoyimg'a yuzim qaro bo'lsa kerakki, bulardan ham hech foyda bo'lmadi. Ayt ingiz, nima qilay? Nima qilay?

– Ayt dingizki... – deya Bobur rolidagi talaba holdan toyadi. Ovozi zo'rg'a bo'g'izidan chiqadi.

Ehtirosni jilovlash

– Kuylovchi talaba kuchini, kuchli ehtirosini me'yorida, ayab sarflashi kerak. Ayniqsa, musiqali dramada kuylovchi aktyorlar nihoyatda hushyor bo'lishlari kerak. Hali monologlar ko'p. Ularga ham jismoniy, ham ruhiy kuch yetishi kerak. Faqat dramatik spektakl bo'lsagina, aktyor ozgina o'zini qo'yib yuborishi, miriqib, shu sahnada ham ehtirosini to'laligicha to'kib ijro etishi mumkin. Sizlar kuylovchi aktyorlarsizlar. hushyor bo'linglar, – deyman talabalarga uqtira turib.

– Agar hozir o'zingga erk berib o'ynasang, keyingi sahnalar falsh bo'lishi mumkin. Jismoniy kuching ham, ruhiy hissiyoting ham, musiqiy ovozing ham toliqib, kerakli notaga chiqolmasliging mumkin.

Talabaning tajribasi yo'qligini hisobga olib, biroz unga tanaffus beraman.

– Malika Bayda sahnasini ko'raman, – deyman. Malika Baydaning xarakteri Dilfuzaga ancha tushuntirilgan. O'zi yosh bo'lsa-da, bolasidan ayrilgan malika siymosini gavdalan tirish ishtiyoqi talabada qiziqish uyg'otdi. Shohni tarbiyalagan, davlat rahbarini o'stirgan, sarkardani tug'ib, ulg'aytirib, kamolga yetkazgan malikaning dunyoqarashi, o'zini tutishi va bolasining qotili bo'lmish Bobur oldidagi o'zini tutishi qay darajada bo'lishini bot-bot Dilfuzadan so'rayman. Toki, o'zi mustaqil ona qiyofasini ko'z oldiga keltirsin. Turli savollar berib talabani sinayman.

– Sen malikaning o'rnida bo'lganingda nima qilgan bo'larding?

Talaba darhol javob qaytaradi:

– Boburni bo'g'ib o'ldirar edim, – deydi g'azabdan ko'zlari chaq nab.

– Hay-hay, shoshma. Ehtirosing to'g'ri. Lekin sen tutqundasan. Uning ustiga, ayolsan. Senga yo'l berisharmidi?

– Domla, zahar berdim-ku, ozgina bo'lsayam niyatimga yetdim, – deydi gapimni bo'lib talaba.

– Lekin sen onasan. Onalik mehri ham bor-ku bu ayolda?!

– Shuning uchun ham bolamning qotili o'limini kutaman-da, domla. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, u bolamni o'ldirgan. Mening birinchi dushmanim!



32- rasm.

Bu qat'iy so'zlarni talabaning o'zidan eshitib xursand bo'laman. Demak, talabalarda mustaqil fikr, rolga mustaqil ravishda yondashish ko'nikmasi shakllanayapti. Shu tariqa parchani sahnada ko'ra boshlaymiz. Shu sahnada ayollar xori kerakdek tuyuladi menga. Difiuzaga ham ma'qul tushadi. Xorning jo'rligida malika kirib keladi.

– Xor menga yordam beryapti, domla. Go'yo borliq menga hamdardlik qilayotganday. Kuch beryapti. Holatni anglashimga yaxshigina ta'sir qilyapti, – deydi ko'zlari yiltillab.

Ongli harakat

Dildorbegim sahnasini yana takrorlashimizni talabalarga e'lon qilaman. Asarda Dildorbegimning telba bo'lib qolganligi qisqacha berilgan. M. Ergasheva shu rolni yoqtirib qolganligini, o'zini shu obraz talqinida sinab ko'rmoqchiligini bildirdi. Mulohazakorlik Mashhuraning tabiatiga unchalik mos emas. Go'yoki yig'layapman, go'yoki jahlim chiqyapti, go'yoki xursandman qabilida ijro etish usuli mavjud. Bizning tilda buni «naigrosh» deyiladi.

– Artistlik qilma. Jigaringdan gapir. Yuragingda nima bo'lsa shuni, oddiy sodda, o'z ovozingda gapir, qizim, – deyman ehtiyotkorlik bilan. Qaltis gap talabani sahnadan cho'chitib qo'yishi mumkin. Mashhura bilan boshidan boshlab, erinmasdan ishlash lozimligini angelayman. Demak, biz o'qituvchilar tomonidan talabaning boshlang'ich kurslaridagi faoliyatiga e'tiborsizlik qilingan yoki talabaning aktyorlik mahorati darsiga qiziqishi sust bo'lgan. Talaba aktyorlik mahoratining nozik elementlari, ya'ni «agarda men?» kabi eng kerakligi jarayonlarga mas'uliyatsizroq qaragan. «Predmetsiz harakatni jonlantirish» nomli aktyorlik mahoratining alifbosidan boshlash kerak. «Agarda men shunday holatga tushib qolsam nima qilardim?» degan savolga bevosita va bilvosita talabaning o'zi javob topishga erishishi lozim. Ana shundagina u «naigrosh» qilmaydi. Organikasi to'g'ri ishlaydi. Tabiiylik vujudga keladi.

– Telba ayolni o'ynash kerak emas. Nega telba bo'lib qolganligini o'ynash kerak, – deya uning tasavvurini qo'zg'ayman. – Bu darslarda har biringiz diqqat bilan bajarayotgan amaliy ishlaringizni



33- rasm.



34- rasm.



35- rasm.

Talabaning ichki va tashqi qiyofasini u ijro etmoqchi bo'lgan obraziga tayyorlash jarayoni

kuzatib, baholab borishingiz lozim. Sahnada nima qilayotganingiz, nima deyayotganingiz, kimga va nima uchun kuylayotganingiz aniq bo'lishi kerak. Hozir asarning Dildorbegim sahnasini ko'ramiz.

Konsertmeysterimiz Nazokatxon Dildorbegim ariyasini chala boshlaydi. Kuylovchi talaba qo'shimcha olgan mahorat daralaridan xulosa chiqargan holda o'z taktida ariyani ijro etadi:

Qayga ketding, jon bolam,
Ko'zlarim bedor etib?
Qayga ketding, jon bolam,
Izlaringga zor etib?

O'tilgan qo'shimcha darslar va talabaning o'z ustida ishlayotganligi sezilarli darajada.

Munajat sahnasi

Humoyun og'ir betob. O'lim to'shagida. Najot yo'q. Boburning umidi faqat Allohdan. Odil sahnaga Humoyunni ko'tarib chiqadi. Yerga ohista qo'yadi. Allohga iltijo qiladi. Shu sahna uzoq, tinimsiz va ijodiy tortishuvlar bilan ishlandi. Nihoyat, bu ko'rinishni «Munajat» deb atadik.

Sahnada Humoyun yotibdi. Bobur qo'llari osmonga ko'tarilgan, nimalarnidir pichirlayapti. So'ng qo'llari titrab Humoyun atrofida aylanadi. Shu yerda zamin, falak, borliq musiqada ifoda qilinishi kerak. Orkestr bir tonni ushlab, pastki notada chaladi. Odil sekin munajatini boshlaydi:

Xudoyo, sadqaman dil porasig'a,
Tanim ruhi, ko'zimning qorasig'a,
Hama tuqqanlarim sarasig'a,
Yuragim qarog'in nazzorasig'a,
Xudoyo, jonim ol dard chorasig'a!

Odil Ergashev bu sahnani yuqori intellekt va professional ijro mahorati bilan kuyladi. Munajat oxirida kuylovchi talaba yuqoriga



36- rasm.



37- rasm.

38- rasm.

qo'llari ko'tarilgan holda yig'laydi. Sahna jimjit. Birozdan so'ng Humoyunning qo'llari qimirlay boshlaydi. Boshini ko'taradi. Zo'rg'a gapiradi. Humoyun xirillab:

– Otajon, – deydi.

Bobur bu so'zlarni eshitib, quloqlariga ishonmaydi. O'layotgan bolasini hayotga qaytayotganini ko'rib, hayratda qoladi. Ko'zlariga jiqqa yosh kelgan aktyor Humoyunni bag'riga bosadi.

– Allohga shukr! Beadad shukr! Behisob shukr!

Asar finalida talabalar bilan birgalikda bir xulosaga keldik. U ham bo'lsa – Bobur o'tirgan taxt qulab, katta kitobga, ya'ni «Boburnoma»ga aylanishi kerak. Bu jarayonga xor jo'r bo'ladi:

Kim ko'ribdur, ey ko'ngil, ahli jahondin yaxshiliq,
Kimki ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshiliq...

Humoyun roliga kurs talabalaridan biri Nargiza Yandashevani tanladim. Obraz – yosh shahzoda. O'spirin. Og'ir betob. O'lim to'shagida yotgan bola o'ziga kelganida otasining holsizlanib yiqilayotganini ko'radi. Bo'g'zidan «Otajon!» degan faryod otilib chiqadi...

Kichik, ammo nihoyatda hayajonli sahna. Obrazning yosh, navqironligini hisobga olib, mahorati sal ildamroq talabam N.Yandashevani tanlab, xato qilmagan ekanman. Aktyorlik mahoratini anchayin puxta egallagan bu talaba bola rolini shunday maromiga yetkazib o'ynadiki, mutaxassislar uning ijrosini yuqori baholashdi.

Kamtarin tajribamdan bilamanki, talabalarining ichki ijodiy tug'yonlari turfa xil bo'ladi. Ana shu nozik jarayonni, ya'ni o'zligini o'ziga namoyon qilish vazifasi biz o'qituvchilarning mahoratimizga bevosita va bilvosita bog'liqdir. Ana shunday o'ziga xos talabalarimdan biri Sohibjon Soliyev. Bu talaba-shogirdimga aslida alohida asar olib, ijodiy qirralarini baralla namoyon qilsam bo'lardi, ammo bo'lajak aktyorlar ba'zida spektakllarda kichik, ushoq rollar bilan ham o'zini namoyon qilmog'i kerak. Sohibga ishongan holda ikki-uchta epizodik rollarni topshirdim. Ba'zida Boburshohning xos soqchisi bo'lib namoyon bo'lsa, ba'zida tabiblar namoyondasi

ko'rinishida sahnada harakat qiladi. Sohibning qiyofasi, yuzidagi xarakterli grimlari va personajlarining tashqi tomondan bir-biriga o'xshamasligi meni hayratda qoldirdi. Grimlarni o'zi ishlagani, kiyimlarni inijlik bilan tanlagani ayni muddao bo'ldi.

Musiqali drama aktyori bo'limi 4-bosqich talabalarining ushbu «Boburshoh» musiqali dramasi jamoatchilik va professor-o'qituvchilar tomonidan yuqori baholandi. Bosh rol ijrochisi – talaba Odil Ergashev 2004-yilda bo'lib o'tgan «Nihol» teatr festivalining «Eng yaxshi erkak roli uchun» nominatsiyasi bo'yicha maxsus diplomini qo'lga kiritdi.



NOTA NAMUNALARI

QOLDIMU

Voice

Piano

Char - xi - ning
Xas - ta - ko'ng lim

men ko'r - ma - gan
chek - ma gan

jab - ru ja - fo - - si
dar - du ba - lo - - si

qol - di - mu

Me - ni xor
Dah - ri - dun

et-di-yu qil-di mud-da-o-ga
par var ni o'z-ga mud-da-o-si

par-va rish
qol-di-mu

f
Ey ko'n-gil

gar Bo-bir Ul

o-lam-ni is-tar
qil-ma ayb

Tang - ri - chun de

bu o lam - ning sa - fo - si

qol - di - mu

Char - xi - ning
Xas - ta ko'ng - lim

men chek - ko'r - ma - gan
ma - gan

jab ru ja - fo - - si
dar - du ba - lo - - si

qol - di - mu

jab - ru ja - fo - si qol - di - mu.

Qay-gaket-ding jon bo-lam Ko'z-la-rim be-dor e-tib

qay-ga ket-ding jon bo-lam iz-la-ring-ga

zor e-tib Ko'z yosh e-mas qon o-qa-di
Se-ni top may jon o-nang

Qayga ketding jon bolam!
tom-chi tom-chi jon o-qa-di
o-lam-ga hay-ron bo-qa-di

Til-ga ol-sam no-ming-ni men ta-nim-dan jo-

nim ko'ch-di-ku Birsham chi-ro-g' yoq-qan e-dim

sham-chi-ro-g'im uch-di-ku Qay-ga ket-ding

Qayga ketding jon bolam!

jon bo-lam

System 1 of the musical score for page 120. It consists of three staves: a single treble clef staff at the top and a grand staff (treble and bass clefs) below. The music is in a minor key, indicated by a flat sign on the F line. The top staff features a melodic line with eighth notes and a slur. The grand staff provides harmonic accompaniment with chords and moving lines in both hands.

System 2 of the musical score for page 120. It follows the same three-staff layout as system 1. The melodic line continues with eighth notes and slurs. The accompaniment in the grand staff maintains a consistent harmonic texture.

System 3 of the musical score for page 120. The top staff shows a melodic line with a long slur. The grand staff accompaniment concludes the system with sustained chords and moving bass lines.

System 1 of the musical score for page 121. It features a three-staff layout. The top staff has a melodic line with a slur. The grand staff accompaniment includes chords and moving lines in both hands.

System 2 of the musical score for page 121. The top staff continues the melodic line with a slur. The grand staff accompaniment features more complex chordal textures and moving lines.

System 3 of the musical score for page 121. The top staff shows a melodic line with a slur. The grand staff accompaniment includes triplets in both the treble and bass staves, indicated by the number '3' above the notes.

o,

YAXSHILIQ

Piano

Kim-ko'-rib tur ey kun-gul
Kim ki on - din yax-shi yo'q

ah - li ja - hon on - din yax shi - lik
ko'z tut-ma on - din

Bo-ri el - ga yax shi - lik
Kim de - gay - lar dahr a - ro

qil - gil - ki mo'e - din yax shi yo'q
qol - di fo - lon - din yax shi - lik

Yax - shi - lik
Kim ko' - rib

tur ah - li ja - xon - din is - ta - ma
ahli ja - xon

din Bo - bur se - ni
yax - shi - lik

Kimko' ri - tur ey ko'n - gil
Kim ki on - din yax - shi yo'q

ah - li ja - hon on - din yax shi - lik
ko'z tut - ma

System 1 of page 126. The top staff is a single treble clef line with a whole rest. The piano accompaniment consists of two staves (treble and bass clef) with a key signature of two flats and a 2/4 time signature. The right hand plays a series of chords, and the left hand plays a steady eighth-note accompaniment.

System 2 of page 126. The top staff is a single treble clef line with a whole rest. The piano accompaniment continues with the same eighth-note pattern in the left hand and chords in the right hand.

System 3 of page 126. The top staff contains a melodic line in treble clef with a key signature of one sharp and a 2/4 time signature. The piano accompaniment continues with the eighth-note pattern in the left hand and chords in the right hand.

System 1 of page 127. The top staff contains a melodic line in treble clef with a key signature of one sharp and a 2/4 time signature. The piano accompaniment consists of two staves (treble and bass clef) with a steady eighth-note accompaniment.

System 2 of page 127. The top staff contains a melodic line in treble clef with a key signature of one sharp and a 2/4 time signature. The piano accompaniment continues with the eighth-note pattern in the left hand and chords in the right hand.

System 3 of page 127. The top staff is a single treble clef line with a whole rest. The piano accompaniment continues with the eighth-note pattern in the left hand and chords in the right hand.

SARHADIGA YETAMAN

Adagio mp

The first system on page 128 consists of a vocal line and piano accompaniment. The vocal line is in treble clef with a key signature of one sharp (F#) and a 4/4 time signature. It begins with a whole rest, followed by a half note G4, and then a quarter note A4. The piano accompaniment is in bass clef, starting with a half note chord of F#4 and A4, followed by a half note chord of G4 and B4. The dynamic marking is *mp*.

lim - ni - sen - ga ay - tib

The second system on page 128 continues the vocal line and piano accompaniment. The vocal line has a half note G4, a quarter note A4, a quarter note B4, and a half note C5. The piano accompaniment continues with a half note chord of F#4 and A4, followed by a half note chord of G4 and B4. The lyrics are "lim - ni - sen - ga ay - tib".

Hajr - o' - ti - da o'r tan -

The third system on page 128 continues the vocal line and piano accompaniment. The vocal line has a half note G4, a quarter note A4, a quarter note B4, and a half note C5. The piano accompaniment continues with a half note chord of F#4 and A4, followed by a half note chord of G4 and B4. The lyrics are "Hajr - o' - ti - da o'r tan -".

dim Ey yor

The first system on page 129 continues the vocal line and piano accompaniment. The vocal line has a half note G4, a quarter note A4, a quarter note B4, and a half note C5. The piano accompaniment continues with a half note chord of F#4 and A4, followed by a half note chord of G4 and B4. The lyrics are "dim Ey yor".

yo mon qil - di-mey Har

The second system on page 129 continues the vocal line and piano accompaniment. The vocal line has a half note G4, a quarter note A4, a quarter note B4, and a half note C5. The piano accompaniment continues with a half note chord of F#4 and A4, followed by a half note chord of G4 and B4. The lyrics are "yo mon qil - di-mey Har".

ne - ki de-dim yon - dim

The third system on page 129 continues the vocal line and piano accompaniment. The vocal line has a half note G4, a quarter note A4, a quarter note B4, and a half note C5. The piano accompaniment continues with a half note chord of F#4 and A4, followed by a half note chord of G4 and B4. The lyrics are "ne - ki de-dim yon - dim".

mf
Mu-rod vas-ling e-rur

ay-la yod - Bo bur-

ni *mf* u - nut -

-ma - gil ya - na

bu no - mu-rod

attacca Adagio
Bo-bur - ni G'ur - bat - da

g'a - rib shod -

- mon bo'l-mas e- mish El

an - ga sha- fi - qu

meh- ri - bon bo'l-mas

mf
e- mish Ol - tin

qa- fas ich- ra gar

qi - zil gul bit -

sa qi - zil

qi - zil gul bit -

sa bul - bul - g'a

ti - kon dek o - shi -

yon bo'l-mas e-mish.

III BOB

NAZARIY BILIM VA AMALIY TAJRIBA UYG'UNLIGI – MUVAFFAQIYAT OMILI

Muallifdan

Aktyorlik, rejissyorlik va ayniqsa, pedagoglik kasbining nihoyatda murakkabligi barchaga ma'lum, albatta. Ammo san'at dorilfununlarida bo'lajak «San'atkor shaxs» tarbiyalovchi muallimlar faoliyati esa o'ziga xosligi bilan boshqa kasblardan ajralib turadi.

Ham amaliy, ham nazariy, kezi kelganda, ijrochi aktyor, sahna quruvchi ishchi, butafor, sahnaga bezak beruvchi rassom, xormeyster, vokal o'qituvchisi, raqs, jismoniy tarbiya, nutq muallimi hamda mehribon murabbiy, yaqin do'st, qattiqqo'l ota sifatida talabalarga sahna muqaddasligini sidqidildan ko'p ustozlar o'rgatib, ko'rsatib kelganlar.

Kamina ham ana shu xislatlarni o'zimda, qolaversa, talabalarimda kurtak otishini, gullab yashnashini istadim. Shoyad risolani o'qigan o'quvchilar ham o'zlariga kerakli xulosa chiqarsalar.

Shuni ham aytib qo'ymoqchimanki, risolani allaqanday shuhrat uchun yozmayapman, aslo. Borini yozdim. Amalda o'z boshimdan o'tganini yozdim. Yillar davomida san'at olamidan olgan bilimimni baholi qudrat ishga soldim. Ustozlarim va ilmiy rahbarim H. Ikromov ko'magida qayta-qayta tahlil qilinib, kichkinagina darslik shaklida dunyoga kelayotgan ushbu risola, sahna san'atiga mehr qo'yganlarga

oz bo'lsa-da ko'mak bersa, «murodim hosil bo'ldi», degan bo'lar edim.

Boshqa kasblar singari sanatkorlarning ham, ijod yo'li bir tekis, ravon bo'lmaydi, albatta. Inchinun, bo'lajak professional san'atkorlar tarbiyalovchi o'qituvchilariga ham, favqulodda vaziyat o'quv jarayonlari, ijodiy maydonlari ko'ndalang, yuzma-yuz keladiki, ana shunday holatdan ijobiy xulosa bilan chiqish, bu aynan o'sha muallimning intellektual bilimiga, mustahkam egallagan professional tajribasiga bevosita va bilvosita bog'liq bo'ladi.

Agarda tabiat abituriyentga ovoz, musiqiy eshitish qobiliyatini bermagan ekan, bandasi unday talabadan ming urinsa ham, san'at bog'iga musiqiy aktyor tayyorlab berolmaydi.

Talabalar uchinchi kursda ham boshqa o'qituvchida ta'lim olishadi. Yo talabalar, yoki o'qituvchilar bir-birlarini tushunmaydilar. Bunday holat «Musiqali teatr san'ati» bo'limining 4-kursida kuzatildi. Xullas, kafedra va institut rahbariyatining iltimosi bilan, shu kursning ijodiy yo'nalishi va rahbarligi menga yuklatildi. Ochig'i, uch yil davomida bir necha o'qituvchilar qo'lida tarbiyalangan ushbu kurs talabalari, taajjubki, meni iliq kutib olishdi...

Men ishni, avvalo, talabalarining individual xususiyatini o'rganishdan va ijodiy diapazonlarini bilishdan boshladim. San'at institutining, ayniqsa, aktyorlik mahorati o'qituvchisining vazifasi ham shu, talabaning o'zidan kelib chiqqan holda, undagi bor iqtidorini rivojlantirishdir. Yakka ijodkor shaxsning, o'zi va faqat o'zi mustaqil erkin ijod qilishiga erishish, biz o'qituvchilarning oliy maqsadimizdir.

Talabalarining ijodiy qobiliyatini topish uchun, ularga juda ko'p musiqiy asarlarni tavsiya qildim. Kecha-yu kunduz ular bilan birgalikda ijodiy izlanish olib bordik.

Yuzlab turfa xil asarlar kurs bilan ishlandi ham, barchasi samarasiz bo'ldi.

Chunki musiqiy jarangdor ovoz hamma talabada ham mavjud emas edi. Qaysi birining tashqi ko'rinishi qoniqarli bo'lsa, musiqiy ovozi qoniqarsiz. Kimdadir ovoz yomon emas, lekin sahna nutqi qoniqarsiz. Yana qaysi bir talabada tashqi ko'rinish yaxshi, ovozi

ham yomon emas, ammo sahnada qotib qoladi. Fikrlamay xatti-harakat qiladi. Yana biri qo'shiqni yaxshi aytadi-yu, lekin sahnada qo'lini qayerga qo'yishni bilmaydi. Ashula aytsa, sahnadagi xatti-harakat esidan chiqadi. Xatti-harakat qilsa, ashulada notadan qochadi, ya'ni musiqiy tilda «falsh» qiladi.

Kursda albatta iqtidorli talabalar ham mavjud, ammo aktyorlik mahorati va boshqa kerakli fanlardan to'liq bahra olishmaganligi tufayli, mustahkam ijodiy pozitsiyalari yo'q.

Demak, boshidan boshlashimiz kerak, deya peshonamga bitilgan sinovdan, ijobiy xulosa chiqarish uchun, Muqimiy nomidagi O'zbek Davlat musiqiy teatrida olgan 25-30 yillik tajribamni, 10-15 yillik rejissyor-pedagog sifatidagi olgan ham amaliy, ham nazariy bilimimni ishga solishim kerakligini angladim.

Ishni talabalar bilan birgalikda birinchi kursda aktyorlik mahoratidan o'tilgan darslarni eslashdan boshladim.

1-kurs

«Musiqali teatr aktyorligi mahorati» fanidan ishchi o'quv dasturi mavzulari.

Talabalar bilan tanishuv.

Mustaqillik haqida suhbat.

Musiqali teatrning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'ruza.

K.S.Stanislavskiy «Sistemasi» haqida ma'ruza.

Jahon musiqali teatrlari haqida suhbat.

Yevropa musiqali teatri haqida suhbat.

Sharq musiqali teatri haqida suhbat.

Teatr madaniyati va estetikasi.

O'zbek musiqali teatri tarixi haqida qisqacha ma'lumot.

O'zbek musiqali dramaturgiyasi haqida suhbat.

Musiqali teatr aktyorligining o'ziga xosligi.

Ariyalar haqida umumiy tushuncha.

Duetlar haqida umumiy tushuncha.

Triolar haqida umumiy tushuncha.

Kvartet haqida umumiy tushuncha.

Kvintet haqida umumiy tushuncha.

Xor haqida umumiy tushuncha.

Muqimiy teatrining ijodiy faoliyati haqida suhbat.

Musiqali teatr aktyorligi mahorati elementlari.

Musiqajo'rligida mushaklarni bo'shatish mashqlari.

Musiqajo'rligida ritmik mashqlar.

Musiqajo'rligida diqqat uchun mashqlar.

Musiqajo'rligida tasavvur uchun mashqlar.

Tasavvurdagi buyumlar bilan ishlash mashqlari.

Buyumlarni jonlantirish mashqlari.

Kuzatuv mashqlar.

Hayvonot olamini kuzatuv mashqlari.

Odamlarning fe'l-atvori va yurish turishini kuzatish uchun mashqlar.

E'tibor uchun mashqlar.

Musiqada baholash.

Musiqajo'rligida ko'rish.

Musiqajo'rligida eshitish.

Yakka musiqali etudlar.

Juftlik musiqali etudlar.

Etudlarda voqea qurilmasi.

Sahnaviy voqea haqida tushuncha.

Ruhiy va jismoniy (psixofizik) xatti-harakat.

Musiqajo'rligida munosabat va muloqot.

Kunlab, haftalab, oylab o'tilgan darslar tufayli talabalarni predmedsiz xatti-harakat qilishga, proza asarlaridan etudlar tayyorlashga, jamoa bo'lib mashqlar topib kelishga, 2-3-4 ovozli xor qo'shiqlarini kuylashga, sahnada o'ynayotgan yoki o'ynamoqchi bo'lgan rolini tahlil qilishlariga biroz erisha oldik.

Eng avvalo, sahna muqaddasligini ularga har soniya eslatdim. Sahnada o'rta aktyorlar emas, zo'rlari va faqat aktyorlik mahoratini puxta egallagan ustalari ijod qila olishligini, ong-u shuurlariga singdirdim. Natijada bolalar ijodiy uyg'ona boshlashdi. Men bilan erkin muloqot o'rnatib tinimsiz izlanayotgan, o'qib kelayotgan, aytilgan fikrlarni uqayotgan talabalar safi kengaydi. Talabalarni har birini to'liq o'rganib chiqdim. Endigi maqsad — ularning tabiatiga mos, ijodiy imkoniyatiga loyiq tushadigan pyesalar topishdir.

Qayerda o'sha rang-barang, original, milliy ruhda yozilgan pyesalar?...

Musiqali yaxshi asarlar kamyobligi barchaga ma'lum, albatta. Dramatik asarlar oz bo'lsa-da bor, ammo dramatik asarlarga musiqa qo'shsangiz, kiyimdagi yamoqday ko'zingizni chalg'itadi. Biz shunday usulni ham ishlatdik, samara bermadi. Hatto professional teatrlarda ham bunday urinishlar ko'p va xo'b bo'lgan. Lekin katta muvaffaqiyat qozona olishgan, deyoilmaymiz...

Hatto talabalar bilan birgalikda asar ham yozdik, ammo samarasiz yakunlandi. Yosh va tajribali dramaturglar bilan ijodiy ko'prik o'rnatdik — samarasiz bo'ldi.

Ochig'i, anchagina urinishlarni boshimizdan kechirdik. Bora-bora bolalarda sahna san'atiga bo'lgan ishtiyoqlari ko'zga tashlana boshladi. Bunday kayfiyatning talabalarda paydo bo'lishi menga ma'qul keldi. Ularni o'zimga ishontira oldim, chamamda...

Aytgan vazifalarimni so'zsiz bajarib kelishlarini o'zi ham, bu kurs uchun a'lo baho edi. Demak, mahoratli aktyor bo'lishga intilishlari bor. Qaysi yo'l bilan? — Faqat o'qish, uqish, mehnat bilan, deya tushuntiraman ularga.

— San'atkorda ijodiy «alam» bo'lishi kerak! — deyman menga umid ko'zlari bilan mo'ltirab qarab turgan talabalarga.

— Nega meni qo'limdan kelmaydi? Nega? — degan ichki kuch, aktyorni yanada puxtaroq rol ustida ishlashga, o'zi ustida tinimsiz mehnat qilishga, kamchiliklarini mardonavor yengib o'tishiga sabab, turtki bo'ladi. Shu yerda ikkinchi kurs aktyorlik mahoratidan o'tilgan o'quv ishchi dasturini talabalar bilan birgalikda eslab olamiz.

2-kurs

«Musiqali teatr aktyorligi mahorati» fanidan ishchi o'quv dasturi mavzulari.

Mustaqillikning mohiyati.

O'quv yili yakuni va kelgusi ijodiy ishlar bo'yicha suhbat.

«Etud» haqida tushuncha, suhbat.

Berilgan shart-sharoit haqida tushuncha.

Nasriy asarlar o'qish.

Tanlangan asarlarni tahlil qilish.

Badiiy asarlardan adabiy parchalar tanlash.

Adabiy parchalarni tahlil qilish.

Adabiy parchalarda rol taqsimoti.

Ma'ruza. Teatr, musiqiylik nima?

Parchalarda berilgan shart-sharoit ustida ishlash.

Sehri «Agarda».

Berilgan shart-sharoitda «agarda MEN».

Asardagi parchalarni etud holida ko'rish.

Parchalarning voqeasini aniqlash.

Asardan kelib chiqib etudga o'tish, voqea qurish.

Musiqa ustida ishlash.

Konsertmeyster bilan ishlash.

Xormeyster bilan ishlash.

Ma'ruza o'tish. Musiqiy aktyor va dramatik aktyor.

Xatti-harakat uyg'unligi.

Parchadagi shart-sharoit tahlili.

Nasriy asarlar asosida etud ishlash.

Parchadagi voqeaga musiqa tanlash.

Musiqa ustida ishlash. Musiqada fikr ustunligi.

Parchadagi shart-sharoit, xatti-harakat.

Shart-sharoit, xatti-harakat tahlili.

Etudlarga ariyalar tanlash.

Ariyalar ustida ishlash. Ariyada xatti-harakat.

Etudlarga musiqa tanlash.

Etudlarning musiqali yechimi.

Dirijyor bilan ishlash.

Etudlarga musiqa va ariyalarni qo'yish.

Tanlangan parchalarda rejissyorlik tahlili.

Etudlardagi xorallar ustida ishlash.

Etudlardan parchalarga o'tish.

Etudlardan pyesadagi ko'rinishlarga o'tish.

Pyesadagi shart-sharoitlar tahlili.

Asardagi ariyalar ustida ishlash. Holatni aniqlash.

Asarni stol atrofida o'qish jarayoni.

Asardagi obrazlar tahlili.

Asardagi rol taqsimoti.

Asarning musiqiy yechimi.

Asar ustida dirijyor va xormeyster bilan ishlash.

Bolalar bor vujudi bilan san'at olamiga, musiqali teatr aktyorligi kursiga mustahkam joylashishadi. Kursning 2–3 ta iqtidorli talabarlari ham, tushunib-tushunmagan tengdoshlarini saflariga tortishadi. Kursni bir jamoaga, yakdil ijodiy kuchga aylantirishga oshiqishadi. Teatr – bu jamoa bo'lib ishlaydigan maskanligini tushuna boshlaydilar.

Maqom ilmidan xiylagina xabardor bir talabamning qo'shiqlarini eshitaman. Uncha eshitarli emas. Musiqiy ilmi yana bir talabamni eshitaman. Qoniqish .ololmayman. Aktyorlik mahorati darsida ikkisini birga, jo'rovoz bo'lib xirgoyi qilishlarini talab etaman. Juda maroq bilan eshitaman. Men emas, talabalar ham, hatto o'zlari ham miriqib kuylashadi.

Yana izlanish uchun yangi maydon oldimda paydo bo'ladi...

Qizlarimizdan biri sahnada fikrga tayanib, xatti-harakat qiladi. Unga monolog, she'r o'qitib ko'raman, yomon emas. Aytish mumkinki, bu talabaning berilgan vazifani sahnada tushunib ijro etishi juda ta'sirli va quvonarli. Sahnada madaniyati ham bora-bora unda shakllanishga menda umid uyg'ondi. Boshqa talabalardan ham erinmay ichki dunyosini ochib, sahnada o'zini namoyish qilishlari uchun, ochiq ijod maydoni yaratdim va nihoyatda sekinlik bilan bo'lsa-da, turfa xil xislatli bo'lajak san'at g'unchalarini o'zim uchun kashf eta oldim.

Xullas, oxir-oqibat puxta, pishiq yozilgan sahna asarigina ro'paramdagi ko'ndalang turgan muammoni hal eta olishi mumkin ekanligiga, to'liq ishonch hosil qildim.

Iqtidorli dramaturg Nasrullo Qobul qalamiga mansub «Na malakman, na farishta» nomli (badiiy mushohada) pyesasida to'xtaldim. Milliy kuy-qo'shiqlar bilan ushbu asarni zeb-u ziynatini boyitgan bastakor, O'zbekiston san'at arbobi Farhod Olimov.

Talabalar avvaliga cho'chishdi, lekin menda tug'ilgan yangicha sahna ko'rinishlarining ham nazariy, ham amaliy isbotini bevosita o'z ko'zlari bilan ijod ustaxonasida ko'rar ekan, hayajon bilan sahnaga intilishadi. Ushbu asarni ularga o'qib bergan soniyamdan boshlab, bolalar bobomiz Mashrab to'g'risida tezroq bilgilarini,

tasavvuf ilmlarini chuqur ildizini anglamoqchi bo'lishib, kitoblardan o'qishga, Mashrabshunos olimlarimizdan eshitishga oshiqishadi. Kundan-kunga samara berayotgan «individual yondashish» metodik o'qituvchilik tajribam va aniq ilmiy asoslangan musiqiy fikrlarim, Mashrab to'g'risidagi ushbu musiqali dramani qo'lga olishga va dadil sahna variantini yaratishimizga quvvat bo'ldi. Va har bir talabadan asar haqida, obrazlar haqida, kiyim, pardoz, sahna ko'rinishi, sahnada foydalanadigan jihozlar, sahnaga beriladigan nurlar, sahna pardalarining xatti-harakati va alaxusus, bu asar bilan tomoshabinga nima demoqchimiz, qaysi personajlarni qoralaymiz-u, qaysilarini oqlaymiz, bosh g'oyamiz nima? degan savollaringa ulardan javob talab qilaman. Ulardan gohida qoniqarli, gohida qoniqarsiz fikrlarni eshitsam-da, har holda ilk qadamlar to'g'ri qo'yilayotgani men uchun quvonarli bo'ldi.



39- rasm.

PYESANING BIRINCHI KO'RINISHI

Balx shahri. Maydon o'rtasida dor tiklangan. Shogird dorning ostida qandaydir ish bilan mashg'ul. Jallod kiradi.

Jallod – Sirtmoqni chala moylabsan, ishyoqmas!
Seni tokay tergash kerak, aqli past?

Shogird – Jahlingiz chiqmasin, koyinmang, ustoz.

Jallod – Qo'l uchida ish qilsang yana bir bora,
Ishdan chetlataman yo'q boshqa chora.

Shogird – UZR, yoshlik qilib yo'l qo'ydim xatoga.

Jallod – O'gitim esingda qolsin, hoy bola.

Bir gap qolgan azaldan, piri jallod aytganmish,
Jallod uchun muhimi, dor sirtmog'ini moylash.

Moylanmagan kun arqon, dag'al bo'lar mo'rt bo'lar,
O'layotgan odamning bo'ynini yomon shilar.

Gunohkor baland dorda jon berarkan cho'zilib,
Tik qaraydi bermalol jallodga tikilib.

Jallodning hunarini bir zum sinov etarlar,
Qiynamay jonin olsang, rozi bo'lib o'tarlar.

Qiyasang qarg'ish bilan, la'nat o'qib ketarlar.

Shogird – Gunohkor qarg'ishi, hatto duosi
Inobatga o'tmaydi deb eshitgandim.

Jallod – Nodonsan. Bilmasang gapirma zinhor,
O'ylamay so'ylagan bo'lur xor-u zor.

Odamzoti duodan topmishdur kamol,
Boshqa gap-so'zlarning hammasi bekor.

Duo ulug'ligin, rosti o'zim ham,
Sochim oqarganda angladim bolam.

Juda kech angladim anchayin kechroq,
Anglasam loaqal ellik yil burun

Hayotim boshqacha bo'lardi balkim,
Gunohlarim ancha kamayarmidi?...

Yuqorida keltirilgan parchadan ma'lum bo'ladiki, «Jallod» xiyलगina murakkab obrazdir. O'z kasbini sidqidildan bajarib kelayotgan yoshi ulug' ushbu «jallod» rolini, tashqi ko'rinishini nazarda tutgan holda kurs talabasi Avaz Shomurodovga tavsiya qildim. Aslida bu obrazni anchagina tajribaga ega professional aktyorlar qoniqarli yarata olishlari mumkin. Lekin talabamning tajribasigina emas, balki bilim doirasi ham cheklangan. Demak, sahnalashtirish orqali pedagog-rejissyor tomonidan bu talabaning ayblari sahnada yopilishi kerak. Kiyim, pardo, talabaning sahnaviy qiyofasini unga

o'zim tanlayman. Sahnadagi bor xatti-harakatlarni ham unga bevosita o'zim o'rgataman. Va ana shu o'rgatganimdek qaytarib, sahnada ijro etib berishini talab qilaman, garchi bunday yondashuvni talabalarda qo'llash mumkin emasligini anglasam-da...

Sahna nurlarini bu aktyorimizga kamroq, kuchsizroq beraman (professional teatrlarda ham bunday holatlardan sahnalashtiruvchi rejissyorning mahorati, ustaligi bilan chiqiladi). Vaqt kam, spektakl sahnada namoyish qilinishi kerak. Demak, rejissyor-pedagog o'z bilimini, tajribasini ustalik bilan ishga solmog'i kerak.

Iqtidori, tabiat bergan musiqiy, dramatik qobiliyati bor talabalarim spektaklning asosiy, hal qiluvchi rollariga taqsimlandi. O'ylab-o'ylab pyesaning nomini «Devonayi shoh Mashrab» deb o'zgartirishga qaror qildik.



40- rasm.

Mashrab personajini bir emas ikkita aktyor ijro etadigan bo'ldi. hamnafas, jo'rovoz bo'lib kuylaganda ta'sirli xonish vujudga keladigan ikki talabam: Asilbek Eshonov – Shoh Mashrab, Ulug'bek haydarov – Devona Mashrab bo'lib, mening rejissyorlik sahna talqinimda rol ijro etadigan bo'lishdi. Ko'rinishi, gapirishi, xatti-harakati devonalarga xos taassurot qoldiruvchi devona Mashrabning qiyofasini ham ko'rsatishga intilamiz.

Aslida spektakl rassomi, pardozechisi va ko'plab ijodiy guruh ustalari bevosita mening atrofimda ijod qilishib, o'z vazifalarini ado etishlari lozim edi. Afsuski, har doim ham bunday ijodiy guruhga ega bo'lavermaydi. Shunday ekan, rejissyor-pedagog sifatida hamma vazifalarni o'zim ijro etishimga to'g'ri keldi. Mashrab bobomizni xalqimiz «shoh Mashrab» ham deyishadi. Shu qiyofani talabam A.Eshonovda shohlar libosi bilan ifodalamoqchi bo'ldim. Mashrabning qalbi shoh, niyati, orzusi muhabbati shoh deb bildim. Sahnada ikki qiyofa bir vaqtda xatti-harakat qiladi, lekin shoh Mashrabni sahnadagi aktyorlar go'yo ko'rishmaydi. Tomoshabingam ma'lum bo'ladiki, bu qiyofa devona Mashrabning ko'ngli, qalbi. U ham gapiradi, kuylaydi. Kezi kelganda, devona Mashrabning yuragi bo'lib faryod qiladi.

Talabalarning ko'rinishi past bo'yli bo'lganligi sabab, salla ostidagi kulohni uzun, uchliligini tanlab, ularga salla o'rayman. Oyoq kiyimlarini poshnasi balandroq xilidan kiydiraman. Ustki shohona liboslarini uzun va ixcham bo'lishini nazarda tutaman. Chunki bunday libosda talabalarning sahnaviy tashqi ko'rinishlari baland, jozibali, salobatli tus oladi. Har ikki talabaning individual qobiliyatiga tayanib, pyesadagi Mashrab so'zlarini bo'lib beraman. Qo'shiqlarda esa birga xonish qilish kerakligini uqtiraman.

Sahnada devona Mashrab – U.Haydarov va shoh Mashrab – A.Eshonov paydo bo'ladi. Orkestr jo'rligida sahnaning ikki chetidan, ya'ni tomoshabinlar orasidan chiqib kelishadi. «Xalq ichida Mashrab», «xalqning qalbida Mashrab», degan fikrning ifodasi sifatida. Ushbu qo'shiqni talabalar musiqa jo'rligisiz ijro etishadi:

Hech kima ma'lum emas hol-u parishonim mening,
Osmonni tiyra qildi oh-u afg'onim mening.

Shundan so'ng milliy sozlar talabalarga jo'r bo'ladi. Nihoyat simfonik orkestr qo'shilib, to'laqonli musiqiy monolog ijro etiladi (g'azallar bevosita Mashrab qalamiga mansub).

Mashrab ariyasi

Ko'rsat jamoling mastonalarga,
Ishqingda kuygan devonalarga.
Mendan duodir, sendan ijobat,
Jonim tasadduq jononalarga.
Ey ko'ngli qattiq, rahm aylamaysan,
Qilg'il nazzora bechoralarga,
Kuygan jigarim, shafqat qil oxir,
Ko'yingda yurgan devonalarga.
Ko'rsat jamoling mastonalarga.
Ishqingda kuygan parvonalariga.
Shoh Mashrab – Paymonasi to'lgan qaysi bandaga,
Atab yog'layapsiz sirtmoqni, taqsir?

Jalldod – Devonayi Mashrab uchun tikildi bu dor.
Devona Mashrab – Kimga?
Shogird – Shoh Mashrabga atalgan, taqsir.
Devona Mashrab – Xudo devonaga qilgan hidoyat.
Layin shum niyati bo'lib ijobat,
Qayga borsa hamroh boshida ofat.
Har qadamda to'siq fitna, qabohat.
Ayting, qay qafasdan qochgan kasofat
Mashrab ajalidan qildi bashorat?
Jalldod – Yettita qalandar bir hafta burun
Talqin aytib keldi peshinga yaqin.
Avval xalqqa ta'zim ayladi,
Keyin Mashrabning taqdirini qilishdi tayin.
Mana shu vajdan dor tiklab bunda
Sirtmog'ini yog'lab turibmiz taqsir.

Devona Mashrab – Vazifangiz og'ir, tashvishingiz mo'l,
Inson zotini osish g'oyat og'ir ish.
Tadbirli ekansiz anchayin taqsir,
Kasbingizga go'yo hurmatingiz zo'r.

Ajal arqonini yog'lab muttasil,
Gunohkor, gunohsiz, dillari basir,
Odamdan qanchasin etgansiz qatl?

Jallod – Juda ko'plarini, qo'llarimizdan,
Qancha o'g'ri kazzob, gunohkor, qatl.
Qancha beklar, amir, vazirlar o'tdi,
Biroq avliyoni osmagan edik.
Shogird – «Shoirni» deng, ustoz.
Jallod – Gap qo'shma tentak.

/Devona Mashrabga/

Xullas taqsirim bir haftadan buyon,
Shikasta ko'nglinga tushdi g'alayon.
Shubha qonim so'rar go'yoki zuluk,
Ahvolim nochor, na o'likman, na tirik.
O'ylasam shoirga sirtmoq solishni,
Nazarkarda kasni jonin olishni.
Zimiston bo'ladi bu yorug' olam,
Avliyo qarg'ishi qo'rqitar meni.
Ikkilanib qoldim, hatto o'yladim,
O'zgartirsammikan ota kasbimni...
Shogird – Kech, xo'jam, yoshingiz bir joyga bordi,
Jallod – Ovozingni o'chir, jim bo'l lan'ati.
Bemaza gaplarni javraguningcha,
Sirtmoqni yog'laganing ma'qul emasmi?

/Devona Mashrabga/

Qo'rqaman Mashrabga atalgan bu dor
O'zimning boshimga etmasmikin deb.
Mashrab – Ota kasbin tanlab umr suribsiz,
Keksayganda nechun chekasiz alam?
Gunohkor odamlar bor ekan hamon,
Sizning hunaringiz zarur begumon.
Devona qarg'ar, deb cho'chimang zinhor,
Beaybni qarg'ashga Mashrab qilar or.

Jallod – Duo qilay sizning haqqingizga to...
Ismingiz nedur taqsir ogoh etingiz.

Devona Mashrab – Mening otim, devonayi shoh Mashrab!!!
Jallod – «Lo hovla va la quvvata illo billoh»
Tavba qildim, tavba qildim.

/qochib ketadi/

Devona Mashrab – Qayerga ketmoqdasiz, hoy, to'xtang,
to'xtang.

Shoh Mashrab – Yorug' kunni zimiston deyish mumkin,
Sahroyi Kabirni bo'ston deyish mumkin.

Agar biron yurt xuvorisi bo'lmasa,
Unday elni minba'd el deyish qiyin.

Devona Mashrab – Ellik to'rt yil yolg'on dunyo bag'rida
«Ollohi akbar», deb yashadim qasddan.

Jonimga farog'at topmay yig'ladim,
Shamolda tuzg'idim bamisli barxan.

Riyozat yo'liga urdim o'zimni,
Alloh jamolini undan izladim.

Shoh Mashrab – Tangrimni qalbimga solgan so'zini,
Tilinga ko'chirdim, rostin so'zladim.

Devona Mashrab – Xonavayron bo'lgan ojiz jismimda
Yo'q edi g'iybat-u, hasad, xiyonat.

«Telba» deb, ortimdan malomat qilgan
Zohidlar zulmiga ayladim toqat.

Chidadim, chidayman toki qiyomat
Qadar chidayman-da chekib nadomat.

Zimmamga yuklangan muqaddas yumush,
Ko'ngillarda iymon chirog'in yoqish.

Bas-ki, to insonlar kamolin ko'rsam.
Menga o'zga ilinj zinhor kerakmas...

Shoh Mashrab – Nechundir vujudim titradi yomon,
Qo'rquv borlig'imga o'rmalab kirdi.
Jovdirab qibladan so'rayman hayron,
«Nahot safarimning so'ngi ko'rindi?»

Zulmkor ajalning chayir panjasi,
Bo'g'zimga chang solib jonimni olsa,
Nahotki, dunyoning jamiyki kasi
Yig'lamoq o'rniga ursa qah-qaha?!

Devona Mashrab – Demak, bu dor menga atab tikilgan.
Zamon keldi qani osilib dorga,
Devona boshimni sirtmoqqa solay.
Azaldan, toabad menga bo'ysinmay.
Malomat qildirgan telba tanamni
Dorda qiynab, xo'rlab, o'chimni olay.

Devona Mashrab dor sirtmog'ini bo'yniga soladi. Shoh Mashrab esa devona Mashrabning atrofida aylana boshlaydi.

Shoh Mashrab – Zor-zor qaqshab titrama.
Ne keladi qo'lingdan
To'lgan bo'lsa paymona,
Dadil bo'l, mard, tanti bo'l.
Ajal ro'baru kelsa,
Bo'lma yana hayrona.



41- rasm.

Pyasadagi o'ta jiddiy mas'uliyatli personajlardan biri Mahmudxon obrazidir. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, muallifning shu obrazni o'ta ziyoli, ijobiy xislatli xon tarzida ifoda qilishi, asarning yukini, salmog'ini oshiradi.

Mahmudxon tarixda «qatag'on» deya ta'rif olgan. N.Qobulning ushbu pyesida esa uning aksi, Mahmudxon mulohazakor rah-

bar, o'qi-mishli shaxs sifatida gavdalanadi. Chunki din ulamolari o'sha davrda katta kuchga ega edilar. Ulamolar bilan kelishmay, davlat ishlarini olib borish, saltanat ildiziga bolta urishdek og'ir fojea ekanligini, xon yaxshi bilardi.

Shu bois bu rolni ikkilanmay, aktyorlik mahorati o'qituvchisi, Rashid Usnatovga tavsiya qildim. Keyinchalik kurs talabasi qoraqalpoq yigiti Marhabay Usenov ham ijro etdi. R.Usnatov bir necha yillar Abror Hidoyatov nomidagi O'zbek davlat drama teatrida aktyor bo'lib ishlaganligi, «Musiqali teatr san'ati» bo'limida tahsil olganligi va men bilan ijodiy hamkorlik qilib hamfikrlikka intilib kelayotganligi tufayli ham, unga mana shunday mas'uliyatli rolni ishonib topshirdim. Illo, talabalar safida o'qituvchilarni ishtirok etib, rol o'ynashlari, ularda ijobiy kayfiyat uyg'otadi. Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali teatrida bu rolni men ijro etganman va hamon suyib ijro etib kelmoqdaman. Aktyor sifatida bu spektaklni yaxshi baholayman.

Aktyor, o'qituvchi, xonanda-baxshi va rejissyor Rashid Usnatov Mahmudxon rolini o'zining tushunchasi bilan boyitdi. U obrazning tashqi qiyofasi bilan birgalikda, ichki dunyosiga ham urg'u berdi. Ammo, u talqin qilayotgan obrazini jahldor qilib ijro etdi. Har bir aktyor bitta rolni turlicha ifoda qilishi mumkin. Men



42- rasm.

faqat yo'nalish berdim, xolos. Talabalarga qo'yilgan sodda vazifalar unga qo'yilmadi. Rashidga og'irroq, jiddiroq yuk tashlab, ijodiy yo'nalishimni olib bordim. Spektaklni sahnalashtirish jaryonida, tajribasi, aktyorlik

mahorati cheklangan talabalar, o'qituvchi atrofida asardagi voqeaga kirishsin, unga yetib ijro etishga harakat qilishsin deb, «aktyorlik mahorati» o'qituvchisini amaliy hamda nazariy vazifalarga ko'mib tashlayman. Qat'iyat bilan undan intellektual ijro talab qilaman. Tabiiyki, bu ijodiy jarayondan talabalar o'zlari uchun ko'p sahna mahoratlarini o'rganishadi, individual ijrosida sinab ko'radi. Sahna ko'rinishi nihoyasida talabalardan nima voqea bo'lyapti, qaysi ijro ularga ta'sir qilyapti-yu, qaysi bir ijrochi xalaqit beryapti? – degan savollarimga talabalardan javob talab qilaman.

Talabalar, institut o'quv teatri sahnasiga ko'ngil qo'ya boshlashdi. Har bir talaba bilan individual ishlayman. Yakshanba kunlari ham ertalabdan spektakl ustida qizg'in ish boradi. Talabalar o'zlariga beriladigan ta'tildan ham voz kechishadi. R.Usnatov bilan alohida sahna ko'rinishlarini muhokama qilar ekanmiz, musiqali spektakl sahnalashtirish nihoyatda murakkabligini, rejissyordan nafaqat nazariy bilim, balki jismoniy kuch, amaliy tajriba, xususan, musiqiy teatr tajribasi ham nihoyatda zarur ekanligini bevosita hamda bilvosita o'qituvchining o'zi ham ko'rib, tushunib, tajribasi oshadi. Quyida tavsiya qilinadigan pyesadagi parchalar fikrimizni oydinlashtiradi.

Devona Mashrab – Jallodingni chaqir, Mahmudxon!

Mahmudxon – Xush kelibsiz, yurtga, devona.

Devona Mashrab – Sen gunohga botasan, ey xon.

Mahmudxon – Mening uchun g'am chekmang taqdir,

O'zingizga qayg'uring hozir.

Joningiz qil ustida turibdi,

Hozir bo'ling, bo'lmang so'zamol.

Og'zingizdan chiqqan kufr so'z yo un,

Nochor holingiz qilgaydur zabun.

Shoh Mashrab – Jonimni qil uchiga osgan senmisan?

Shunday deb o'ylasang, xato qilasan.

Mahmudxon – Men o'sha qilni uzishim mumkin.

Devona Mashrab – Senday nodonni ko'rmagan gardun,

So'zlaring kulgili, fikrlashing jo'n.

Yana bir yanglishding, ey sho'rlik faqir.

Kim qilni ossa, o'sha uzadi axir.

Mahmudxon – Yoqamga bosh tortib g'azabim yutdim,
Bu gal mayli o'tdim gunohingizdan.

Ortiq bardoshimni sinamang hech ham,

Har holda xoqonman, «nodon» bo'lsam ham.

Devona Mashrab – Kekkayaber, keril, qilma andisha,

Maqtangil, rutbangni qilaver pesha.

Senindek sultonni ko'rmagan jahon,

Manman bo'lsang sendan qoladi nishon.

G'azabing kelsa hech chidama, gumroh,

Chidashdan qahrini sochgan yaxshiroq.

Mahmudxon – Zaharxanda so'zni bas qiling, taqdir,

Ulamolar hukmidan xabardormisiz?

Shoh Mashrab – Ayt-chi, «Meni qachon qatl qilasan?»

Mahmudxon – Osiylik-la nechun qaytdingiz dindan?

Shoh Mashrab – Mulohaza qilib so'ra o'zingdan,

Voz kechish mumkinmi quyoshdan, kundan.

Mahmudxon – Asli sizdaylarni sazoyi qilib,

Yuzingizga xazon kuyasin surtib,

Jallodning qo'liga topshirmoq darkor.

Chunki sizdaylardan na biron naf bor,

Qilmishingiz dinga keltirar zavol,

Siz pok e'tiqodni etasiz poymol...

Devona Mashrab – Bu g'alat lutfingdan qaddim bo'ldi dol.

Nimada ayblaysan meni hukmdor?

Mahmudxon – Nechun mullalarga berasiz ozor?

Devona Mashrab – Iymoni sustlarga, qilganman g'azab,

Devona gapiga quloq sol bir gal,

Savodsiz peshvoda kurk tovuq afzal.

Mahmudxon – Siz kofir bo'lgan Shayx Daroniy misol

«Farishta huzurimga keladi», debsiz?

Devona Mashrab – Farishtalar kelmay, iblis kelsinmi?

Mahmudxon – «Payg'ambar misoli merojga chiqdim»

Degan uydirmangiz shirk keltirish-ku.

Shoh Mashrab – Merojga ko'tarilish shirk keltirishmas,

Merojni bilmaslik eng buyuk shirkdir.

Mahmudxon – «Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq nimadir,

Ibrohimdan qolgan ul eski do'konni na qilay».

Sizning she'ringizmi? Bu — kufr emasmi?

Devona Mashrab — Bo'lmasa egningda shohona kiyim,
Sening kimligingni aniqlash qiyin.

Kimga sig'inasan, ey nobakor «oqil-u dono»?

Sajdagohing Allohmi yo toshdan tiklangan bino?

Mahmudxon — Nega haqiqatdan bo'lib mo suvo,
Mansurdek xudolik qilasiz davo?

Devona Mashrab — «Analhaq» ma'nosin anglashing dushvor.

Mahmudxon — Ayting men «nodondan» qilmang sira or.

Shoh Mashrab — Hamma narsa, yulduz, oy, quyosh, odam,
Olloh zuhuridan iborat olam.

Go'yo Olloh — quyosh, jamiyki jonzot,

Uning nurlarining zarrasi, hayot,

Zarraning quyoshdan uzilgan payti,

O'lim — go'yo zarra asliga qaytdi.

Xudo o'z qudratin etib namoyish,

Dunyoni mukammal qilib yaratmish.

Demak, olam Olloh jilvasi ekan,

Men ham xudoning bir zarrasidirman.

Mahmudxon — Taqsir, din ahlining qahriga qolmang,
Shakkoklik qilish siz uchun loyiqmas.

Bu ahvolda juda qattiq kuyasiz,

Kufr so'z aytishni qachon bas qilasiz!

Shoh Mashrab — Sultonlar insonni aldamagan kun,

Fohisha malakdek pok bo'lsa bir tun.

Bolalar ko'zidan oqmasa ko'z yosh,

Gadoning uyida pishsa har kun osh.

O'g'ri to'g'rilikning yo'liga kirsam,

Qotil jinoyatdan pushaymon qilsam,

Tavba deb qurboning opichlab yursam,

So'qir odam Dunyo jilvasin ko'rsam,

Kar odam eshitsa sozanda kuyin...

Mahmudxon — Bas qiling!

Devona Mashrab — Xo'p, endi jallodingni chaqir!

Mahmudxon — Taqsir, sizni etmayman qatl.



43- rasm.

Sizga ruxsat,
ketaverasiz,

Faqat sizga yolg'iz
o'tinchim,

Balxga boshqa qadam
bosmang, bas!

Shu o'rinda, shogird roliga quyma
uzukdek tushgan va
o'zining beg'uborligi
bilan, samimiyligi bilan
obrazni boyitgan kurs
talabasi Nurbek Jo'rabekov
haqida, uning san'at olamidagi
intilishi haqida gapirmoqchiman.

Jo'rabekov Nurbek — tabiatan qobiliyatli bola, ko'rinishlari
jozibali. Sahna nutqi yomon emas. Musiqiy ovozi ham
qoniqarli. Lekin talab darajasida emas. Material sifatida sahnaga
juda zarur.

Nurbekni har kuni san'atdan hafsalasi pir bo'lganday kayfiyatda
ko'raman. Bevosita muloqot, ko'nglini, dardini, orzusini bilishim
va ehtiyotkorlik bilan ijodiy jarayonga uni olib kirishim yaxshi hosil
berdi. Talaba o'ziga, iqtidoriga ishondi. Tinimsiz mehnat qildi.
Provardida shogird rolini yomon o'ynamadi. Eng quvonarli
shundaki, talaba rolni tushunib ijro etdi.

Pyesananing ikkinchi ko'rinishi. Sahna qorang'ilashib, yakka nurda
Malika Ofoqoy ko'rinadi. Orkestrda kuy yangrab, aktrisa kuylay
boshlaydi. Sahna aslida shohona ko'rinishda bo'lishi kerak. Afsuski,
har doim ham istagan sahnaviy bezaklarni yarata olmaymiz.
Shunday ekan, nurlarni rang-barang qilib yo'naltirib, sahnani
bu kamchiligidan olib qochaman. Shu bois ham spektaklda hech
qanday tasviriy ko'rinishlardan foydalanilmadi. Qop-qora pardalar
qurshovida, tepadan bitta dor sirtmog'i, kerakli sahnalarda tushib



44- rasm.

chiqishi bilan ki-foyalandi, xolos. Ofoqoy Mahmudxonning xotini bo'lsa-da, Mashrabni uda qattiq sevadi. Bu rolni kursning iqtidorli talabasi, Zebo Masparova ijro etdi. Tabiiyki, talabaning bunday rolga qo'yilishi institutning ba'zi o'qituvchilarida taajjub uyg'otdi.

— Nahotki, jikkakkina, ko'rimsizgina bu o'jar xarakterli talaba Malika obrazini yarata olsa? — deya o'ylashib, menga murojat qilishdi. Talabaning ijodiy diapazoniga nazar tashlayman. Dunyoqarashi yaxshi. Agar yo'nalishni to'g'ri bersangiz, jiddiy mulohaza qilib, jon-jahdi bilan ijod daryosiga sho'ng'iydi. Bunday qobiliyatga ega talaba (yoki aktyor) rejissyor uchun ham, pedagog uchun ham ayni muddaodir.

Malika rolini ikkimiz tahlil qilamiz. Men bilan tortishib, o'zining fikrini o'tkazmoqchi bo'lishi, aynan shu rolga kerak. Shu talabam juda tez spektakl mohiyatiga tushunib yetdi. Rolining ildizini topdi.

Qo'shiqlarini ham tushunib kuylay boshladi. Bora-bora Z.Masparova bor iqtidorini sahnaga to'kdi. Berilgan vazifalarni yaxshi uddaladi. Aytish mumkinki, ba'zi sahnalarni professional aktrisalariday mahorat bilan ijro etdi. Spektaklning so'nggi tayyorlanish jarayonlarida esa u kursning eng iqtidorli talabasiga aylandi. Rejissyor sifatida ham, o'qituvchi sifatida ham, Zebo Masparova Malika rolini maromiga yetkazib ijro eta oldi, deya olaman.

«Tushdi savdoyi muhabbat boshima» (Ofoqoy ariyasi)

Tushdi savdoyi muhabbat boshima,
Or etar mardum kelurg'a qoshima.
Vah muhabbat qo'ynida qon yig'ladim,
Yetti iqlim g'arq bo'ldi ko'z yoshima.

Kunda yuz ming jabr qilsang mayliga,
Qo'y qalab g'am toshini bardoshima.
Qil g'azab albatta jonon qahridan,
Uzr-u zorim senga, bag'ritoshima.

Muxtasib to'kturdi soqiy bodasin,
Etmadi ahli aning sirdoshima.
Tushdi savdoyi muhabbat boshima,
Or etar mardum kelurg'a qoshima.

Kanizak roliga Zilola Yarlaqabova tayinlandi. Kanizak, juda ayyor shaxs. Xonning vaziri bilan «ishrat» qiladi. Uning maqsadi malika o'rnini, hatto to'shagini egallash. Ana shu yo'lda xonning ishongan o'ng qo'l vaziri Zohid bilan reja tuzadi va uni amalga oshirish uchun hech qanday qabihlikdan ham toymaydi. Odatda millatimizning xislatida bunday hollar juda kam uchraydi, lekin bor. Ana shunday nozik rol uchun Zilolani tanlaganim bejiz emas. Bu talabam hayotda ham, oilada ham erkatoy. Ko'ngli ochiq. Juda jozibali ko'rinishga ega. Raqsni juda yaxshi ko'radi. Biroz mashg'ulotlarga qatnagan ham. Afsuski, nafaqat musiqiy ovozi, sahnaviy dramatik ovozi ham quvvatsiz. Demak uning ishtirokidagi sahnalarni, sahnaning birinchi planiga olib chiqish kerak, ya'ni tomoshabinga yaqinroq ko'rinishlariga mezansahna qo'yaman. Zilolaning sahnadagi erkinligi shu rolga ayni muddao bo'ldi. Aytish mumkinki, aktrisa sahnada kuylamasa-da, Zohid rolidagi Uyg'un Muhammadiyevning hayotda ham, sahnada ham tortinchoqligini yopib keta oldi. Lirik sahnalarni Z.Yarlaqabova zimmasiga yuklab, xato qilmabman. O'sha sahna ko'rinishlari hayotiy tus olib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.



45- rasm.

Uyg'unning tashqi ko'rinishi, ayni aktyorlarga xos, baland bo'yli, dramatik ovozi jarangdor. Lekin sahnada dovdiraydi, qotib qoladi, fikrlamaydi, tavakkaliga xatti-harakat qiladi. Rol esa o'ta mas'uliyatli.

Xonning xos vaziri. Xon uni «og'alik» deb ataydi. Uyg'un bilan ham ko'p va xo'p ijodiy hamda do'stona munosabat uyushtiraman. Uni sahnada erkin rol ijro etish mahoratiga tayyorlayman. Pyesani, o'ynayotgan rolini boz-boz tahlil qilib beraman. Sahnada fikr birinchi, xatti-harakat ikkinchi, deya aktyorlik mahorati alifbosiga kunda e'tibor berishini talab qilaman. Hatto birinchi kursda o'tilgan so'zsiz etudlar, etudda so'zning tug'ilishi kabi mashqlarni ishlab kelishini vazifa qilib tayinlayman. Garchi juda sekinlik bilan bo'lsa-da, U.Muhammadiyahning ijodiy dunyoqarashida oldinga siljish ro'y berdi. Keltiriladigan parchada, yuqorida tilga olingan talabalarimizning sahnadagi amaliy xatti-harakatlarini tasavvur qilishimiz mumkin.

PYESANING BESHINCHI KO'RINISHI

Xon saroyining yo'lagi

(Shoshilib Kanizak kiradi, uning ortidan lunjini changallab, Zohid yugurib chiqadi)

Zohid – Esingni yedingmi, ey aqli noqis?

Ne sabab yuzimga tortding shapaloq?!

Kanizak – «Qo'lingizni torting, kerakmas» dedim,

Zohid – Hammayam boshida «Kerakmas» deydi,

Kanizak – Har doim kerakmas deya biron, Siz iltijoyimga solmaysiz quloq.

Zohid – Qo'ysang-chi... Ko'p tarang qilma... Beri kel...

Kanizak – Qo'lingizni torting, suykalmang, sulloh!

Zohid – Ayuhannos solib, qilma noz firoq...

Kanizak – Shilqimning boshida sinadi tayoq!

To'g'ri so'zlarimdan bo'lmang g'azabnok, Iltimos, tinch qo'ying, yuring uzoqroq.

Zohid – Tentak, aytmaysanmi avval dardingni.

Bilganda yoningga yo'lamas edim.

Ko'ngling qolgan bo'lsa maboda mendan Shartmidi qo'lingga erk berish, nodon.

Kanizak – Bitta tarsakidan og'riyaptimi?

Zohid – Ha... Bir vaqtlar senda yo'q edi g'araz.

Quhog'imga tortsam, qilmas eding noz.

Ishqni unutdingmi o'rtamizdagi?

Yo o'zga kimsaning etagin tutding?

Kanizak – Men tutgan etak siz uchun qo'l yetmas.

Zohid – Hozir bo'l, bu yo'lda bo'lmagin halok.

Kanizak – Bu kunimdan halok bo'lsam yaqshiroq.

Zohid – Demak, ko'ngling tusab qolgan yangi yor?

Ayt, biror ishimdan chekdingmi ozor?

Yoki or-nomusing etdimmi paymol.

Nima gap? Gapirgin? Jim turma zinhor?!

Kanizak – Sizdan o'tinchim bor, malol kelmasa.

Zohid – Mug'ombir... Ayyor... Ne gap ekan?



46- rasm.



47- rasm.

Kanizak – Xonimning huzuriga kirishim zarur.
Zohid – Kimni?
Kanizak – Hukmdorda muhim gapim bor.
Zohid – Yarim kechada-ya?
Kanizak – Yordam berarsiz?
Zohid – Voy jodugar, battol, niyati buzuq.
 Xonni ko‘z ostingga oldingmi, beor?
 Unutdingmi, xonning go‘zal yori bor.
Kanizak – O‘sha Ofoqoydan nima kamim bor?
 Qad-qomatim adl emasmi yoki,
 Xunukmanmi? Zanji, qo‘pol, bedavo?
 Yo xulqumda bormi bironta qusr.
 Mayibmanmi, majruh yoki qaysar o‘r,
 Ne uchun Ofoqoyga kulib boqqan baxt
 Menga kulib boqmas? Gapiring, nahot?
 Qalmoqning cho‘lidan kelgan bir tarso
 Menday kanizakdan afzal ko‘rilsa!
Zohid – Uyat, nomusing yo‘q kanizakka xos,
 Valene‘matingga xiyonat qilma.
Kanizak – Yanglishdingiz, nomus, or, uyat, ixlos,
 Meni boshlab keldi, sizdan iltimos.
 So‘zlarimni diqqat bilan eshiting,
 Chora ko‘rilmasa bugun tong sahar
 Ofoqoy xoqonga qilib xiyonat
 Mashrab-la xilvatda qurmoqchi suhbat.
Zohid – Qo‘ysang-chi, gaplaring safsata, tuhmat!
Kanizak – Gar ishonmasangiz, ixtiyor sizda.
 Pushaymon qilmang, sodir bo‘lgach jinoyat.
 /Ketmoqchi/
Zohid – To‘xta! Gaping rostmi, haqiqatni ayt?
Kanizak – Ont ichaman, yana aytaman takror.
 Ofoqoy xoqonga yor emas, ag‘yor.
Zohid – Ammo xon gaplarga ishonmas zinhor.
Kanizak – Siz ishontirarsiz, axir hukmdor
 Sizga ko‘p ishonar. Tong otgach darhol,
 Malika yoniga xonni yetaklang.

O‘z ko‘zlari bilan ko‘rsin, ne ahvol.
 Yorin qilmishidan bo‘lsin xabardor.

Zohid – Sen shayton ekansan, baxil, zoti past.
 Ofoqoy baxtiga urmoqchisan dast.
Kanizak – Bekor g‘azablanib, bo‘lmang go‘l, basir.
 Bu ishda ham foyda bor, taqsir.
 Ofoqoy o‘rtadan ko‘tarilsa gar,
 Kulib boqar edi sizga ham iqbol.
Zohid – Aytganingday qilaman, endi bor, yo‘qol.

Talabalar ichida Dildora Aliqulova, Mashrabning singlisi Munisaga sinab ko‘rildi. Aktyorlik mahorati va boshqa darslarga hafsalasiz kelib ketayotgan bu talabamning, ovozi kichkinagina. O‘zi ham kichkina. Ko‘zi ham kichkina, dramatik ovozi ham kichkina. Demak shu talabamni Munisa roliga tayyorlayman. Baribir mehnatlarim zoye ketadi. Sahnaning birinchi planiga mezansahna qo‘yaman, ovozi eshitilmaydi. O‘ylab, sahna ko‘rinishini tomosha zaliga o‘zgartiraman. Talaba ovozining tembri pastligi, ojiza Munisa roliga tushadi.

Bevosita tomoshabinlar oldida monolog, qo‘shiq aytayotgan bu talaba oldiniga dovdaraydi, ammo berilgan vazifani bajarishga majbur bo‘ladi.

Munisa – O‘n sakkiz yildirki ko‘nglim vayrona,
 Mehribon og‘amni ko‘rmay ko‘nglim qon,
 deya Munisa bo‘zlab qo‘shiq kuylaydi.



48- rasm.



49- rasm.

(Munisa ariyasi)

Onajon, ruhi poking, bizga bo'lsin madadkor,
G'animlar jafosidan bo'ldim-ku xor-u zor.
Ko'p ekan bu dunyoning g'am-g'ussasi,
Xo'rlashga urinar ekan uchragan kasi.
Agar qo'llamasang o'zing, onajon,
Tirik yurmog'imiz gumondir-gumon.

Salohiddin Imomov – ovozi tabiatan xasta talaba. Gapirishida ham, qo'shiqda ham tabiat bu talabadan jarangdor ovozni ayagan. «Musiqali teatr san'ati» bo'limida tahsil olishga faqat qiziqishning o'zi, hatto kelajakda, katta mehnat evaziga paydo bo'ladigan ozmoz sahnaviy joziba ham kor qilmaydi.

Shu talabam sidqidildan mehnat qilsa, usta rejissyorning doimo yo'nalishida bo'lsa, kino va dramatik teatr aktyori bo'lishi mumkin, ammo «Musiqali teatr san'ati» bo'limida ijod qilolmaydi.

Shu o'rinda keyingi yillarda san'at institutida paydo bo'layotgan muammoli mulohazalarimni ham aytib o'tmoqchiman. San'at institutida tahsil olishni xohlagan iqtidorli bolalar bilan birgalikda, ba'zi bir qobiliyatsiz, ammo gumanitar fanlardan bilimlari kuchli bo'lgan bolalar test sinovlaridan yuqori ballarga ega bo'lib, talabalikka qabul qilinyapti. Bunday talabalardan birini yuqorida eslab o'tdik. Albatta aktyorlar bilimli bo'lishlari kerak, ammo tabiat



50- rasm.

bergan qobiliyat talabada birinchi va aytish kerakki, asosiy, hal qiluvchi rolni o'ynamog'i kerak.

Men bu talabamni pyesadagi qul rolga qo'ydim. Tomoshabin har holda undagi ojizlikni, qul obrazi orqali omuxta ko'radi va ishonadi.

Xudo, qudratingdan o'zim o'rgilay,
Tasodif bo'lmaydi deyishar yana,
Hazrat, izn bering, murid bo'layin.

Asarda ushoq obrazlardan biri Mirrajab personajidir. Bu rolni kursning yoshi ancha ulug'roq talabasi Husnida Aliyevaga topshirdim.

Kursda o'g'il bolalar kamligi va H.Aliyevaning o'g'il bolalarga xos chapaniligini hisobga olib, erkakcha pardozi qilib, shu talabamni sahnada sinab ko'rdim. Ko'proq xonandalik kasbini suvadigan bu talaba taklifimni ijobiy qabul qildi. Gapirganda, yurganda yigitlarning xislatlari namoyon bo'lish kerakligini har soniya undan talab qilaman, oqibatta katta mehnat evaziga qoniqarli ijodiy jarayonga erishamiz. Har bir talabaning ko'ngliga qarab munosabat qilaman. Bunday sharoitda ko'p usta pedagog-rejissyorlar ham, o'zi boshqarayotgan ijodiy jamoani, avvalo, o'ziga nisbatan ularda iliqlik uyg'otganlar. O'zining bilimi, tajribasi, insoniyligi, do'stligi, ustozligi, eng yaqin jigarligi va hatto, otaligi, talab qilinadigan bu nozik «pedagog-rejissyorlik» kasbi, doimo ijobiy hosil bergan. Shunday ekan, qisqa vaqt mobaynida men ham talabalarning eng yaqin murabbiysi sifatida shakllana oldim, deb o'ylayman. Kurs bir jamoaga aylanib, mening atrofimga yig'ildi.

3-kurs

«Musiqali teatr aktyorlik mahorati» fanidan ishchi o'quv dasturi mavzulari

Asar tanlash.

Tanlangan asarning tahlili.

Stol atrofida o'qish.

Rollarni taqsimlash.

Asar haqida, obraz haqida «tarjimayi hol» yozdirish.

Asarga yozilgan she'rlarning tahlili.

Asardagi parchalarni etud holida ko'rish.

Asardagi parchalarni etuddan chiqib, so'zlarga o'tish jarayoni.

Parchaning voqeasini aniqlash.

Parchadagi voqega musiqa qo'shish.

Asardan kelib chiqib, etudga o'tish, voqea qurish.
 Ma'ruza. Asarga aktyorning shaxsiy munosabati.
 Asardagi ikkinchi parchani etud qilib ko'rish.
 Musiqa ustida ishlash.
 Ikkinchi parchani etuddan chiqib, so'zga o'tish holati.
 Ariya va duetlar ustida ishlash.
 Konsertmeyster bilan ishlash.
 Ma'ruza. Musiqali asarda she'rning o'rni.
 Uchinchi parchani etud qilib ko'rish.
 Konsertmeyster bilan ariya va duetlar ustida ishlash.
 Malakaviy amaliyotda bo'lish.
 Ma'ruza. Tahlil.
 Bitiruv oldi amaliyoti.
 Parchalar ustida ishlash.
 N.Qobilov, F.Olimovning «Na malakman, na farishta» asari tahlili.
 Stol atrofida o'qish.
 Rollarni taqsimlash.
 Asar haqida, obraz haqida «tarjimayi hol» yozdirish.
 Asarning voqealar tizimini aniqlash.
 Asarning maqsadi, oliy maqsadini aniqlash.
 Asarni parchalarga bo'lish, har bir parcha maqsadini aniqlash.
 Asar qahramonlarining oliy maqsadini aniqlash.
 Parchalarni etud holida ko'rish.
 Parchalardan so'zlarga o'tish.
 Ma'ruza.
 Parchalarni bir-biriga bog'lash.
 Asar ustida rassom bilan sahna bezagi ustida ishlash.
 Asarning musiqaviy tomonlarini ko'rib chiqish.
 Orkestr chaqirish va spektaklni to'liq progon qilish.
 Rassom, Orkestr bilan maslahatlashish va qoniqarsiz joylarni ko'rib, kafedraga ko'rsatish.
 Fikr va mulohazalar asosida qayta ishlash.
 Asarda bosh qahramonlar bilan alohida ishlab, spektaklning to'liq namoyishi.

«Mashrab» musiqali dramasi institut jamoasiga ko'rsatish va muhokama.

Talabalarga tarjimayi hol yozdirish va tavsiiyanoma yozib berish.

N.Qobilov, F.Olimovlarning «Devonayi shoh Mashrab» musiqali dramasi Davlat attestatsiya komissiyasiga tayyorlash.

Aktyorlik mahorati, musiqiy bilimi deyarli shakllanmagan kurs talabasi Dildora Yunusovaga ham spektaklda ishtirok etishi uchun sharoit yaratdik. Sahnada so'zsiz xatti-harakat bilan Mashrabning onasi obrazida namoyon bo'ladi.

Mashrabning xayolida paydo bo'ladigan bu personajni hijjalab ishlaymiz. 1-2-kurslarda talab qilinadigan aktyorlik elementlaridan boshlab, ona obrazining mukammalligigacha uzoq davom etgan metodik-pedagoglik urinishlarim, qisman bo'lsa-da, sahna qonun-qoidasiga to'g'ri keladi. Kezi kelganda aytish lozimki, institutda ijodiy qirralari ochilmagan ba'zi bir talabalar, keyinchalik teatrlarda, san'atning boshqa



51- rasm.



52- rasm.



53- rasm.

bir maydonlarida iqtidorlarini namoyon qilishlari ham mumkin. Bunday holatlar ham tajribada kuzatilgan.

Endi kursning yana bir talabasi Oydin Ismoilova haqida. Ovozi talabalikka qabul qilinganda yaxshi bo'lganligini, keyin-



54- rasm.

chalik qo'shiq ayt-ganda nafasda emas, tomog'da kuylayotganini kuyinib menga so'zlab bergan bu talabamga Ofoqoyning xos kanizagi obrazini tayinladim. Asarda bu obraz kuzatilmaydi. Milliy sozandalar jo'rligida u, Ofoqoy uchun Mashrab g'azalidan qo'shiq kuylaydi. Kunda, kunora qilingan musiqiy mashqlar, talabaning biroz bo'lsa-da, ovoz yo'nalishining ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'ldi.

Xonning enagasi obrazi, kursning chiroyli, jozibali talabasi Dilorom Nosirovaga nasib qildi. Diloromni tabiat go'zallikdan qismagan. Raqsni sevishi va mashg'ulotlarga muntazam qatnashishi, D.Nosirovani sahnaviy qaddi-qomatini yanada go'zallashtirgan. Faqat sahna nutqi talab darajasida emas. Jag'lari siqiq. Bir so'zda shoshilib talaffuz qilsa, ba'zi jumalarda cho'zib talaffuz qiladi. So'zlarda urg'uni noto'g'ri qo'yadi. Fikr birinchi planda emas, ifoda chiqadi. Bu esa to'g'ri emas.

San'at institutida kurs rahbarim professor Abdurahim Sayfuddinov «Sahna nutqi» kafedrasida jonkuyari bo'lganligi va o'ta talabchan Muhammadjon Usmonov «Sahna nutqi» fanidan o'qituvchimi bo'lganligi uchun ham, maqtanish emas-u, nutqim deyarli ravon. Bu talabam bilan nutq o'qituvchisi mashg'ulotidan so'ng bevosita o'zim shug'ullandim. Har soniya unga, hayotda ham badiiy tilda gapirishga harakat qilishini eslatib turaman.

Ofoqoy rolini ijro etishni juda istagan bu talabam, enaga obrazini istar-istamas boshlagan bo'lsa-da, keyinchalik qizg'in ijodiy jarayonlar davomida, anchayin muvaffa-qiyatlarga erisha oldi. Oldinlari tirishqoq bo'lgan talabam, birdaniga raqsni tashlab, semirib qoldi. Shu bois ham Ofoqoy roliga uni band qilmadim.

Qoraqalpoq yigiti Marxabay Usenov xon rolini ijro etishga jon-jahdi bilan kirishdi. Lekin obrazning ildizini chuqur his qilmayotganligi uchun bu talabamga sabr qilishini tushuntiraman. Musiqiy ovoz diapazoni nihoyatda yaxshi. Yevropa yo'nalishidagi musiqiy ovozi a'lo, lekin bu spektaklda bunday ovoz o'rni topa olmaydi. Marxabayning bo'y-basti, aktyorlik qobiliyati ham yomon emas. Shu bois keyinchalik bo'lsa-da, Mahmudxon rolini ijro etdi. O'quv teatriga loyiq ijro bo'lsa-da, bu aktyordan, kelajakda yirik musiqiy san'atkor chiqishga umidim bor, ishonaman ham.

Mana endi asosiy rol ijrochilari Devonayi shoh Mashrablar — Ulug'bek Haydarov, Aslbek Eshonov va Ofoqoy — Zebo Masparovalar to'g'risida ham fikr yuritsak. Demak, sahnalash-tirayotgan musiqali spektaklimizda ikki jo'rovoz talabalarning qo'shiqli sahnalariga urg'u beraman. Ofoqoy sahnalarini esa dramatik holatlarga boyitaman. Kelgusida keltiriladigan ariyada Devona Mashrab (U.Haydarov) singlisi Munisa (D.Aliqulova) oldiga uni sog'inib kelayotganday fig'on qiladi. So'ng Oллоhga iltijo qilayotganda shoh Mashrab (A.Eshonov) singlisini avaylab quchog'iga oladi. Singil akasini go'yo qalbida his qiladi, lekin jismonan bu xatti-harakatni baholamaydi. Singil faqat devona Mashrab tomon talpinadi. Bu holatlar qo'shiq jo'rnovozligida bo'ladi.



55- rasm. Muallifning ustози, professor

Mashrab ariyasi
«Afgor kelibman»

Dargohingga bir ojiza afgor kelibman,
Arzi dilimi aytgali chun zor kelibman.
Rad qilma qabul aylaki sharmandaligimni,
Rasvoyi jahon ko'cha-yu bozor kelibman.
Lutf ila karam ayla-yu dardimga davo qil,
Darmon tilabon men senga bemor kelibman.
Zori-yu tavallo qiladur Mashrabi miskin,
Och pardani, kim tolibi diydor kelibman.
Arzi dilimni aytgali chun zor kelibman.
Devona Mashrab – Singlimni ozod qil mahkumalikdan.
Ofoqoy – Armon vujudimni qamrab olgandi,
Tomirda qon emas, qasos oqardi.
Siz-la ko'rishmoqni qilgandim niyat,
Shukr, iltijoyim bo'ldi ijobat.
Aslida shodlikdan terimga sig'may,
Etagingiz gardin yerga tushirmay,
Ko'zimga surtmog'im shart edi faqat,
Dilimda yo'q sizga zarracha shavqat.
Bu kun boshingizda ajal sharpasi
Aylanib qo'nmoqqa izlarkan chora,
Kuyinmoq o'rniga toshday diydamdan
Otilib chiqmoqda quvonch, qah-qaha.
Munisa – Tanishmisiz aka, malika bilan?
Ofoqoy – Qani u dabdaba, shavkat-u shonlar,
Qani janda to'nga osilgan sharaf?
Qani u ulug'vor husn, fazilat?
Olamni titratgan cheksiz kuch-qudrat?
Bir zumda to'zg'idi go'yoki taqdir,
Shum qismatingizdan miriqib kuldi.
Meni xor-zor qilgan buyuk Mashrabni
Qarshimda tiz cho'ktirib, masxara qildi.
Shoh Mashrab – Singlimni qo'yvor, unda hech ayb yo'q.
Ofoqoy – Qo'yib yuboraman, ko'ngil bo'lsin to'q.

Maslakdan kechingiz, qiling tazarru!
Munisa – Malika shartiga ko'nmang hech, og'a.
Shoh Mashrab – Sendan voz kechaymi, yo'q, singlim, aslo.
Zamon zo'rlaridan ko'rmay deb jafu,
Yolg'iz jigarimdan bo'laymi judo?!

Munisa – Aka, yo'lingizdan voz kechsangiz gar,
Umringiz mazmunin mutloq yo'qotar.
Shoh Mashrab – Gohida qalbimni qamraydi gumon,
Umrimda hech mazmun bormi? Yolg'on,
Xayoliy maslak-la, bo'ldim andarmon.
To'g'ri yashadimmi? Jonim chiqar on,
Afsus qilmaymanmi, bo'lib pushaymon?
Bu dunyoga kelib nima ham qildim,
Kimga nafim tegdi, kimga tuz berdim?
Ota duosini olmadim, singlim,
Onamning kuniga yaramadim men.
Biron yerga hatto ekmadim daraxt,
Imorat qurmadim, chekmadim zaxmat.
Menda na oila, na yor, na farzand,
Taqdirimdan lolman, zabunman, karaxt.
Ollohdan o'zgani sevmadim, singlim,
Bugun haqiqatni sezganday bo'ldim.
Yaratgan deb, Oloh o'zi yaratgan,
Insonni sevmasang, nurni sevmasang,
Toat-ibodatlar qilganing bekor.
Ofoqoy – Aybingiz anglabsiz, mana nihoyat,
/Munisaga/
Ketabering, endi sizga ijozat.
Munisa – Sizni yolg'iz tashlab ketmayman, aka.
Devona Mashrab – Borgil, ko'rishamiz albatta singlim,
/Munisa chiqib ketadi/
Ofoqoy, mendan nima istaysan?
Ofoqoy – Ko'zingizga bir bor qaramoqchiman.
Devona Mashrab – Qarayqol...
Quyida havola etiladigan duetda Devona Mashrab Ofoqoy ishqi
bilan mast holatda ko'rinsa, kuylayotgan shoh Mashrab sahna

o'rtasida yuqoriga qo'llarini ko'targancha Oллоh ishqi bilan mast holda tomoshabin ko'z oldida namoyon bo'ladi.

Duet
Mashrab va Ofoqoy
Yaratibdur

Mashrab – Ishqingda meni vola-yu hayron yaratibdur,
Tarso bachani g'orati imon yaratibdur.

Ofoqoy – Bu dasht-u biyobonda o'larman, netay oxir,
Xoliq meni tashna, seni ummon yaratibdur.

Mashrab – Jonimni olur bo'lsang, ol, ey dilbari ra'no,
Biz g'amza dalini senga ummon yaratibdur.

Ofoqoy – Arzimni senga aytayin ey shohi jahonim,
Bizlarni gado, kim seni sulton yaratibdur,

Ikkisi – Ayb aylamangizlar meni nodon yaratibdur.

Ofoqoy – Nega meni tashlab ketgan edingiz?

Devona Mashrab – Sababin bilasan...

Ofoqoy – Bilmayman!

Devona Mashrab – O'z holimga qo'ygil, sendan iltimos.

Ofoqoy – /*Devona Mashrabning ko'zlariga tikiladi.*

Shoh Mashrab sahnadan chiqib ketadi/

Ey xudo! Siz meni hamon sevasiz!

Devona Mashrab – Yolg'on!

Ofoqoy – Yo'q... Siz meni sevar ekansiz.

Devona Mashrab – Sevar edim... O'sha zamonlar o'tdi.

Ofoqoy – Ko'ksherda ikkovlon. Esingizdami?

Devona Mashrab – Ijizat ber, endi men ketay bundan?

Ofoqoy – O'tovda, el-yurtdan pinhon...

Devona Mashrab – Eslatma...

Ofoqoy – Nega?

Devona Mashrab – Endi kech... Kech...

Ofoqoy – Kech emas! O'shanda kanizaklar-la

Sahroga chiquvdik sayr qilmoq uchun.

Shunda ona shahrim Eyladan ktdik,

Choshgoh. Ko'ksher degan yaylovga yetdik.

Ohista esardi sahroyi sabo –

Tanni yayratardi musaffo havo.

Xo'p o'yin-kulguga berildik chunon,

Hushyorlik esimdan chiqdi nogohon,

Qarshimda turardi bizlarga qarab,

Savlat to'kkanicha devona Mashrab.

Nigohingizda bor edi go'yo sir

Pokiza tuyg'ular sizga edi yor.

Go'yoki valeylik muqaddas nuri,

Vihorli yuzingizda porlar shiddatkor.

Qudratli edingiz, iymonga posbon,

Ki e'tiqodingiz olam iqboli.

Ezgu xayolingiz edi bir jahon,

Asli musulmlikning tirik timsoli.

Ko'zimni uzolmay qolgandim nochor.

Na qo'l, na oyoq, na tanda jon bor.

Devqarashingizga berolmasdan tob,

Bor-yo'g'im bo'lgandi, zabunu-xarob.

/Asta-sekin devona Mashrab Ofoqoyning

«o'yiniga» qo'shila boshlaydi./

Sharmanda holimdan qilib nomus-or,

Tezroq ketmoqlikni qildim ixtiyor...

Devona Mashrab – Na'ra tortdim «To'xta ey qomati adl!»

Ofoqoy – To'xtab ko'zingizga tikildim dadil.

Devona Mashrab – «Kel, menga yor bo'l» degan sasimga,

Ofoqoy – Darhol javob berdim «Roziman, taqsir.»

Devona Mashrab – dedim: «Sevsang meni, qilgin taxammul»,

Diningdan voz kechgin, musulmon bo'lgil,

O'rgatayin, keltir arzu kalima,

Oxirating tarso qolib kuydirma.

Ofoqoy – dedim-ki: «Sizni men ko'rganim zamon,

Iymon keltirib men bo'ldim musulmon.

Mayli kalimani o'rgating», – dedim,

«La illoha illolloh», deb iymon keltirdim.

Devona Mashrab – Ko'ksherda bir o'tov tiklab ikkovlon,

Nikoh ham o'qitdik, el-yurtdan pinhon.

Ofoqoy – Biroq, uch kun o'tsa hamki siz johil...
 Bir to'shakda yotib qilmadim dahil.
Devona Mashrab – Sababin so'rasang, gadoman, dedim,
 Farzand ko'rsak qanday boqaman, dedim.
Ofoqoy – Ming bitta sababni bahona qilib,
 Yolg'on gap-so'zlarni dur kabi terib,
 Jonimdan o'tkazib jabru-jafolar,
 Bergan va'dangizga qilmasdan vafo,
 «Yaxshi qolgin, meni eslab tur» deya,
 Ko'ksherdan ketdingiz bosh oqqan tomon.
 Keng Dunyo ko'zimga ko'rinib ro'yo,
 Zor yig'lab chodirda qolaverdim men.
 Arosatda qolgan edim men axir,
 Na nigohda edim, na tul, na esir.
 Qaytay desam ona shahrim Eylaga
 Otam g'azabidan, qahridan qo'rqsam.
 Sizning ortingizdan borayin desam,
 Yo'l qo'ymas toptalgan g'ururim, alam.
 Nochor ahvolimdan chekar edim oh,
 Yuzi qarolikka bo'lgandim hamroh.
 Ko'ksher sahosida bo'lsaydi zabon.
 Ul holimdan bo'zlab chekardi fig'on.
 Oradan o'tibda anchayin zamon,
 Ko'ksherga jang qilib keldi Mahmudxon.
 Otamni lashkarin toru-mor etdi,
 Meni asr olib Balxga ketdi.
 Xonimiz nomusim urmadi erga,
 Nikoshch o'qitib u, oldi xasmiga...
 Taqdir ekan, Balxga malikaman, lek,
 Hayotim saodat quvonchdan yiroq.
 Jabr-sitam qiynar jonim qasdida,
 Yashayman tegirmon toshi ostida.
 Sizni ko'rdim bo'ling dardimga malham,
 Madad bering, ortiq chekmasdan alam.
 Poyingizga cho'kib sizdan so'rayman,
 Qayga bo'lsa mayli birga jo'nayman.

Mashrab, faqat siz-la birga bo'lsam bas,
 Sizdan o'zga hech kim menga kerakmas.
Devona Mashrab – Malikalarga xos ish tut, Ofoqoy.
 Niyatingdan qaytgil, meni unutgil.
Ofoqoy – Nega???
Devona Mashrab – Men gadoman, daydi, qalandar.
Ofoqoy – Farqi yo'q! Men sizni sevaman, Mashrab.
 Yoki ont ichaymi qiblaga qarab?
 (Sahnada shoh Mashrab namoyon bo'ladi)
Devona Mashrab – Kerakmas! Ofoqoy, sengamas aslo,
 Olamdagi eng go'zal, eng buyuk, dono.
 Quadratda, karamda barchadan a'lo,
 Tengisiz buyuk yorga bo'lganman shaydo.
Ofoqoy – Kim u?
Devona Mashrab – Oллоh! Ortiq savollar berma!
 Seni deb Oллоhdan voz kecholmayman.
 Xudovandi karim qilib inoyat,
 Madad bergil, o'zing qo'lla, yo'l ko'rsat.
/Keta boshlaydi/
Ofoqoy – Qayoqqa ketasiz?... Qayting!... Hoy, to'xtang!...
/Yugurib borib, devona Mashrabga pichoq sanchadi/
 Mana sizga Oллоh!... Mana sizga ko'k!...
 Mana sizga Buyuk!... Mana sizga Yor!...
Devona Mashrab – Ko'nglim sezgan ekan, vahimali tun,
 Bekor halovatdan qilmabdi mahrum.
 Ofoqoy, so'zimga quloq sol bir oz...
Ofoqoy – Nima qilib qo'ydim... Kechiring meni...
Devona Mashrab – Senda gunoh yo'qdir. Bu taqdir hukmi.
/Qadam tovushlari eshitiiladi/
 Kimdir kelyapti... Tig'ni erdan ol.
 Menga Ber!... Endi ket. Xayr bora qol...
Ofoqoy – Ket-may-man!
Devona Mashrab – Ketasan! Bu yerda turish bema'no,

Behuda joningga qilmagin jafu.
Pichoq sanchganingni bilmasin hech kim,
Bu sirni yashirsang seni avf etgum.

Devona Mashrab Ofoqoy quchog'ida jon talvasasida. Sahna ortidan esa shoh Mashrab yuqoriga ko'tarila boshlaydi. Go'yo Mashrabning ruhi tirik degandek. Shoh Mashrab xirgoyi qiladi:

Ona ariyasi
(*Ahmadjon Dadayev musiqasi*)

Jamoling ko'rgali keldim, ey mehribon onam,
Mening uchun ado bo'lgan, yuragi, bag'ri qon onam.

Xo'tan dashtiga tushdim, bul falakning gardishi birlan,
Eshitgil arz-u holimni, men aytay senga jon onam.

Ajoyib mehribonimsan, meni oromi jonimsan.
Murodim-u jahonimsan, behishti jovidon onam.

Boshimga tushdi, bul savdo bo'libman bulbuli shaydo.
Shabistoni jahonda qumridek shakkarfishon ona.

Iloho avf qilg'aysan, bu Mashrabning gunohini,
Tufayli onayi zorim g'arib-u notavon onam.

Sahna yuqorisidan sirtmoq tushib, devona Mashrabning choponini yuqoriga olib chiqib ketadi. Kurs talabarlari ijrosida xaral kuylanadi. Qo'shiq-kuy jo'rligida sahna pardasi yopila boshlaydi.

Spektaklning final sahnasida uchta asosiy rol ijrochilari berilib, yuraklarini qo'yib, rejissyor, muallif, bastakor tomonidan berilgan vazifalarni juda a'lo ado etishadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bu sinovdan, avvalo, talabalar, qolaversa, pedagog-rejissyor sifatida kamina ham, qoniqarli hamda ijobiy hosil bilan, ya'ni yirik musiqali spektaklning muvaffaqiyatli

ijrosi bilan chiqdik. Tinimsiz qilingan mehnat samarasiz bo'lmadi. Institutda ijobiy shov-shuvga sabab bo'ldi. Talabalarining qaddi ko'tarildi, kelajakka umidlari oshdi. Mehnat qilishni, bilimni vaqtida olishni, «musiqali teatr aktyorligi» kursining nihoyatda mashaqqatli ijodiy yo'nalishlarini va shu bilan birgalikda, bu bo'limda o'qigan talaba, barcha san'at dargohlarida samarali ijod qila olishi mumkinligini tushinishdi. Bevosita o'zlarining nazariy hamda amaliy ijod yo'llarini boshlaridan kechirishdi. Otashin shoir Mashrab g'azallarini yod olishib, qo'shiqlarini ko'ngil ohanglariga muhrlab qo'yishdi, desak aslo xato bo'lmaydi.

N.Qobul asari, F.Olimov musiqasi «Devonayi shoh Mashrab» musiqali dramasi 2006-yil 4-kurs «Musiqali teatr aktyorligi» talabarlari ijrosida o'z jarangini topdi. Institut professor-o'qituvchilari tomonidan spektakl yuqori baholandi. Iliq fikrlar bilan e'tirof etildi.

Ushbu diplom spektakli davlat attestatsiyasi komissiyasiga namoyish qilindi. Komissiya raisi O'zbekiston xalq artisti Rixsi Ibrohimova spektaklga yuksak baho berdi. Spektaklning ba'zi bir juz'iy kamchiliklari bilan birgalikda, o'ta milliyligi, originalligi, talabalar o'z vazifalarini sidqidildan bajarayotganligini e'tirof etishdi. Yangicha, o'ziga xos musiqali drama paydo bo'lganligi davlat attestatsiya komissiyasi a'zolari tomonidan alohida qayd etildi va «Nihol» talaba yoshlar ijodiyoti ko'rik tanlovida qatnashishiga yo'llanma berildi.

*Kursning
muvaffaqiyatli
premyeradan
keyingi tushgan
surati*

56- rasm.



Spektakl bu ko'rik tanlovda qatnashib, «Yilning eng yaxshi spektakli» oliy mukofot – diplom sertifikatini qo'lga kiritdi. Spektakl talab va iltimoslarga binoan, institut o'quv teatrida bir necha marotaba namoyish qilindi. Hatto teatrshunos Farhod Fayziyev tomonidan «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida «Mashrab dunyosiga yangicha tashrif» nomi bilan tahliliy maqola e'lon qilindi.

(2006-yil 24-fevral №8 (3837) «O'zAS» 5-bet)

«Mashrab dunyosiga yangicha tashrif»

Aslida bu spektakl haqida matbuotga kichik bir xabar yozib berish niyatimiz bor edi. Biroq asarning sahna talqini, aktyorlar ijrosi bizni tamomila o'zgacha olamga olib kirdi, tasavvuf olamiga mansub chinakam ishq, iymon, e'tiqodning sirli-sinoatli iforlaridan shuurimizga sarxushlik indi, katta sahnaga tetapoya qilish pallasidagi talabalarning o'z ishiga faol-mushohadali munosabatidan mutaasir bo'ldik.

Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at instituti o'quv sahnasida namoyish etilgan «Na malakman, na farishta» musiqali dramasi e'tiborga molik talqinlari bilan tomoshabinlarda hayajon hissini uyg'otdi...

Hozirgi O'zbekiston davlat san'at instituti

NOTA NAMUNALARI

KO'RSAT JAMOLING

Mashrab ariyasi

Mashrab so'zi

Farhod Olimov musiqasi

Andantino con moto

Voice

Piano

Kor - sat ja - mo - ling

Piano

mas - to - na - lar - ga

Ish - qing - da kuy - gan

par - vo - na - lar - ga

Mashrab
Men - dan du - o - dur

sen - dan i - jo - bat

Jo - nim ta - sad - duq

Jo - no - na - lar - ga.

Ey-ko'ng - li - qat - tiq,
Qil-g'il naz-zo - ra,

Rahm ay - la - may - san
be cho ra - lat - ga

Kuy-gan ji - ga - rim

shaf qat qil o - xir

2 marta qalandarlar
Ko'-ying - da yur gan

de vo - na lar - ga,

Ko'r-sat ja - mo - ling

mas - to - na - lar - ga,

Ish - qing - da kuy - gan

par - vo na - lar - ga

par - vo na - lar - ga

par - vo na - lar - ga

pp

TUSHDI SAVDOYI MUHABBAT BOSHIMA

Mashrab so'zi

Farhod Olimov musiqasi

Rubato

Piano

mf

Andante

mf

Tush-di sav-do - yi mu-hab - bat

p

bo - shi - ma or e tar

mar - dum ke - lur - ga qo - shi - ma

Vahmu - hab - bat

Ko' - yi - da qon yig' - la - dim

Yet - ti iq - lim g'arq bo'l -

di ko'z yo shi - ma

Kun da yuz - ming ja - br qil - sang

may - li - ga Qo'y - qa - rab

g'am to - shi - ni bar - do - shi - ma

Kun-da yuz ming ja-br qil-

do-shi-ma. *poco rit*

sang may-li-ga

Qil-ha-zar al-bat-ta jo-non

Qo'y-qa-rab g'am to-shi-ni bar-

qah-ri-din

uz - ru zo - rim sen - ga bag' - ri

to - shi - ma Mux - ta - sib

to'k - tur - di so - qiy bo - da - sin

Yet - ma - di aq - li

Rubato
a - ning sir - do - shi - ma Tush - di sav -

do - i mu hab - bat bo - shi - ma

Tempo

Or e tar mar dum

ke-lur - g'a qo-shi-ma.

ONAM
Mashrab ariyasi

Mashrab so'zi *Farhod Olimov musiqasi*

Moderato Con moto

Voice

Piano *ff*

Ja - mo - ling ko'r - ga - li kel-dim
Me - ning u - chun a - do bo'l-gan

a yo - ey meh - ri-bon o-nam.
yu-ra - gu bag' - ri qon o-nam.

S

f Xo' tan dash-ti - ga tush-dim bul
Bo-shim-ga tush - di bul sav-do
E shit gil ar - zi ho - lim-ni
S Ki han-go-mi ja-honda qum-

fa - lak - ning gar - di - shi bir - lan
men ay - tay sen - ga jon o - nam
bo' - lib men bul - bu - li shay-do
ri - dek sha - kar - fi - shon o - nam.

A - jo - yib meh - ri - bo - nim - san
I - lo ho avf qil - gay - san

me - ning o - ro - mi - jo - nim - san
bu Mash - rab - ning gu - no - hi - ni

Mu ro - di du ja - ho - nim - san
Tu fay - li o - na zo - rim
Ja - mo - ling ko' r - gim kel - dim

be-hish - tu jo - vi - don o - nam
 g'a - ri - bu no - to - von o nam.
 a - yo ey meh - ri - bon o - nam.

1.

1.

2.

Fine.

ASLI DA'VAT DINDADUR (Qalandarlar zirki)

Shoshilmay

Voice

T-ni

bub.
quticha

mp

mp

As - li dav - lat din - da - dur Mer - di ba - dav -
 Dil - da ma' - ni bo'l - ma - sa ah - li ha - qi -

p

lat man de - ma o xu o xu o xu
 qat man de - ma

quticha

mf

ho - ja - ti har ban - da - ni Par - var - di - go -

Nux fa - lak to man - gayur - sa bas o - xir sen ban - da - sen

rim xo'pbi - lur bor - ma max - luq ol - di - ga Muh - to - jo ho -

Ey Is - kan - dar tav - ba qil So - hib a - do - latmande - ma o

jat man de - ma o xu o xu o xu

xy o xu o xu o xu
quticha

ONAJON
Munis ariyasi

N.Qobil so'zi

Farhod Olimov musiqasi

Ad Libit senza metrum

Voice

Qo'ng'iroqcha

Piano

O-na - jon ru - hi po-king

biz - ga bo'l - sin

ma- dad - kor

g'a- nim - lar ja- fo - si-dan bel'dim

ku xor ko'p-e-kan bu dun

xo'r-lash-ga u-ri - nar e-kan

- yo - ni g'a-mu g'us - sa-si

uch - ra-gan ka-si

a-gar qo'l-la - ma-sang

ti-rik yur- mo - g'i-miz gu-mon

o'-zing o - na-jon

dir gu-mon.

AFGOR KELIBSAN
Mashrab ariyasi

Mashrab so'zi

Farhod Olimov musiqasi

Moderato Con moto

Piano *f*

mf

Dar-go-hing-ga bir o-ji-zi ad-gorke-lib-man

ar-zi di-li mi ayt-ga-li - chun zor ke-lib-man

Rad qil - ma qa - bul ay - la - ki shar - man - da - li - gim - ni

Ras - vo - i ja - hon ko' - cha - yu bo - zor ke - lib - man.

Lutf i - la ka - ram ay - la - yu dar - dim - ga da - vo

qil Dar - mon yi - la - bon

men sen - ga be - mor ke - lib - man.

Zo - ri - yi ta - val - lo qi - la - dur

p

mash - ra - bi mis - kin Och par - da - ni
Ar - zi di - li -

kim to - li - bi diy - dor ke - lib - man.
mu ayt - ga - li chun - zor ke - lib - man.

^{8va} Rudato solo Nay

pp

(8)

pp

MASHRAB VA OFOG'OY DUETI

Mashrab so'zi

Farhod Olimov musiqasi

Andantino

Piano

mf

Mashrab

Ish-qing - dame - ni vo - la-yu hay-ron

ya-ra-tib -dur Tar - so ba - cha ni

g'o -ra-ti i-mon ya ra - tib dur

Ish qing - da me - ni vo - la - yu hay-ron

ya-ra-tib - dur Tar-so ba-cha-ni

man ne-tay o-xir xo-liq me-ni tash-na

g'o-ra-ti i - mon ya-ra-tib - dur

sc-ni um - mon ya-ra-tib - dur

Ofog'oy

Bu dash - tu bi - yo - bon - da o' - lar -

Xo-liq me-ni tash-na se-ni um-

Dil - ba-ri ra'-no Bizg'am - za da-li -

mon ya - ra - tib - dur

- ni sen-ga um-mon ya-ra - tib - dur

Mashrab

Jo-nim - ni o - lur bo'l-sang ol ey

Ofog'oy

Ar-zim - ni senga ay - ta-yin ey

sho - hi ja - ho - nim

Biz - lar - ni ga - do kim se - ni sul -

ton ya - ra - tib - dur

Ayb ay - la - man - giz - lar me - ni no -

don ya - ra - tib - dur

pp

FINAL

ad Libit. senza metium

Chin qu - lim bir - la o - yo - g'im

bog' - la - moq ho - jat e - mas.

Man o' - lim - ga ro - zi man (ey) chun

tur - ga - li to - at e - mas

Lash - ka - r xun - re - zi bo'1 - sa

Sab - ri o - rom qay - dabor Maj - nu - ni

de - vo na - lar din Shox - ga ham

ro - hat e - mas.

Andante xor

ad Libit. senza metium

ff


Ey si - tam - gar kel - gi - lu

En - di sha hid et - gli me - ni

Ma'in ur - sun kar - ba - fo

dash - ti - da bu ko - nim me - ning

Andante e dolore. Xor
(o)



XOTIMA

Qissadan hissa shuki, aktyorlik kasbi, ayniqsa musiqiy aktyorning mas'uliyati nihoyatda yuqori ekanligini baholi qudrat ijodiy jarayonlar orqali asoslab, ushbu risolada yoritib, san'at institutining talabalariga yetkazib berishni burchim deb hisobladim. Zero, talabada musiqiylikni, musiqiy ovozni tarbiyalash barcha bo'lim mutaxassislaridan musiqiy bilimdonlikni talab qilishi shubhasizdir.

Shunday ekan, bunday nodir qobiliyatli talabalar, aktyorlar bilan yaxlit sahna asarlari yaratishda, avvalo, aktyorlik mahorati o'qituvchisi, sahnalashtiruvchi rejissyori nihoyatda nazokat bilan yondashishlari, albatta, musiqiy bilimga ega bo'lishlari qat'iy talab qilinadi. Shuning uchun spektakllarning badiiy saviyasini oshirish uchun bir qator takliflarni bildirib qo'yishni joyiz deb o'ylayman.

1. Azaldan musiqiy ovozga ega insonlar noyob sanaladi. Ularni respublika bo'ylab izlab topish va institutga jalb qilish kerak, deb o'ylayman.

2. Institutga kelayotgan barcha abituriyentlardan hujjatlari qabul qilinishidayoq, ovoz imkoniyatlarini ko'rikda sinab, «Musiqali teatr san'ati» bo'limiga saralansa, natijasi talab darajasida bo'ladi. Chunki bo'limda puxta bilim olgan talaba, kelajakda musiqiy, dramatik, qo'g'irchoq teatrdan ham, kino va qolgan barcha san'at jabhalarida ham faoliyat ko'rsata olishlari tajribada isbotini topgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. «Istiqlol va milliy teatr» (to'plam).
2. **K.S.Stanislavskiy**. «San'atdagi hayotim». Toshkent, «Badiiy adabiyot» nashriyoti, 1965. J.Obidov tarjimasini.
3. **B.E.Zaxava**. «Masterstvo aktyora i rijessyora». Moskva, «Prosvesheniye», 1978.
4. **M.Qodirov**. «Sehr va mehr». «G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at» nashriyoti. Toshkent, 1980.
5. **R.I.Usmonov**. «Rejissura». Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 1997.
6. **M.Qodirov**. «Soyib Xo'jayev».
7. **T. Azizov**. «Mening rejissurlik ishlarim». Toshkent, 2004.
8. **R.Hamroyev**. «Hayotim mazmuni». «G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at» nashriyoti. Toshkent, 1979.
9. **K.S.Stanislavskiy**. «Aktyorning o'z ustida ishlashi». T.Xo'jayev tarjimasini. Toshkent, «Badiiy adabiyot» nashriyoti, 1965.
10. **G.Muhammedova**. «Musiqali drama». Toshkent, 1993.
11. **M.Hamidova**. «Uzbekiskiy muzikalniy teatr». Toshkent, 1987. «Aktyori Uzbekskogo muzikalnogo teatra», 1989.
12. **O. Karsakova**. «Uzbekiskiy opernoy teatr». Toshkent, 1969.
13. **T.Tursunov**. «Turg'un Azizov». Toshkent, 2005.
14. Dramaturglik, rejissyorlik, aktyorlik haqidagi vaqtli matbuotda chop etilgan muammoli maqolalar. «Teatr», «Guliston», «Taffakkur», «Sharq yulduzi» jurnallari va «Adabiyot va san'at» gazetasi.
15. **S.Abdullayeva**. «Tursunxon Jafarova». 1974,
16. **Jo'rayev**. «Abdurauf Boltayev». «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1982.
17. **O.Rizayev**. «Nabi Rahimov». «G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at» nashriyoti, 1997.
18. **O.Rizayev**. «Sahna madaniyati». Toshkent, «Manaviyat», 2000.

MUNDARIJA

I BOB

MUSIQALI DRAMA YARATISHNING NOZIK JIHATLARI

Muqaddima	3
G'oyaning tug'ilishi	6
Huriniso ona obrazi	7
Jamshid obrazi	9
Ezgulik kushandalari	10
Baxtigul obrazi	11
Voqelik tizimi	12
Tugun	12
Kulminatsiya	12
Yechim	12
Xulosa	13
Bastakorning o'rni	15
Sahna soxtalikni yoqtirmaydi	17
Musiqiy asarda she'rning o'rni	19
Musiqali asarda xor	20
Badiiy rahbar va ijodiy guruh	21
Sahnada — kuylovchi aktyorlar	23
Hal qiluvchi jarayon	24
Nota namunalari	27

II BOB

NAZARIY BILIM VA AMALIY TAJRIBA UYG'UNLIGI

Muallif	72
Asar tanlash	74
Asosiy obrazlar taqsimoti	75
Obrazlar tahlili va sahnadagi xatti-harakatlar	78
Ijodiy jarayon	79
Musiqiylik jarayoni	81
Ona obraziga chizgilar	83
Ichki holat	86
Muhabbat sahnasi	88
Nozik jarayon	90
Individual yondoshish	94
Iltijo	96
Qaro zulfing	97
Ehtirosni jilovlash	100
Ongli harakat	102
Munojat sahnasi	104
Nota namunalari	108

III BOB

NAZARIY BILIM VA AMALIY TAJRIBA UYG'UNLIGI – MUVAFFAQIYAT OMILI

Muallifdan	136
Pyesaning birinchi ko'rinishi	143
Pyesaning beshinchi ko'rinishi	158
Nota namunalari	177
Xotima	227
Adabiyotlar ro'yxati	228

Boir Mirzaaliyevich Xolmirzayev

REJISSYORNING SPEKTAKL USTIDA ISHLASH JARAYONI

Darslik

«Musiq» nashriyoti,
Toshkent – 2009

Muharrir *H.Yusupova*
Texnik muharrir *T.Greshnikova*
Rassom *B.Ashurov*
Musahhah *H.Yusupova*
Kompyuterda tayyorlovchi *B.Ashurov*

Bosishga 2009-y.30.07. da ruxsat etildi. Bichimi 60×84¹/₁₆. Tayms garniturası.
Ofset bosma. Shartli b.t. 14,5. Nashr tobog'i 15,0.
Jami 500 nusxa. Buyurtma № 32. Bahosi shartnoma asosida.

«Musiq» nashriyoti. Toshkent. B.Zokirov ko'chasi, 1.

«Noshir» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, pastki savdo rastalari.

85.335(5Ў)

X-72

Xolmirzayev, Boir Mirzaaliyevich.

Rejissyorning spektakl ustida ishlash jarayoni: san'at va madaniyat oliy o'quv yurtlari uchun darslik /B.M.Xolmirzayev; mas'ul muharrir H.Ikromov; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: «Musiqqa», 2009. 232 b.

BBK 85.335(5Ў)я73